

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 323:323.2(323.21)

TO'XTASINOV BOBOMUROD TULKINBOY O'G'LI

IJTIMOIY HAYOTNI TASHKIL ETISHDA DAVLATNING O'RNI
(SIYOSIY-NAZARIY TAHLIL)

**23.00.01 – Siyosat nazariyasi va falsafasi.
Siyosiy ta'limotlar tarixi va metodologiyasi**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Jo'ravayev Ro'zimat To'xtasinovich
siyosiy fanlar doktori, professor**

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. “INSON-JAMIYAT-DAVLAT” TIZIMINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	13
1.1-§. Ijtimoiylik – inson ehtiyojiga xos xususiyat.....	14
1.2-§. Ijtimoiy birlik sifatida jamiyatning siyosiylik xususiyati	26
1.3-§. Davlat – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning asosiy omili sifatida	39
Birinchi bob yuzasidan xulosalar	53
II BOB. DAVLATNING IJTIMOIY-SIYOSIY TARTIBOT KAFOLATI EKANLIGI	55
2.1-§. Davlat – jamiyat hayoti va faoliyati tashkil etilishining muhim shakli.....	55
2.2-§. Davlat – jamoaviy kuch va milliy salohiyat ifodasi	68
2.3-§. Ijtimoiy institut tarzida davlatning tarixiy-madaniy an'analar bilan bog'liqligi	82
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar	96
III BOB. MILLIY-MADANIY QARASHLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDA AKS ETISHI.....	99
3.1-§. Milliy an'analar va qadriyatlarni asrashda davlatning mas'uliyati	99
3.2-§. Jamiyat asoslarini mustahkamlash – davlatning strategik maqsadi ...	112
3.3-§. “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi Yangi O‘zbekistonda umumxalq safarbarlik ifodasi	124
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar	137
XULOSA	139
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	143

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli soha va yo‘nalishlarda faol sivilizatsiyalashuv jarayonlarining ro‘y berishi, davlatning jamiyat ijtimoiy hayotini tashkil etshga hamda unda muayyan tartiblarni bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan muhim vazifalarining samarali ijrosiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bunda zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar siyosatida sifat jihatdan yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirish, jamiyat boshqaruvida birinchi navbatda inson ehtiyojiga mos tuzilmalarni isloh etishga doir intilishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jamiyatda ijtimoiy hayotni boshqarishda davlatning rolini ortib borishi, ro‘y berayotgan transformatsiyon jarayonlarining siyosiy tizimga ta’siri, jahon intellektual jamoatchiligidagi ijtimoiy birliklarni saqlab qolishga doir davlatning vazifalarini rivojlantirish hamda uning siyosiy rolini aniqlash bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan demokratik taraqqiyot mezonlariga xos ijtimoiy hayot tamoyillari va uning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy imkoniyatlar platformasidagi rolini kuchaytirish, davlatning bu sohadagi o‘rni, innovatsion rivojlanish siyosati samaradorligini yanada takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir sohasini muvofiqlashtiruvchi me’yorlarni joriy etish, sotsiumlararo ijtimoiy hayotni tashkil etishda davlatning funksiyalari, o‘ziga xos mexanizmlarini joriy etish, insonlarning ijtimoiylikka moyillik masalasi, inson va jamiyat birligi asosida uyg‘unlashuv va siyosiy qadriyatlarni shakllanishi kabi omillar muhim yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanmoqda. Bu borada davlat ijtimoiylashuvining institutsional, funksional va strukturaviy jihatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etish dolzarblastib bormoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barqaror fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlatning ijtimoiy-iqtisoiy, siyosiy-huquqiy asoslarini shakllantirishda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida farovon hayot, inson

huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalish¹lar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Taraqqiyot Strategiyasi"da davlat boshqaruvini chuqur isloh qilish, uni inson manfaatlari sari yo'naltirish orqali ijtimoiy davlatchilik munosabatlariga xos amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifaga aylandi. Bunda davlat, jamiyat, fuqarolar o'rtaсидаги ko'п qirrali bog'liqlik, o'zaro samarali muloqotning yangi modelini yaratish Yangi O'zbekistonning bosh ustuvor islohotining muhim yo'nalishidan biridir. Shu bois mazkur vazifalarning amaliy ijrosi, ijtimoiy hayotda o'zining natijadorlikka qaratilgan aksini topishi, inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash davlat va jamiyatning dolzarb maqsadi sifatida belgilanmoqda.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi", 2018-yil 18-sentyabrdagi PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darjasи. Davlat paydo bo'libdiki, uning mohiyati, ma'no-mazmuni, harakatga keltiruvchi qadriyatlar tizimi, maqsadi, burch va mas'uliyati bilan bog'liq har doim dolzarb muammolar Sharqda ham va G'arbda ham ilmiy tafakkur ahlining e'tiborini o'ziga jalb etgan. Platon va

¹ 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Адолат миллий хукукий ахборот маркази. 2022. –Б.4.

Konfutsiy, Aristotel va Men Szi, Avliyo Avgustin va Nichiren Dayshonin kabi qadimiyat allomalari; yangi zamon ilm-fani vakillaridan Spinoza, Gobbs, Russo, Monteskye, Makiavelli, Gegel, Feyerbax, Kant, de Sharden, Sartr, Rammohan Roy va Sun Yatsenlar qalamiga mansub asarlarda keltirilgan davlatning o‘rniga oid benazir falsafiy-siyosiy umumlashmalarda ushbu tendensiyani kuzatish mumkin. Hodisa va ijtimoiy borliq hamda tushuncha sifatida davlat va davlatchilik muammosi har doimgidek ko‘plab olimlar, ilmiy markazlar e’tiboridan markaziy o‘rin egallagan, desak nojoiz bo‘lmash. Xullas, dunyoda biror bir davlat yo‘qliki, u yerda davlatning mohiyati va istiqboli bilan bog‘liq muammolar jiddiy ilmiy tahlil qilinmasin. Davlatga doir yangi fikrlarning paydo bo‘lishi, unga ilm ahlining e’tibori kuchayish jarayonini asosan zamonaviy davlatlar (o‘z chegarasi, bayrog‘i, gerbi, konstitutsiyasi, suvereniteti, poytaxti)ning shakllanish davri bilan bog‘lash asosga ega. Aynan shu davrda M.Veber, M.Manhey, A. de Tokvil, F.Brodel, L.Karsavin, E.Dyurkgeym va N.Danilevskiy singari mashhur sotsiolog va faylasuflar va qolaversa hozirgi davr mutaxassislarining asarlari nashr etildiki, ulardagi davlat va uning zimmasidagi vazifalarga oid yetuk fikrlar jahon ilmiy va siyosiy jamoatchiligi mulkiga aylandi².

Muammoning O‘zbekistonda o‘rganilganlik darajasiga keladigan bo‘lsak, shuni aytish joizki, mustaqillik davrida ushbu ishmiy muammoga bo‘lgan e’tibor, tabiiyki, alohida ko‘rinish kasb etdi. Jumladan, Birinchi Prezident I.Karimovning asarlarida zamonaviy o‘zbek davlatchiligining nazariy-konseptual asoslari

² Аристотель. Политика. Кн. первая // сочинения в 4-х томах. – М.. 1984. Т. 4; Ван Янмин. Записки о направлении и учёбе // Философские идеи Шанхая. – 2015; Гегель Г.В. История философии // Соч. Т. 8; Гегель Г.В. Отношение философии к другим областям // Соч. Т. 9. Лекции по истории философии. – М., 1932; Гегель. Женская реальная философия // Гегель. Работы разных лет. В 2-х томах. – М.: “Наука”, 1970. Т. 1; Гегель. Политические произведения. – М., 1978; Гегель. Философия права. – М., 1990; Гегель. Хукук фалсафаси // Сочинения. – М.–Л., 1934. Т. 7; Де Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1987; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда// Метод социологии. – М., 1991; Кант И. Идеи всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – 1966; Конфуций. У истоков мудрости. – М.: “Альма Матер”, 2008; Монтескё. О духе законов. Избр. произ-я. – М., 1995; Руссо Ж. – Ж. Онтология мировой философии. В 4-томах. – М., 1970; Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Трактаты. – М.: “Наука”, 1969; Спиноза Б. Богословско-политический трактат // Избранное произведения. – Т. 2. – М.: “Наука”, 1996; Фейербах Л. Необходимость реформы философии // Избранные философские произведения. В 2-х томах. – М.: “Прогресс” 1955. Т. I; Фихте И.Г. Основные черты современной эпохи. – СПб., 1886; Хайдеггер М. “Время картины мира”. Новая технократическая война на Западе. – М., 1986; Хайдеггер М. Основные понятия метафизики // Вопросы философии. – 1989; Цзин Цанжун. Буюк давлат масъулияти: Хитой истиқболи. – Тошкент: Академнашр Олтин медиа, 2017; Чинь У. Философские идеи. – Шанхай: Международный издательский дом, 2009; Ranke I. Von – The Theory and Practice of History/ – Bonn, 1991.

yaratildiki, yurtimiz ijtimoiy-gumanitar ilm-fan vakillari (huquqshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va faylasuflar) tomonidan mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar uchun u ma'lum ma'noda metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qildi, deyish mumkin. Birinchi guruh mahalliy mutaxassislardan Sh.Paxrtdinov, I.Ergashev, A.Qodirov, A.Asqarov, R.Jumayev, Q.Nazarov T.Alimardonov, E.Rtveladze, A.Saidov, A.Muminov, M.Rahmonqulov, T.Jo'rayev, A.Jalilov, J.Mavlonov, F.Jo'raqulov, K.Mirzaaxmedov boshqa siyosatshunos, huquqshunos, faylasuf va tarixchi olimlarning ilmiy ishlarida o'zbek milliy davlatchiligidan tarixiy-madaniy, huquqiy, ma'naviy hamda qadriyatiy asoslarining tahlili ustuvorlik kasb etganligi o'z-o'zidan tushunarli³. Biroq ularning ilmiy ishlari predmeti va ob'yekti nuqtayi nazaridan boshqa dolzarb muammolar yechimiga qaratilganligi boisdan inson, sotsium va jamiyatga xos jamoaviy hayotiy faoliyatning natijasi va shakli sifatida davlat bilan bog'liq dolzarb jabha mamlakatimizda ilmiy tadqiqot mavzusiga aylanganicha yo'q. Zero, bugungi notinch va beqaror dunyo uchun ming yillar avval anglanib, ammo keyinchalik ilmiy jamoatchilik e'tiboridan yiroqlashgan bu global ijtimoiy jarayonga yana qaytish, ilmiy tafakkurning tabiiy o'zanga tushishi masalasi bugun fundamental imperativga aylanib ulgurdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga I.3-bandi

³ Сайдов А.Х., Жузжоний А. Шарқ цивилизацияси: инсон ва ҳукуқ (ўтмиш ва ҳозирги замон). – Тошкент: “Адолат”, 2005; Жумаев Р.З., Назаров Қ.Н. Ўзбекистон республикаси сиёсий тизими: шаклланиши ва ривожи. – Тошкент: “Шарқ”, 1996; Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: “Маънавият”, 2007; Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ. – Тошкент: “Янги аср”, 2010; Жўраев Т.А. Миллий давлатчилик: барқарорлик, хавфисзлик. – Тошкент: “Akademiya”, 2008; Жўраев Т.А., Паҳрутдинов Ш.И. Дунёвий давлатчилик ва сиёсийлашган динийлик. – Тошкент: “Akademiya”, 2010; Жўракулов Ф. Фуқаролик жамиятини қуриш шароитида давлат ижроия ҳокимияти тизимини модернизациялаш: Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 2018; Мавлонов Ж. Фуқаролик жамиятига оид замонавий концептуал дискурснинг асосий йўналишлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент, 2017; Муминов А.Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути её реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика): Автореф. дисс.докт.полит.наук. – Ташкент, 1999; Куранбаев Қ.Қ. Давлат бошқарув кадрлари тизими: шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (сиёсий-ижтимоий жиҳатлари). Сиёсий фан. доктори. дисс. – Тошкент: ДЖҚА, 2008; Қаҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий мухит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фан. доктори. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2012; Қурбонов Р. Миллий гоянинг ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги роли: Фалсафа фан. номзоди дисс.– Тошкент, 2009; Қўчкоров В. Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий хаётни демократиялаш жараёнида миллий ўзликни англаш муаммоси (сиёсий-фалсафий тадқикот): Сиёсий фан. доктори. дисс. – Тошкент, 2009.

“O‘zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari (2017-2030 yillar)” mavzusidagi ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatda ijtimoiy hayot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan davlatning ijrochilik funksiyalarini ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“inson-jamiyat-davlat” tizimining nazariy-metodologik asoslarini tahlil etish;

davlat – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning asosiy omili ekanligini qiyosiy o’rganish;

davlatning jamiyat hayoti va faoliyatini tashkil etishdagi funktsiyalarini aniqlashtirish;

ijtimoiy institut tarzida davlatning tarixiy-madaniy an’analar bilan bog‘liqligini ochib berish;

xalqning ezgu maqsadlari, ruhi, axloqi va an’analari tashuvchisi sifatida davlatning o‘rnini asoslash;

davlatning jamoa bo‘lib yashash va farovonlikka intilishning yuqori ko‘rinishi, ijtimoiy muloqot va munosabatlar jarayonida davlatning o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

davlat manfaatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

milliy-madaniy qarashlarning davlat boshqaruvida aks etishi yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’yektini jamiyat ijtimoiy hayotida inson-jamiyat-davlat ijtimoiy hamkorligining o‘zaro manfaatdorligi, burchi va mas’uliyati kabi jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti insonning ijtimoiy tarzda jamoaviy yashashi, tabiatan farovonlikka intilishining reallik va jarayon sifatida davlat tarkib topishidagi harakatlantiruvchi kuch sifatidagi roli tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylilik, kuzatuv va tahlil, zamonaviylik va tizimlilik, analiz va sintez, umumlashtirish va institutsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatda erkin bozor munosabatlarini o‘z qonuniyatlari va adolat prinsiplari asosida davlat tomonidan tizimli, ratsional, gumanistik chora-tadbirlar orqali rivojlanishi ijtimoiy hayotda aholining mulkiy erkinligini ta’minlash va jamiyat barqaror taraqqiyotining asosi ekanligi ochib berilgan;

davlat tomonidan jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda, fuqarolik jamiyati institutlarini qo’llab-quvvatlash va me’yoriy tartibga solish mexanizmlarini samarali joriy etishi aholida fuqaroviylik imkoniyatlarini oshirish, davlat va shaxs o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlovchi inson farovonligi, ijtimoiy-ma’daniy hamohanglik, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarda tolerantlik omillari “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga uзви bog‘liq xalqparvar davlatni barpo etishning muhim zarurati ekanligi ochib berilgan;

jamiyatda qonun ustuvorligi, siyosiy hokimiyatning legitimligi, har bir inson uchun farovon turmush darajasining kafolatlanganligi hamda fuqarolarni siyosiy jarayonlardagi faolligini teng imkoniyatlariga tayanilishi davlatning ijtimoiy institutsionallashuviga olib kelishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatda keng ko‘lamli ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirilishi fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim yaratish funksiyalari aniqlangan;

davlat tushunchasini xalqning ijtimoiy-siyosiy kuchi sifatida ilmiy tahlil etish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichiga, davlat va fuqarolar munosabatiga bugungi kun nuqtayi nazaridan qarash zarurati asoslangan;

davlatning siyosiy imkoniyatlari va iqtisodiy salohiyati, insonparvarligi, aql-zakovat mohiyati – tabiatidan foydalangan xalqgina uning abadiyligi, barqrarorligi, hayotiyligini ta'minlashga bog'liq bo'lib, u ajdodlar bilan avlodlar tadrijiyligini saqlab qolgan davlatni o'ziga munosib davlat deb baholash mumkinligining ijtimoiy xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi OAK ro'yxatidagi mahalliy va xorijiy jurnallarda hamda xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida chop etilgan ilmiy maqola va tezislarda aks ettirilgan xulosalar va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, tadqiqotdan olingan ilmiy natijalarning asoslanganligi va ma'lumotlardan foydalanishda rasmiy manbalarga tayanilganligi, ilmiy natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar va tub o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy hayotni rivojlantirish, islohotlarni yanada optimallashtirish omillari, yo'llari, usul va imkoniyatlarini chuqurroq anglab yetish hamda shu asosda amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi. Jamiyat ijtimoiy hayoti rivojini ta'minlashga doir davlat siyosati bo'yicha dasturlar ishlab chiqish, tadqiqot mavzusi bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etish, oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlar bo'yicha ushbu sohaga oid mavzularni o'qitish jarayonlarida, aholi orasida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda ilmiy manbalardan biri sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar, amaliy tavsiyalardan davlat tushunchasiga noan'anaviy yondashuvga intilish jarayonida yuzaga chiqqan ilmiy umumlashmalar milliy davlatchiligidan shakllanishi jarayonining yangicha tahlili turdosh ilmiy izlanishlarga oid ijtimoiy-siyosiy an'analar, mavjud steriotiplarning qayta idrok etilishi va yangilanishi uchun o'ziga xos turtki bo'lish ehtimoli bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy hayotni tashkil etishda davlatning o‘rnini ochib berish hamda mazkur masalaning siyosiy-nazariy tahlilini amalga oshirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

jamiyatda erkin bozor munosabatlarini o‘z qonuniyatlari vaadolat prinsiplari asosida davlat tomonidan tizimli, ratsional, gumanistik chora-tadbirlar orqali rivojlanishi ijtimoiy hayotda aholining mulkiy erkinligini ta’minlash va jamiyat barqaror taraqqiyotining asosi ekanligi borasidagi ilmiy xulosalari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishida belgilangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘iboti 10-band” “Avval - inson, keyin - jamiyat va davlat” g‘oyasini aholi ongiga chuqur singdirish hamda milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy va targ‘ibot ishlarni tashkil etish” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalilanilgan. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil 15-iyundagi 02-22/586-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston – xalqparvar davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish borasidagi ustuvor vazifalarni targ‘ibot va tashviqot ishlarini samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

davlat tomonidan jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va me’yoriy tartibga solish mexanizmlarini samarali joriy etishi aholida fuqaroviylit imkoniyatlarini oshirish, davlat va shaxs o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni shakllanishiga xizmat qilishi ilmiy xulosalaridan O‘zMRTK oldiga qo‘ygan vazifalarni amalga oshirishda foydalangan, xususan, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2022-yil mart va may oylaridagi “Millat va ma’naviyat”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” eshittirishlarini samarali tashkil

etishda, ularning dastur va ssenariyalarini taylorlashda (2021-2022-yillarda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanalı” davlat muassasasining 2022-yil 6-iyundagi 04-36-826-son dalolatnomasi). Natijada “Davlat – xalq uchun” siyosati va “Inson qadri uchun” tamoyilllarini targ‘ib qilishga qaratilgan qator ko‘rsatuv va teleeshittirishlarni tayyorlash va ularning ssenariyalarini ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlovchi inson farovonligi, ijtimoiy-ma’daniy hamohanglik, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarda tolerantlik omillari “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga uzviy bog‘liq xalqparvar davlatni barpo etishning muhim zarurati borasida bildirilgan xulosalar O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi saylovoldi dasturining “Partiya siyosiy mafkurasining” asosiy ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 7-fevraldaggi 1-42-son dalolatnomasi). Natijada partiya dasturidagi ijtimoiy adolat va tenglik, xalqning tarixiy an’analarida chuqur ildiz otgan ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy demokratiya kabi partiya siyosiy mafkurasining asosiy qadriyatlari hisoblangan me’zonlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

jamiatda qonun ustuvorligi, siyosiy hokimiyatning legitimligi, har bir inson uchun farovon turmush darajasining kafolatlanganligi hamda fuqarolarni siyosiy jarayonlardagi faolligini teng imkoniyatlariga tayanilishi davlatning ijtimoiy institutsionallashuviga olib kelishiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining elektorat manfaatlari yo‘lidagi amaliy faoliyatida, partiyadan saylangan deputatlar faoliyatini amalga oshirish jarayonida hamda partiya tomonidan o‘tkaziladigan siyosiy o‘quv soatlarini tashkil etishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 7-fevraldaggi 1-42-son dalolatnomasi). Natijada mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosa va tavsiyalardan partiya saylovoldi dasturini ishlab chiqishda, hamda partianing amaliy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shundan 2 tasi xalqaro, 3 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy maqola chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiylarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta, shundan xorijda 4 ta, qolganlari esa respublika nashrlarida chop etilgan ilmiy maqolalardan iborat.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya matni kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

I BOB. “INSON-JAMIYAT-DAVLAT” TIZIMINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Davlat jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida – jamiyat hayotini tashkil etishning zarur vositasi sifatida, jamiyat mavjudligining ajralmas sharti sifatida vujudga kelgan.

Ta’kidlash joizki, hozirgi zamon davlati ko‘p qirrali ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lib, uni tavsiflashda turfa qarashlar va yondashuvlar, nazariya va konsepsiylar mavjud. Bunday holatning sabablaridan biri – dunyodagi barcha davlatlar rivojida va amal qilishida umumiyligi jihatlar bo‘lishi bilan birga, ayni paytda har bir davlat o‘ziga xosdir.

Ayni paytda, jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari davlat haqidagi klassik qarashlarga o‘zining ayrim tuzatishlarini kiritmoqda. Har bir davlat borgan sari xalqaro hamjamiyatga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bu ob’yektiv jarayon. Shu bilan bir qatorda, davlatni davlat ekanligini ta’minlab turadigan shunday elementlar borki, ularsiz davlat to‘la qonli bo‘la olmaydi. Bu davlatning aholisi, hududi va davlat organlaridir.

Darhaqiqat, davlat o‘z qo‘lida to‘plangan davlat hokimiyatini aniq belgilangan hududda istiqomat qiladigan aholiga qaratadi. Shunga bog‘liq holda davlat aholisi, davlat hududi, davlat hokimiyatini amalga oshiradigan davlat organlari tizimi mavjud bo‘ladi⁴.

Ayni paytda davlatning paydo bo‘lishi va shakllanishi tabiiy – tarixiy jarayon bo‘lmay, balki ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Shu bois, muayyan xalqda davlatchilikning paydo bo‘lishi bevosita millatning shakllanishi natijasi bo‘lmay, balki bu jarayon kechgan ijtimoiy muhit hisoblanadi⁵.

Mazkur bobda inson-jamiyat-davlat birligi va hamkorligida ijtimoiy hayotning asosiy jabhalari hisoblangan xo‘jalik yuritish, siyosiy jarayonlarni tashkil etish, siyosiy madaniyatning, inson, sotsium va jamiyatning davlatga

⁴ В.А.Четверников «Элементы государства» номли параграфидан фойдаланган ҳолда тайёрланган. Каранг: Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра Норма М.2011. С.541.

⁵ Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра. Норма М.2004. С.541.

nechog'lik aloqadorligi sabablari olib beriladi. Shuningdek, davlatchilik rivojining bosqichlari, ijtimoiy davlat g'oyasi, Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy hayot belgilari va xususiyatlari borasidagi yondashuvlarining qiyosiy tahlili olib beriladi.

1.1-§. Ijtimoiylik – inson ehtiyojiga xos xususiyat

Inson intellekti zamонлар ва маконлараро кечмishлarda давлатning nimaligi, uning shuncha asrlar davomida yashovchanligining sir-u asroriga mudom qiziqib kelgan. Gap hatto uning ilk ibtidosi, vujudga kelgan vaqt va qolaversa ijtimoiy-madaniy sabab hamda motivlari xususida ham emas, balki u kerakmi yoki kerak emasmi, degan masalalarga oid qator, ba'zida bir-birini inkor qiluvchi ta'limotlar-u nazariyalar ko'p. Bu borada bahs-munozaralar hali-hanuz qizg'inligicha qolmoqda. Darhaqiqat, bunday bahs-munozaralar, xususan, liberal-demokratizm g'oyasi ijtimoiy loyihasining boshqa ta'limotlarga nisbatan so'nggi asrlarda nufuzliroq ko'rinish berishi bilan yana avj oldi. Shuningdek, siyosatchilar, ilmiy jamoatchilik vakillari orasida ijtimoiy hayot va faoliyatning tashkil etilish shakli sifatida давлатning bugungi salohiyati va kelajagiga hatto shubha bilan qaraydiganlar soni ham ortib bordi. Balki bu yerda negadir keng yoyilayotgan konspirologiyaning ham ta'siri bordir – ammo u boshqa jabha, bizga aloqasi yo'q.

Demakki, muammoga siyosat olami va ilmiy jamoatchilik qiziqishining sababi boshqa joyda – davlatsiz jamiyat va aksincha jamiyatsiz давлат ham yo'qligida. Davlat bilan jamiyat garchand bir reallik bo'lmasa-da, ularni bir tanganing ikki tomoni deyish mumkin. Zero, jamiyat ko'plab individlar birlashushi sotsial pillapoyasining ancha yuqori darajasi sifatida shu marraga aynan давлат tufayli, u bilan o'zini aynanlashtirishi va hamnafasligi boisdan jamiyat darajasiga ko'tarildi. Jamiyatning tub substansiyaviy unsuri bo'lgan Insonga, qolaversa ijtimoiy hayotning asosiy jabhalari (xo'jalik yuritish, siyosat, madaniyat va ta'lim)ga aynan shu fikrdan chiqib yondashilsa, ularning давлатга nechog'lik daxldorlik sababini yanada idrok etish mumkin bo'ladi.

Zikr etilgan umumlashmaga xayolan qaytadigan bo‘lsak, bu yerda o‘ziga xos Inson-Sotsium-Jamiyat-Davlatdan iborat ijtimoiy “zanjir”ga duch kelamiz. Ko‘p holatlarda u qandaydir to‘g‘ri chiziqli, ya’ni quyidan yuqoriga beto‘xtov yo‘g‘rilgan, birining o‘rnini ikkinchisi egallashi taqozo etiluvchi “ijtimoiy estafeta”ga nisbat qilib tasavvur va talqin qilingan. Buni bir necha asr davomida umuman ilm-fanda begumon hukm surgan taraqqiyotni “chiziqli” – quyidan yuqoriga muttasil intiluvchi tendensiya deb tushunishning asorati deb bilamiz. Unga ko‘ra, eng avval Inson paydo bo‘lib, bir necha ming yillar mobaynida yarim yovvoyilik, ya’ni “tarixgacha” behudlik holatida yashagan holda na sotsiumni, na jamiyatni va na davlatni xayoliga keltirgan. Inson ham aqlan, ham fiziologik nuqtayi nazardan o‘zgarmasdan qolavergan. Son-sanoqsiz asrlarni qamrab olgan u davrga nisbatan “ibridoiy jamoa” degan tushuncha nisbat qilingan. Shuningdek, u davrga nisbatan “tarixiy bosqich”, “inson”, “jamoa” singari atamalarini nisbat qilish mushkul. Demak, bunday pallada yashash emas, shunchaki mavjudlik, hayot maromi, Gobbs aytganidek, “barchaning barcha bilan urishuvi” doirasida kechgan ekan⁶.

“Chiziqlilik” ta’limotining (uning shakllanishini faqat marksizm bilan bog‘lash ham nojoiz) mantig‘iga asoslanadigan bo‘lsak, to‘da-to‘da, yarim yovvoysi odamlar o‘zлari bilmagan holda allaqanday o‘zgarmas mexanik o‘rin almashinuv qamrovida ong va tafakkursiz holatida oila, jamiyat va nihoyat davlat atrofida yig‘ilishgan bo‘lib chiqadi. Soddaroq ifodalash joiz bo‘lsa, o‘sha to‘dalar zamonlar o‘tib o‘ylamasdan, anglamagan holatda oila, jamiyat va davlatga birlashgan bo‘lib chiqadi. Aynan shu “chiziqlilik” uning boshqa bir varianti formatsion nazariyaga binoan taraqqiyot cheksiz to‘g‘ri chiziqli. Demakki, davlat ham kelib-ketuvchi ijtimoiy-tarixiy omil tarzida mavridi kelib barham topishi muqarrar, deyish uchun dastak bo‘lib xizmat qilganligi tayin. Chiziqli formatsion ta’limotga ko‘ra, davlat ijtimoiylikka immanent emas, balki muvaqqat bir fenomen ekan.

⁶ Исаев И.А. Учредительное насилие: мест и жертвоприношение // История государства и права. – 2018. – №3. – С. 5.

Yuqoridagi holatni bema’ni bir safsata deyishdan yiroqmiz. Olamni, insoniyat sir-u asrorini bilish, haqiqat sari intilish – cheksiz jarayon. Shunday ekan, u to‘g‘rimi yoki unchalik to‘g‘ri emasmi va kim tomonidan va qachon paydo bo‘lganligidan qat’iy nazar har bir xulosa jamiyatni, insonni anglashning u yoki bu ko‘rinishi hisoblanadi. Qizig‘i shundaki, u yanada afzalroq, ilmiy nuqtayi nazardan ancha mukammal ikkinchi bir ilmiy fikrning paydo bo‘lishi uchun turtki, tramplin vazifasini ham o‘taydi.

XX asrning birinchi yarmidagi birin-ketin ikki jahon urushi bunday aksilinsoniy voqeа-hodisalar zamirida iqtisodiy yoki siyosiy omillardan ko‘ra inson omili, uning ong va tafakkurida ro‘y bergen salbiy o‘zgarishlar yotganligi ayon bo‘lib qoldi, bu xususan, inson muammosining falsafiy tafakkur markazidan joy olishiga olib keldi. Hamma narsalarni harakatga keltiruvchi ob’yektiv omillar va qonuniyatlar bilan bir qatorda sub’yektiv (ma’naviy, ruhiy, hissiy) omillarning inson tafakkuri va ongi yo‘nalishidagi qudrati va quvvati yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Bu transformatsiya, o‘z navbatida, noklassik hamda postnoklassik falsafiy jarayonning ko‘rinishlaridan ekzistensializm va inson falsafasi – antropologiyada ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlandi.

Ushbu global ma’naviy-ijtimoiy transformatsiya tabiiyki, birinchi navbatda Inson tabiatiga nisbatan yangicha munosabat unda ko‘p jabhalarni tubdan o‘zgartirishga qodir buyuk kuch-qudrat mavjudligining e’tirof etilishiga olib keldi. Inson evolyutsiyasiga doir Darwin ta’limoti shunchaki bir shaxsiy taxmin ekanligi bugun isbotini topdi. Bu jarayon dunyoni, uning unsurlarini yangicha idrok etishga, jumladan davlatning kelib chiqishiga ham boshqacha yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Insonning o‘rni xususidagi haqiqatga yaqin zamonaviy qarashlar ilm-fan bag‘riga qayta boshladi.

Shu munosabat bilan K.-A.Gelvetsiy qalamiga mansub bir syujetga e’tiborni qaratsak, “Inson-Davlat” tizimida ba’zi narsalar oydinlashadi, deb o‘ylaymiz. Inson o‘z tabiatiga ko‘ra, ham o‘txo‘r va ham go‘shtxo‘r mavjudot hisoblanadi. Biroq u zaif, yomon qurollanganligi sababidan o‘zidan kuchliroq, ochko‘z maxluqlar qurbaniga aylanishi tayin. Ozuqa topish yoki yo‘lbars va arslonlar

hamlasidan qutulishi uchun, Inson boshqalar bilan birlashishga majbur”⁷, deb bir fundamental ijtimoiy imperativga ishora qilgan ekan, mutafakkir. Atoqli fransuz faylasufi qalamiga mansub bu fikrda bizni qiziqtirgan jihat, eng avvalo, insonlar biri biri bilan yaqinlashuvi, “qora tortib borishi” bilan bog‘liq ichki ehtiyoj, motivatsiya, ya’ni ongli xatti-harakatdir. Bu yerda individual intilishlarning guruhiy intilishga aylanishi, birlashgan holda umumiylar maqsadga – o‘zi va har bir guruh a’zosining xavfsizligini ta’minlash, qolaversa birlashib umumiylar muammoning yechimini topish bilan bog‘liq jihat muhim. Buning uchun ong va tafakkur, maqsadli intilish degan benazir omil kerak ediki, u jonzotlar orasida faqat insongagina xos, unga ato etilgan ne’mat.

Falsafaning bosh masalasi xususida munozara haddan ziyod avjiga chiqqan asnlarda Inson va uning aql-zakovati, ruhiyati, ma’naviy olami xususida zukko fikrlar sohibi – fransuz ilohiyotchi faylasufi P.T. de Sharden (XIX asr oxiri – XX asr ilk pallasi) shunday xulosaga kelgan: “Odam morfologiyasida sodir bo‘lgan ko‘z ilg‘amas, ammo buyuk sakrash va shu tufayli hayotning barcha jabhalarida ro‘y bergan misli ko‘rilmagan silkinishlar... – insonni Insonga aylantirdi va paradoks ham shunda”⁸. Bu yerda kutilmaganda (klassik ta’limotlarda bu behisob mingyilliklarga nisbat qilingan) ong va tafakkur insonga in’om etilganligi va shundan boshlab uning o‘zi haqida tashvishlanishi, ezgulik, farovonlikka intilishi va nimalar qilsa u bunga erishishi mumkinligi xususida bosh qotiruvchi Hazrati Inson darajasiga chiqqanligi haqida so‘z yuritilgan.

Holbuki, individ qanchalik salohiyatli bo‘lmisin – u o‘z o‘zini yakka himoya qilishi va asrab qolishi mumkin emasligi, ongi, tafakkuri o‘ziga o‘xshash odamlar bilan birlashishdan boshqa yo‘l yo‘qligini anglashiga majbur qildi. Ijtimoiylashuvning dastlabki asnolaridayoq boshqalar bilan hamkor, yelkadoshliksiz hech qanday siljish bo‘lmasligini Inson mavridi kelib tushunib etdi. Demakki, inson miyasida paydo bo‘lib, keyin amaliyotga aylangan ijtimoiy-siyosiy jihatlarning bari, jumladan, davlat ham ana shu ma’naviy evrilish –

⁷ Гельвеций К.-А. О человеке // Сочинения в 2-томах. – М., 1974. – С. 93-94.

⁸ Де Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1987. – С. 135.

sarchashmadan boshlandi. Ijtimoiy hamkorlik, inson zotiga xos jamoaviylikka intilish, qolaversa davlatning o‘zi substansional ana shu jamoaviylikning o‘zginasidir. Aristotel o‘z paytida “inson – bu jamoaviy mavjudot” deganda, benazir barhayot bir haqiqatni nazarda tutgan ekanki, undan afzalroq fikr bugungacha muqobiliga ega emasligi shundan guvohlik beradi.

Insonning qanday sir-u sinoat ekanligi xususida fikr yuritish asnosida boshqa ijtimoiy guruhlar, unsurlar, jumladan davlatning mohiyati ham inson, uning intilishlari, manfaat-u maqsadlari, kuch-qudrati mahsuli ekanligi haqida so‘z yuritdik. Chunki bularning bari insoniy va insonga yo‘g‘rilgan, insondan boshlangan va yana insonga borib taqaladi. Demakki, davlatga aynan shu metodologik nuqtadan chiqib yondashish to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, inson tabiatini nechog‘lik chuqur anglansa, u bilan bog‘liq jarayonlar, jumladan davlatning paydo bo‘lish maromi ham shuncha aniq tasavvur etiladi. Uning paydo bo‘lishi, ijtimoiy reallik sifatida faoliyat yuritishi Inson tabiatini, mehnati, dunyoni tasavvur etish darajasi bilan tavsiflanadi. Demakki, Insonga xos bo‘lgan jamoaviylik, jamoaviylikka moyillik masalasining alohida ahamiyat kasb etishi o‘z-o‘zidan tushunarli. Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi umumiyl holatga, “kalavaning uchini topib berish”ga qodir yo‘nalish, qonuniyat sifatida munosabat bildirish joiz. Chunki jamoaviylikning eng yuqori pillapoyalaridan bo‘lmish davlat ham aynan shuning pirovard natijasidir.

Jamoaviylik yoki ijtimoiylashuv faqat va faqat insonga xosligidan kelib chiqar ekanmiz, u qachon va qanday sharoitda yuzaga kelgan, bu yerda nimalar belgilovchi rol o‘ynaganligini anglash zarurati tug‘iladi. Shu munosabat bilan, garchand u boshqa jarayonga qaratilgan bo‘lsa-da, Georg Fridrix Vilgelm Gegelning bir fikriga e’tibor berish foydadan xoli emas. “Dunyoqarash, – deb yozadi mutafakkir, – xalq ruhi qachonki beparvolik, mudroqlik va ibridoiy holat hamda boshqa ko‘p hodisalardan yotsirash dardidan xalos bo‘lgandagina u xalq, millat hayot sahnasiga chiqadi”⁹. Ayni paytda so‘z dunyoqarash, atrof-muhit,

⁹ Гегель Г.В. Отношение философии к другим областям // Соч. Т. 9. Лекции по истории философии. – М., 1932. – С. 89.

olamni ratsional idrok etishning boshlanishi individda aqlning shakllanishi bilan bog‘liqligi, insonning ijtimoiy zaruriyatga ro‘y-rost boqishi, ona tabiat bilan uyg‘unlashishi, xullas dunyoga mutlaq yangicha munosabat bildirishi bilan bir paytda yuz berishiga borib taqaladi. Insonda ijtimoiylik ko‘nikma-yu qadriyatlarining shakllanishi, uning har jihatdan afzallik kasb etishi, tabiiyki, barchaga xush keladigan tizimga bo‘lgan ehtiyoji va istagini keltirib chiqaradi. Shundagina Inson o‘zini asrash orqali boshqalarni ham asrashdek, tom ma’noda gumanistik siyosiy niyat-u maqsadlarga erishishga muvaffaq bo‘lishi tayin.

Bunday vaziyatda inson zoti uchun unga xos ikkinchi tomon, ya’ni o‘z individual reja va manfaatlarini ta’minalash bilan bog‘liq “organizmik” intilishdan afzalroq, birinchi navbatda aynan sotsium manfaatlari tomon yuzlanishi, uni burch deb bilish alohida ahamiyatga ega. Zero, shu orqali u o‘zining asl mohiyati ijtimoiyligi va siyosiyligini to‘laqonli namoyon etishi mumkin. Aks holda odamzot faqat sezgi hukmi bilan yashashdan nari bora olmaydigan insoniylik darjasini qadriyatlardan mahrum shunchaki bir mavjudotdan boshqa narsa emas. Ijtimoiy munosabatlarning botiniy – transsident motivatsiyalari xususida so‘z yuritar ekan, Gegel bir muhim jihatga e’tibor qaratadi: “Yakka shaxs faoliyatiga faqat o‘tkinchi maqsad, xususiy manfaatlar xos... Ularning mazmunida garchand umumiy maqsadlar aks etsada, shaxs intilishiga barcha uchun umumiy holatlarga qay darajada bog‘liqligiga qarab baho berish lozim. Odam zotiga sotsium, jamiyat bilan uyg‘unlik darajasiga, “sotsiogenetik kodi”ga qarab munosabat bildirish shunday ustuvorlikka egaki, ko‘p ijtimoiy-ma’naviy muammolar yechimi shunga bog‘liq.

Gegelning o‘tmishdoshi fransuz Klod-Adrian Gelvetsiy inson tabiatini xususida so‘z yuritib, jamoaviylik zamirida “aynan manfaat va ehtiyojlar yotishi”¹⁰, unga samimiy va jiddiy o‘zaro muloqot orqali erishish mumkinligi, aks holda keraksiz bir narsa ekanligiga alohida urg‘u beradi. Bir zamonlar Aristotel tomonidan aytilib, keyinchalik aforizmga aylangan “inson bu – ijtimoiy mavjudotdir”degan fikr qaysi bir qirrasi bilan Gelvetsiyning yuqorida keltirilgan

¹⁰ Гельвеций К. – А. О человеке // Сочинения в 2-томах. – М., 1974. – С. 93-94.

xulosasiga turtki bo‘lgandir, balki. Ko‘rib turganimizdek, ijtimoiy jarayonlarning – ular ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar – zamirida tabiiy “organizmik” ehtiyojlar va maqsad-u manfaatlar yotar ekan. Fikrimiz tasdig‘i uchun J.-J.Russoning “Tengsizlik sabablari haqida” nomli asaridan joy olgan bir fikirga e’tibor qarataylik. “Turli-tuman to‘ntarilishlar, ular bilan bog‘liq tengsizlikning oshib borishiga jiddiylik bilan qaraydigan bo‘lsak, – deb yozadi olim, – qonunlar va mulkga bo‘lgan huquqlar tizimining shakllanishi ta’lim va tartibot, nazoratning o‘rnatalishi, hokimiyatning o‘zanidan chiqib o‘zboshimchalikka asoslangan apparatga aylanishi, uning tengsizlik jarayonining so‘nggi bosqichi tarzida o‘zini namoyon eta boshlaganligiga borib taqaladi”¹¹.

Demak, davlat hokimiyati ham kerak paytda tiyib turishga qodir noyob instrument ekan. Ayni paytda insonning tabiiy ehtiyoji va manfaatlarining mulkiy va siyosiy tengsizlik kuchayishiga nima daxli bor, degan savol kelib chiqadi. Gap shundaki, ehtiyoj va manfaatlar insonga xos bo‘lganligi bois, ularning qaysi shakl (axloqiy yoki aksincha) kasb etishi aynan shu inson ongi, tafakkuri, qolaversa ma’naviy darajasiga borib taqaladi. Muammoning yechimi esa umume’tirof etilgan adolat qolipiga tushirish pirovardida ijtimoiylik pillapoyalari bo‘lmish jamiyat va davlat darajasida ijtimoiy axloq me’yorlari hamda huquqiy ko‘rgazmalar orqali amalga oshiriladi. Russo nazdidagi o’sha huquqiy-siyosiy evolyutsiya o‘zini amalda namoyish etadi. Demak, individ tabiatiga immanent xos bo‘lgan ehtiyoj, manfaat, intilish, xatti-harakat, xulq-atvor maydoni faqat va faqat jamoaviy o‘zaro tiyishga tayanish doirasida tartibga solinar ekan. Ko‘rib turganimizdek, tabiiy ehtiyoj hamda manfaatlar garchand yakka individga xos turli xil bo‘lganda, uning yechimi ijtimoiy muloqot, fikr almashuv doirasida topilar ekan.

Yuzaki qaralsa, yuqoridagi bayon go‘yo individlar guruhining barcha ko‘rinishlariga (yovvoyilikdan to oilagacha) xosdek ko‘rinadi. Faqat bu yerda ulkan bir farqni anglash lozim, u ham bo‘lsa, ya’ni ehtiyoj va manfaatlarni bir tizimga keltirish, ulardan ezgulikka, barqaror yashashga yo‘naltirilgan umumjamoa kuch-qudrat yaratilishi faqat inson tabiatiga xos fenomen. Bu kuch-qudrat ijtimoiy

¹¹ Руссо Ж. – Ж. Онтология мировой философии. В 4-томах. – М., 1970. – С. 566-567.

tadrijiylikning mukammal cho‘qqisi bo‘lishi davlatdan o‘z boshqaruv vakolati orqali quvvatini to‘laligicha namoyish etish salohiyati, intellektiga bog‘liq.

Bizningcha, ana shu joyda va shu asnoda jamoaviy ijtimoiy intilish yaqqol siyosiylit kasb etadi, individlarning farovonlik sari intilishi siyosiy kuchi va salohiyatini umumiyl maqsad yo‘lida birlashtirish natijasida noyob “siyosat maydoni” paydo bo‘ladi. Shunday qilib Aristotelning “siyosiy mavjudot”i siyosiy ong va tafakkur, siyosiy maqsad va amaliyat markazidan joy egallaydi. Davlat esa “insonga xos ulkan salohiyatning, kuch-qudratning ro‘yobga chiqishi va kundalik amaliyotga aylanishi uchun bari shart-sharoitlarni muhayyo etishi lozim bo‘ladi va bu uning birdan bir fundamental maqsadi”¹². Jamoaviylikka moyillik, jamoa bo‘lib maqsad sari yurish, aniqrog‘i, siyosiylit davlatni keltirib chiqardi, u o‘z navbatida jamoaviy faoliyatni siyosatga yo‘g‘irdi. Shu orqali insoniyat o‘zini o‘zi tashkil qiluvchi organizmga aylandi¹³.

Shu joyda e’tiborga molik bir muammo yuzaga chiqadi. So‘z bir tomondan – jamiyat a’zolari – fuqarolar bilan va ikkinchi tomondan – birlashtiruvchi, tartibga soluvchi, nazoratda ushlab turuvchi davlat apparati o‘rtasidagi o‘zaro munosabat xususida bormoqda. Insonlar davlatga birlashganidan so‘ng ixtiyoriy ravishda o‘z erkinliklaridan voz kechishadimi, albatta yo‘q. Davlat bilan jamiyat azaliy bir-biridan farqlanuvchi ijtimoiylikning shakli tarzida, ular o‘rtasidagi kelishuvlar funksional siyosiy me’yorlar, taomillar orqali mustahkamlangan. Ammo shu asnoda boshqa bir muammo kelib chiqadi. U jamiyat uchun asosiy ko‘rsatkich axloq me’yorlari bo‘lsa, davlat esa huquqiy tiyish tizimi ustuvorlikka ega. To‘g‘rirog‘i, jamiyat va davlat sharoitida axloq va huquqiy me’yorlar o‘zaro o‘rin almashinadi: jamiyat uchun axloqiy prinsiplar oldingi chiziqqa chiqadi, huquq ikkinchi o‘rinda gavdalanadi. Bu tamoyil bugun paydo bo‘lgan emas. U azal-azaldan jamiyat bilan davlatning ma’no-mazmuni bo‘lib kelgan. Tom ma’noda davlat jamiyatga huquqiy me’yorlar yaratish uchun emas, balki fuqarolararo muloqot, jamoaviy munosabatlarni yanada yuqori darajaga ko‘tarish, umumiyl

¹² Россман В. Платон как зеркало, русской идеи // Вопросы философии. – 2005. – № 4. – С. 46.

¹³ Мойсеев Н. Размышление о современной политологии. Политические науки:

maqsad-manfaatlarni ta'minlash, farovonlik o'rnatish maqsadida yaratilgan instrument.

Ijtimoiylik, uning bosqichlari va yumushlari xususida so'z yuritar ekan, Gegel muammoga quyidagicha oydinlik kiritadi, garchi uzundan uzoq bo'lsa-da unga qulqoq tutsak to'g'ri bo'ladi. "Fuqarolik jamiyati, – deb ta'kidlaydi mutafakkir, – oila hamda davlat oralig'ida shakllangan alohidalikdir. Garchand fuqarolik jamiyati davlatdan ancha keyin rivojlangan bo'lsa-da, alohidalik sifatida u davlatning mavjudligini taqozo etadi. Davlat, o'z navbatida, o'z mavjudligini asrash, makondagi o'rniga ega bo'lishi uchun uning qarshisida mustaqil ikkinchi bir ijtimoiy birlikni taqozo etadi. Bu – fuqarolik jamiyati. Davlat ijtimoiy-ma'naviy nuqtayi nazardan yana boshqa umumiylit maqomida jamiyatning o'rmini belgilab turadi. Aslida fuqaroviy jamiyatda bosh maqsad – barcha faqat o'zi uchun yashashi, uning uchun boshqalar biror bir ahamiyat kasb qilmasligi asosiy holat hisoblanadi. Birov birov uchun majburiyat, mas'uliyatni yelkasiga olmaydi. Biroq jamiyat ijtimoiy omil sifatida o'z a'zosi – individlar bilan muloqotda, munosabatda bo'lmasdan oldiga qo'ygan rejaga to'lalagicha erisha olmaydi. Xususiy maqsad shu zayl xususiyligicha qolishda davom etaveradi"¹⁴.

Atoqli olim fikridan, shuningdek ijtimoiy jamoaviylikning har xil parallel mavjud shakllari/ko'rinishlari har biri alohida o'zi uchun, muloqotga bormasdan ham yashayveradi, degan xulosaga kelmaslik lozim. Aksincha, alohidalik orqali biri birini taqozo qilish, to'ldirish tufayli, jamiyat va davlat barcha uchun zarur yagona umumjamiyat, umumdavlat yumushi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Jamiyat bilan davlat har biri sotsiolog, politolog uchun alohida tadqiqot ob'yekti. Ammo ijtimoiy jamoaviylikning ikki shakli tarzida ichki tuzilmaviy tafovutlar girdobida ular bugungi silkinishlarga boy davrda alohida-alohida bardosh berishi qiyin. To'g'ri, tarixning juda qadimgi pallalarida knyaz, monarch, imperator, xalifa, hokim, noib – bir tomondan va xalq – ikkinchi tomondan, ayro yashashgan. Bu qadimiyat va o'rtasidagi asranchilik degan davrlarga xos bo'lgan, biroq saltanat raiyatsiz,

¹⁴ Гегель Г.В. Отношение философии к другим областям // Соч. Т. 9. Лекции по истории философии. – М., 1922. – С. 212.

monarxiya tobelarsiz umr kechira olmagan. Bugun esa ular biri biri bilan chambarchas siyosiy va hatto mafkuraviy jihatdan bog‘liq.

Shu yerda diqqatga sazovor bir dialektikani kuzatish mumkin va u o‘z navbatida, inson-jamiyat-davlat tuguni nima, u qanday yechimini topadi, degan savolga oydinlik kiritadi. Ta’kidlanganidek, materialistik ta’limotlarda, ma’lumki, eng avvalo milliardlab yillar davom etgan biosotsiogenetik transformatsiya nihoyasida ongli individ – insonlarga aylangan. U, o‘z navbatida, oila, qabila, qarorgoh/qishloq yoki shahar va nihoyat davlatning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Shu joyda biz primitiv bo‘lsa hamki, biror bir kelishuvsız, oila, qishlog‘u shaharlar, ma’rifiy ijtimoiylashuv boshqaruvsiz paydo bo‘lishi mumkinmi, degan savolga duch kelamiz. “Shunday qilib, – deb mulohaza yuritadi Gegel, – amalga oshishi jamoaviylikka borib taqaluvchi shaxsiy maqsad/mo‘ljallar pirovardida har tomonlama qaramlikka asoslangan tizimga olib keladi. Zero, yolg‘iz individning kundalik hayoti, farovonligi, uning huquqiy asosda yashashi, yuqorida ta’kidlanganidek, boshqalarning/barchaning kun kechirishi, farovonligi va huquqi bilan chirmashib ketganligi faqat va faqat ana shu asosda haqqoniy va to‘laqonli ta’minlangan bo‘ladi. Mazkur tizim majoziy ma’noda qandaydir aqlning ehtiyojiga asoslangan “tashqi davlat” deb qaralishi ham mumkin”¹⁵. Yuqorida keltirilgan fikrni tahlil qilish joiz bo‘lsa, aytish kerakki, har qanday individual reja, maqsad faqat jamoaviy maqsadga mos kelsagina istiqbolga ega bo‘ladi va bu yerda boshqacha yo‘l yo‘q. Individual intilishlarga esa, umumiylar farovonlik umummillat ravnaqi bilan uyg‘unlikdan, umumiylar manfaatlardan chiqib, u nima va qandayligiga baho berish mumkin bo‘ladi. Umumiylar intilish qaysi yo‘l bilan amalga oshirilishi davlatning salohiyatiga bog‘liq.

Individ – jamoaviylik – davlat tizimi zamirida, ko‘rib turganimizdek, bir muhim unsur – “siyosat” paydo bo‘ldi. Yuqoridagi ketma-ketlik qanday keltirilgan bo‘lsa shunday: avval individ, so‘ngra uning ongida jamoaviylikka moyillik, yana ancha fursat o‘tib davlat va nihoyat, bu zanjir “siyosat” bilan yakunlanadi, degan sodda tasavvur paydo bo‘lmashigi kerak. Aksincha, tizimdagagi insondan tashqari,

¹⁵ Гегель. Ҳукуқ фалсафаси // Сочинения. – М.–Л., 1934. Т. 7. – С. 212.

qolgan uch unsur, ya’ni jamoaviylik, davlat va siyosiylik deyarli bir vaqtda, biri birini taqozo etishi yoki biri xususida boshqasisiz fikr aytishga hojat yo‘q.

Holbuki, agar jamoaviylik omili bo‘lma ganda davlatning ham keragi yo‘q edi. Ammo jamoaviylik faqat boshqarilsagina, u haqqoniy bo‘ladi. Aks holda stixiya mahsuli bo‘lgan jamoaviylik olomondan boshqa narsa emas. Unda odamlar hayvonot dunyosidagi singari to‘da-to‘da bo‘lib jismoniy ehtiyoji uchun qulay sharoitda yashagan bo‘lar edi. Bunday stixiyaga faqat davlat barham bera oladi, xolos. Insonga xos bo‘lgan sotsiogenetik imperativ davlat bilan uyg‘unlashish orqaligina madaniyat turlaridan biriga aylanishi mumkin. Bu jarayon insonni tom ma’noda aqlning gultojiga aylantiradi. Unga xos noyob jihat bo‘lmish jamoaviy yashashga intilish shu asosda buyuk kuch-qudrat kasb etadi.

Ko‘rib turganimizdek, jamoaviylik xaosga nisbatan inson organizmidagi buyuk o‘zgarish, xaosdan tartib (kosmos) sari qo‘yilgan jiddiy qadam. Mayjudotlardan biri sifatida inson ijtimoiylik orqali boshqalardan keskin farq qiladi. Ammo uni harakatga keltirib turgan ichki kuch o‘z navbatida tarkiblashtirish va boshqaruvga muhtoj. Demak, ana shuni davlat o‘z zimmasiga oladi, siyosat, siyosiy amaliyot esa, davlat uchun birdan bir zarur instrument ekanligini namoyish etadi. Ammo u faqat kollektiv xohish-iroda, intilishni aks ettirsagina siyosat vositasi va qudratiga aylanadi. Demak, siyosatsiz davlatni tasavvur etish joiz emas. U shundagina haqiqiy davlat bo‘ladiki, agar o‘z kuchini butun jamiyat uchun safarbar etsa. Davlat allaqanday shaxslar, guruhlar yoki yakka shaxs xohish-irodasini aks ettirsa hamki, kuch-qudrat “markazi” ekanligini umuman yo‘qotmaydi, biroq u endi davlat emas, aksincha, o‘z ibtidosi, muddaosini mutlaqo unutgan dahshatli qurolga aylanadi.

Inson sotsiogenetik kodi tarzida ijtimoiylikka moyillik o‘z-o‘zidan siyosiy jarayon bo‘lib qolmaydi. Uni boshqarish zarur, uning uddasidan faqat davlat chiqishi mumkin. Tabiiyki, buning uchun davlatda yyetarli darajada kuch bo‘lishi lozim. Davlatning ajralmas immanent xususiyati bo‘lgan “kuch” haqida gapirar ekanmiz, uni biz jamiyat manfaatlari, xavfsizligi, barqarorligi yo‘lida asqotadigan, fuqarolarga xizmat qiladigan betakror ijtimoiy omil ekanligini, aks holda odamlar uchun hech qanday ahamiyat kasb etmasligini nazarda tutamiz. Agarki kuch

umumilliy siyosat uchun zarur bo‘ladigan bo‘lsa, u ham xalqqa va ham har bir fuqaroga xizmat qilishi zarur. Inson, jamoaviylik, davlat va siyosat makoni vaqt nuqtayi nazaridan chegaralangan ekan, kuch ham ma’rifiy chegaraga ega. Aks holda kuch chegarani hatlab o‘tgan zahoti o‘zining siyosiyligini unutib, davlat terrorining vositasiga aylangan bo‘ladi.

Inson kim va nima, uning ichki kechinmalari, manfaat-u orzulari, usiz dunyo dunyomi, hayot hayotmi, uning qolaversa bashariyat oldidagi burchi, mas’uliyati, vazifasi nimadan iborat va u qachon va qay sharoitda o‘ziga munosib yashaydi, degan qator savollar Sharqda ham ulkan dolzarblik kasb etgan. Afsus, turli sabablar bois, barcha muammolarga yechimni G‘arbdan, uning ilmiy va amaliy merosidan izlaganmiz. Va shu bois Sharq allomalari siyosiy qarashlaridan ko‘p ham xabardor emasmiz. Ammo sinchiklab qaralganda, Sharqda hatto G‘arbga nisbatan ham tadqiqtomiz predmetiga oid fikrlar ko‘lamli va chuqur ekanligiga imon keltirishimiz tayin. Masalan, yarim afsonaviy daosizm ta’limoti asoschisi Lao Szi merosiga nisbat qilingan “Ezgu amallar haqida daosistik hikmatlar” kitobida quyidagi ibratli bir fikr keltiriladi: “Osmon osti (Xitoy) saltanati Dao tomonidan boshqarilishining asosiy sharti, bu yerdagi arvoхlar, ya’ni najosiy odamlar xudoga aylanmasligidir. Buni ta’kidlashdan murod – ularga xos allaqanday g‘ayritabiyy, demakki g‘ayriinsoniy qudratdan cho‘chish ham emas, aksincha ularning odamlarga zarari tegmasligi zaruratini nazarda tutishdir”¹⁶.

To‘g‘ri, yevropacha tafakkur hozircha ustuvorlik kasb etayotgan asnolarda, “Inson-Jamiyat-Tabiat” uyg‘unligi xususida Sharq talqini, ifodalash uslubi ba’zan g‘alatiроq tuyuladi. Sharqqa oid qaysi manbagaga e’tibor bermang – hindlarga, yaponlarga, mo‘g‘ullarga, arablarga yoki eronliklarga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar, ularni yuzaki G‘arb andozasi bilan taqqoslash amaliyoti muomaladan chiqqanicha yo‘q. Tabiiyki, bu yo‘l qandaydir ruhiy qoniqmaslik hissini keltirib chiqaramoqda. Sababi, dunyoda nechta elat yoxud millat bo‘lsa, har biri xususiy fikriga ega bo‘lish uslubi mavjud. Demakki, ilm uchun u yoki bu fikrning shakli emas, aksincha unda yashiringan ma’no-mazmun, mohiyat ahamiyatlidir. Sharq

¹⁶ Чинь У. Философские идеи. – Шанхай: Международный издательский дом, 2009. – С. 16.

an'analarida mavjud ma'no shundaki, insonda ezgulikka, umumbarqarorlikka yo'g'rilgan ijtimoiylikka moyillik biror bir ichki yoki tashqi nojoiz ta'sir ostida siyqalashmasligi, aks holda Inson o'z zimmasidagi vazifasini ado etishi mushkullashishini bartaraf etib, unga xalaqit berishdan tiyilib, aksincha rag'batlantirish zarurligi uqtiriladi. Demak, jamoaviy yashash va faoliyat olib borish, faravonlikka erishish garchand insonga xos immanentlik bo'lsa hamki, u ijtimoiy kuchlar tomonidan muttasil ozuqalantirilishi, rag'batlantirilishi hamda boshqarilishi zarur ekan. Bu bo'yicha Sharq va G'arb ilmiy jamoatchiligidagi "ichki kelishuv", shukurlar bo'lsinki, siyosatga aylanmoqda.

Mazkur bandni yakunlar ekanmiz, asosiy xulosa shuki, inson zoti uchun immanent sotsiogenetik invariant bo'lgan jamoaviylikka moyillik, davlatga bo'lgan munosabatda uning yaqqol ustuvorligi, demakki, insonning/individning azaliy siyosiyligi, bugungi kunda xalqlar, davlatlarning hamjihat bo'lmasdan ayro tarzda barqarorlikka erishishi mumkin emasligi, jamoaviylik, ya'ni ijtimoiylik holati siyosiylilik shakli va manbayi sifatida davlatchilik va davlatni taqozo etdi. Demak, davlatning mavjudligi nechog'lik aprior bo'lsa, uning sarchashmasi jamoaviylik ham shu qadar mislsizdir.

1.2-§. Ijtimoiy birlik sifatida jamiyatning siyosiylilik xususiyati

U yoki bu davr xususida so'z yuritgan pallalarda istasak-istamasak sotsium, jamiyat realligi bilan bilan bog'liq ko'plab jumboqlar yuzaga qalqib chiqadi. Jumladan, individga xos jamoaviylik ijtimoiylikning eng pastki so'nggi qatlamlardan biri bo'ladigan bo'lsa, demak uning jihatlari, xususiyatlarini, sotsiumning mohiyatini ham shundan izlash to'g'ri bo'ladi. Bu yerda muammo ijtimoiylikning yuqori pillapoyalaridan biri bo'lmish davlatchilikning aynan sotsiumdan kelib chiqqanligida ham emas, ijtimoiy makon shakli tarzida qaysi jihatlariga ko'ra uning davlatni keltirib chiqarishda ishtirokiga borib taqaladi.

Soha vakillarining fikriga ko'ra, sotsium – davlatdan avval tarkib topgan ijtimoiy birlik¹⁷ bo'lib, tadrijiy jamoaviylashish shaklidir. Tarixiy tajriba guvohlik

¹⁷ Ризоев Ш.Х. К вопросу социальной природе власти // Вопросы политологии. – 2018. – №5. – С. 31.

beradiki, sotsium bilan davlat bir-birini inkor qilib, o‘rnini egallovchi konstantalar tarixiy-ijtimoiy bosqichlar emas, bir-birini dialektik qamrab oladi. Umumiylar maqsad yo‘lida jipslashuv har ikkalasiga – sotsiumga ham va davlatga ham xos bo‘lib, ular o‘z dinamikasi – deyarli umumiylar qonuniyat, ijtimoiy dasturga rioya qiladi. Biroq bu tendensiyaga nisbatan fikrlar hamohang emas va bu tabiiy.

Darhaqiqat, narsa va hodisalar o‘rtasida ayirish chiziqlaridan ko‘ra bir-lashtiruvchi omillar ustuvorligi Sharq falsafasining asosiylar parametri bo‘lib kelgan. Bu yerda Forobiy bobomiz qalamiga mansub bir fikrni keltirish joiz deb bilamiz. “Davlat – “shahar” va ijtimoiy birlashmalar maqsadli muloqotning mukammal shakli, jamiyat ravnaqining oliy darajasi sifatida odamlarning jaholat davridagi “hayvoniy” hayot kechirishiga barham berdi. Biroq hatto o‘sha paytlarda ham individuumlar orasida ijtimoiy darajada bo‘lmasa-da, shunchaki tabiiy instinctiv bog‘liqlik mavjud edi”¹⁸. Allomaning ushbu xulosalariga ilm-fanning bugungi darajasidan yondashadigan bo‘lsak, insonni boshqa jonzotlardan keskin ajratadigan jihat ular hayoti va faoliyatiga umumiylar maqsad – o‘zini o‘zi asrab qolish yo‘lida muloqot yoki o‘zaro kelishuvning kirib kelishi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Zotan shu asosda muloqotning boshqa vositalari – til ham rivoj topdi, u orqali insonlar ehtiyoj, manfaatlarini, umumiylar maqsadini biri biriga bayon etish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Shu asosda odamzot tamomila jaholatparastlikni tark etib, aql-zakovat, ruhiy teranlik davriga qadam qo‘ydi. Tamomila boshqacha yashash haqida o‘ylay boshladi, “ortga qaytmaslik” nuqtasi – rubikondan hatlab, bugungi holat sari qadam tashladi, tom ma’noda Insonga aylandi. U endilikda o‘z jism-u jonini o‘ylashdan uni qanday va nima qilsa asrab qolish mumkinligi, uning uchun zarur ijtimoiy institutlar ustida bosh qotiradigan bo‘ldi. Davlatning shakli-shamoyili, tuzilmalari haqida asrlar mobaynida hatto tasavvuri bo‘lмаган millionlab kishilar stixiyali ravishda birlashishdi, o‘sha ideal tayanchni izlashga tushishdi, desak bo‘ladi.

¹⁸ Аль Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата, 1973. – С. 137-138.

O‘zaro ijtimoiy munosabat, manfaatlari muloqotga intilish immanent dastur yoxud jarayon tarzida, qaysi joyda inson zoti bo‘lgan bo‘lsa o‘sha yerda o‘zini namoyon etdi. Biroq bu kurrayi zaminning barcha hududlarida bir paytda va bir xil ko‘rinishda kechdi, degani emas. Bu masala atrofida anchayin tortishuvlar mavjudki, bu, jumladan, Sharq va G‘arb misolida yaqqol ko‘rinadi. Sharqdagi holat haqida so‘z yuritar ekan, “Muammo yechimida yaxlitlik, hamjihatlik ustuvorligi, – deb yozadi hozirgi davr xitoy faylasufi U Shun, – Xitoy falsafasida alohida o‘rin tutadi. Holbuki, muammoning qadimgi yunon yoki Yevropa dunyoqarashida va talqiniga Xitoya o‘xshash jihatni uchratish mushkul”¹⁹. Sharq – G‘arb masalasi o‘z yo‘lida, u global miqyosga ega. Jamoaviy konsensusning davlat darajasiga chiqishi evolyutsiyasi, mavridi u yoki bu jamiyat hayotida iqlimiyligi, tashqi omil, biosotsial evolyutsiya (ong va tafakkur shakllanishi bosqichlari) yashash sharoitiga turli-tuman ichki hamda tashqi bosimlar va tabiyki ularning ijtimoiy muloqot maromiga ta’siri kabi ko‘plab jihatlarni hisobga olish joiz.

Aynan shu doirada har bir sotsium uchun o‘zaro muloqot uslub va shakllari vujudga keladi. Uni har xil geografik kengliklarda (tabiiy to‘silalar ko‘p va aksincha kam) qo‘nim topgan xalqlar hayotida yaqqol kuzatamiz: jumladan, biri biridan tog‘lar, jarliklar yoki daryolar bois ajralib qolgan jamoalarda – garchand ularda birlashishga tabiiy intilish bo‘lsa-da imkoniyat cheklangan bo‘lgan. Tarix ko‘rsatmoqdaki, tekisliklar (yaxlit voha/vodiylar)da bu jarayon bir muncha samarali kechar ekan. Demak, hali huquqiy chekllov larga duch kelmagan sotsium/jamoaning siyosiyligini quvvati birlashib umumiyligi farovonlikka intilishi va unga erishishi jarayonida turli mamlakatlarda vaqt nuqtayi nazaridan alohidalik, har xillik, ya’ni asinxronlik mavjud.

Shu zaylda tabiiy izolyatsiya sharoiti va aksincha, bemalol harakat uchun imkoniyat keng joylarda umr kechirgan etnos/elatlarda ijtimoiy munosabatlar darajasiga qarab turli-tumanlik kelib chiqadi. Shuningdek, dunyoning ayrim koordinatlarida sivilizatsiyadan deyarli xabarsizlik holatini kuzatish mumkin.

¹⁹ Чунь У. Философские идеи. – Пекин, 2015. – С. 86.

Xullas, inson zotiga immanent xususiyat bo‘lgan jamoa bo‘lib umumiy maqsad tomon harakat qilish, siyosiylashish turli o‘lkalarda tabiiy-ijtimoiy shart-sharoit bois rang-baranglik kasb etdiki, Yer yuzining barcha mintaqalari (Sharq, G‘arb, Shimol va Janub)da uning variativligini kuzatamiz.

Yuqorida zikr etilayotgan ijtimoiy jarayonlarni idrok etishga asqotishi mumkin bo‘lgan diqqatga sazovor bir tendensiya ko‘zga tashlanadi. So‘z jamoaviylikning shu asosda siyosiylik sari borish jarayonining, garchand makon va vaqt nuqtayi nazaridan har xil yo‘nalish kasb etishi, bosib o‘tilgan yo‘l tarixiy xotira sifatida o‘ziga xos milliy an’ana yoki qadriyatga aylanishi xususida bormoqda. Va bu fenomen har bir sotsium, jamiyat, etnos/millatga nisbatan “tashrif xarita”dir.

Tarixiy davrga qarab o‘zgaruvchan, ichki hamda tashqi turtkilarga ta’sirchan bo‘lganligi bois, u o‘ziga nisbatan tabiiyki xolisona, ratsional munosabatni taqozo etadi. Demak, har qanday ijtimoiy tajribaga milliy qadriyatlar tizimiga permanent o‘zgartirish kiritish amaliyoti bu yerda samarasiz kechadi. Biroq jamiyat hayotida yuz beradigan har bir tarixiy gorizontal yoxud vertikal o‘zgarish eskirgan ishlanmalardan yiroqlashishni taqozo qilsa-da, ammo bu ulardan mutlaqo voz kechishni bildirmaydi. Balki jamiyatdan o‘ziga nisbatan “qayta idrok etish”ni taqozo etadi²⁰. Aynan shu “qayta idrok etish”, ya’ni an’anaviy ijtimoiy tajribaga yangi mazmun ato etilishi, innovatsion g‘oya yoki texnologiyalar bilan uyg‘unlashib jamiyat ravnaqiga benazir xizmat qilishi tayin.

Ma’lumki, uzoq yillar davomida Yer yuzi aholisi aksariyat qismi ongida hukmronlik qilgan tarixiy materializmga xos bir tomonlamalik bosimi ostida individ, sotsium, jamiyat rivoji eski qadriyatlar, tamal toshlardan radikal voz kechishi lozimligi bashariyatga uqtirib kelindi. Jumladan, jamiyat ravnaqi ijtimoiy progress bir sinfning ikkinchisini mutlaq inkor etishi, sinfiy qadriyatlarning bir-biri bilan ayovsiz kurashi konsepsiyalari doirasida tushuntirildi. Unga ko‘ra, sotsium bag‘ridagi tabiiy ijtimoiylashuv insonlarning o‘zaro manfatli bunyodkor muloqot orqali umumiy maqsadga borishining yuqori pog‘onasi bo‘lmish davlat ham o‘zaro

²⁰ Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. Избранное. – М., 2015. – С. 200.

ijtimoiy-jamoaviy yaqinlashuv emas, aksincha hayot-mamot to‘qnashuvi, inqiloblar hosilasi bo‘lmog‘i lozim edi. Sotsiumga immanent xos bo‘lgan tabiiylik, uning keyinchalik borib davlatda mujassam va muxtasar bo‘lishi aksilinsoniy jarayon – sinfiy tabaqalanishga bo‘ysundirilgan edi. Sinflarda emas, balki har bir alohida individda, insonda “mohiyatan mavjud, ammo amalga oshirilishini, ishga tushirilishini” kutib turgan jamoaviylik, ya’ni immanent siyosiylik²¹ (davlat uning yuqori pog‘onasi) sinfiy qarama-qarshiliklar, o‘zaro bir-birini chetlatish amaliyoti bilan majburan bog‘landi. Jamoaviylik, barqarorlikka va davomiylikka intilish g‘oyasi ham shu kontekstda talqin qilinadigan bo‘ldi.

Ammo mazkur muammoga jiddiyroq yondashuv va ongli kundalik kuzatuvlar ilgari ko‘klarga ko‘tarilib kelgan dogmalar bugungi kun talablariga javob bermasligini ko‘rsatadi. Jamoaviy safarbarlik, o‘z davlatiga ega bo‘lishga intilish ko‘pqirrali o‘zaro insoniy munosabatlar (ba’zan ularni ahamiyatsiz, e’tibor qilishga arzimaydigan ikkinchi darajali narsa, deb qarashga odatlanganmiz)ning eng pastki, birlamchi qatlamlarida ildiz otgan muhim mikrodaraja ekanligi ilgari ko‘p ham hisobga olinmas edi. Bugun olimlar davlat ham va siyosat ham, kerak bo‘lsa, birqalashib, hamjihatlikda ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimini immanent topishning qoida va qonunlari aynan ijtimoiy makonda ildiz otganligi hamda ularning barchasi “yana qaytib” unga xizmat qilishi shart ekanligini alohida ta’kidlashmoqda.

Shu munosabat bilan XX asrning atoqli sotsiologi va faylasufi Martin Xaydegger qalamiga mansub bir fikr bor. Unga ko‘ra “jamoa bo‘lib ulkan marralarga intilish, ijtimoiylik, ya’ni inson darajasida va inson bilan umrguzaronlik asnolarida uning borlig‘i kundalik xususiy yumushlaridan birmuncha yiroqlashib, jamiyatning faol qismiga aylanishi, hayotining boshqa bir jabhasi funksional alohida ijtimoiy safarbarlik bilan uyg‘unlashib ketishi, muloqotning jamoatchilik uslublarini qo‘llash barobarida individning o‘zidan boshqa individlarga xos jihatlar kasb etishidir”²². Garchand bu fikr ancha avval, ya’ni XX asrning o‘rtalaridagi

²¹ Россман В. Платон – как зеркало русской идеи // Вопросы философии. – 2000. – №4. – С. 46.

²² Хайдеггер М. “Время картины мира”. Новая технократическая война на Западе. – М., 1986. – С. 46.

ijtimoiy-madaniy reallikka nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, unda sotsium darajasidagi individning jamoaviylikka intilishi, umumjamiyat oldidagi vazifalarni bajarishi, aniqrog‘i siyosiylilik pillapoyalariga ko‘tarilish holati faqat bugunga xos fenomen bo‘lmasdan, balki inson o‘z aql-zakovati asosida faoliyat yurita boshlaganligiga ishora qilingan.

Bu umumsotsiologik jarayon inson tabiatini bilan bog‘liq qonuniyat, to‘g‘rirog‘i, tarix muddaosi va taqozosidir. Darhaqiqat, tarix siyosiylilik elitaning mayda-chuyda, har kungi tashvishlaridan mustasno tarzda, baribir o‘z o‘zanida davom etib, ba’zida muammolaru tanazzullarni odamzotga “tuhfa” etadi. Shu yo‘l bilan bu yangi tarix odamzotni g‘ofillik kasalini uloqtirib, sergak tortishga undab kelgan²³. Xullas, xalqlarning jamoaviy siyosiylashib yashashga moyilligi, uni ezmilik, farovonlik sari yo‘naltirishga tabiiy moyilligi, “ochiq ko‘z bilan dunyoga boqishi”, “sergak tortishi”, qolaversa davlat sifatida o‘z hayotini tartibga solishi o‘z navbatida insoniyat uchun ko‘plab tahdidlarga bardosh berishini ta’milagan. Ana shu joyda Aristotelning “Davlatning maqsadi ham shundaki, u inson tegrasida tabiiy mavjud salohiyatning yuzaga chiqishi uchun unga eng yaxshi shart-sharoit yaratadi”, degan, bundan qariyb 2500 yil avvalgi fikrining hayotiy ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

To‘g‘ri, inson, sotsium, jamiyat va davlat kabi semantik o‘zaro ma’nodosh tushunchalarni bir-biridan alohida-alohida tasavvur qilish qiyin va bu masala fan tarmoqlarining vazifasi. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan barcha jarayonlarning ibtidosi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida siyosiylilik insonning ichki entelexeyyasi ekanligi, uning yashashga, qayta ishlab chiqarishga bo‘lgan intilishining esa davrlar o‘tib siyosiylilik kasb etganligi muhim.

Sotsiumga keladigan bo‘lsak, uni biz odamzotga xos jihatlarning ijtimoiylikda aks etishi, ya’ni biosotsiogenetik jarayon hosilasi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Mabodo davlat ijtimoiy lashuv, siyosiylashuvning institutsional munosabatlar doirasida strukturalashuvining ifodasi bo‘lsa, “sotsium/jamiyat” uni keltirib chiqaruvchi ibtido sifatida namoyon bo‘ladi. Holbuki, siyosat vakuumda

²³ Хайдеггер М. “Время картины мира”. Новая технократическая война на Западе. – М., 1986. – С. 46.

emas, balki ijtimoiy makonda ildiz otadi, takomillashib boradi. Siyosat o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar shakli sifatida ijtimoiy tarkiblashish natijasidir. Soha mutaxassislari shu boisdan ham uni “sub’yektlar va ob’yektlar o‘rtasida vujudga keluvchi o‘zaro hamharakatning ro‘yobga chiqishi”²⁴, deb hisoblashadi. Keyinchalik u siyosiy hokimiyatni egallash (uni biz “hokimiyatga erishish” tushunchasi bilan almashtirgan bo‘lar edik), uning taqsimoti va amaliyotida jarayon sifatida o‘zini namoyon etadi.

Ko‘rinib turibdiki, davlat ham olamdagi narsalar va hodisalar kabi “dastlabki turtki”ga ega substansional voqelikdir. Ma’lumki, klassik falsafada bu “nyutonchilik” (olam harakatini allaqanday ilohiy “soat mexanizmi”ga qiyoslash) va gezelchilik (barcha munosabatlar, shu jumladan ijtimoiy munosabatlar ham “Mutlaq aql” tomonidan tartibga solinishi)da barcha ijtimoiy o‘zgarishlar immanent qonuniyatlar kontekstida bo‘ysundirilgan holda talqin etilgan. Biroq so‘nggi pallada ham metodologik plyuralizm davrini boshdan kechirayotgan asnlarda ilmiy jamoatchilik uchun masalaga noan’anaviy yondashish imkoniyati ko‘lami ancha kengayganligiga guvoh bo‘ldik. Shunday ekan davlatning zamirida ham allaqanday “dastlabki turkti” bo‘lishi mumkin, degan fikrni endilikda boshqa diskursda tushuntirish lozim bo‘ladi, ammo bu haqda keyinroq.

Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni bir tomonlama anglash, hukmron doiralar xohish irodasiga beminnat xizmat qiluvchi dogmalar, aqidaparast ko‘rgazmalar ustuvorlikka ega paytlarda muammoga xolisona qarashning iloji bo‘lmagan. Ilgari mavjud bo‘lib, keyinchalik “xira tortgan” ilmiy yo‘nalishlar xususida o‘ylab ham ko‘rishmagan. Biroq shunga qaramasdan ularga mutlaqo zid g‘oyalar, muammo yechimiga yo‘l ochishga qodir ta’limotlar, ijtimoiy loyihalar Sharqda ham, G‘arbda ham bo‘lgan. Holbuki, insoniyat shuurida tafakkur chirog‘i hech qachon o‘chmagan. Jamiyat, odamzot tafakkur bilangina tirik. U esa odatda insoniyat o‘ziga ehtiyoj sezgan zahoti yuzaga chiqadi va shunday bo‘ldi ham.

²⁴ Категории политической науки. – М., 2002. – С. 18.

Shu munosabat bilan I.Kantning purma’no bir mulohazasini yodimizga tushiraylik: “Insoniyat uchun bir ulkan muammo bor va uning yechimiga kelishni tabiatning o‘zi insondan talab qiladi, aniqrog‘i, insonni shunga majburlaydi. Bu – butun dunyoda huquqiy fuqarolik, barcha-barchaga keng erkinlik berilgan jamiyatga erishish muammosi. Ammo unday jamiyatga erishish ham qarama-qarshiliksiz bo‘lmaydi va bo‘lishi ham mumkin emas. Bu yerda bir narsa mavjud, u ham bo‘lsa o‘sha jamiyatda bir individning erkinligi boshqa bir individ erkinligining rivojiga imkoniyat bo‘lib xizmat qilsin va uni ta’minlasin. Ana shunda tabiatning buyuk maqsadi, ya’ni inson shuurida yashiringan barcha ezgu ishlarning amalga oshishiga erishish uchun zarur shart-sharoit paydo bo‘ladi. Buning uchun barcha maqsad-u vazifalarning bajarilishini insoniyat, faqat insoniyat o‘z zimmasiga olsin. Maksimal erkinlik, o‘z navbatida majburlash bilan uyg‘unlashgan jamiyatni barkamol, buyukadolat hukm surgan jamiyat deyish mumkin. Tabiatning inson oldidagi burchi ham va hukmi ham ana shunday. Faqat shunday qilingandagina barcha yumushlar, muammolar shu asosda yechimini topsagina, tabiat odamzot oldida o‘z burchini ado etgan bo‘ladi”²⁵, deb mutafakkir fikrini muxtasar qiladi.

Shubhasiz, bu xulosaga I.Kant to‘satdan kelmagan. U bu yerda bir necha ming yillarni qamrab olgan bashariyat ijtimoiy-ma’naviy merosi va tajribasi hamda shuningdek buyuk mutafakkirlar xulosalariga tayangan. Insonparvarlikka yo‘g‘rilgan tafakkur hech qachon eskirmagan, ming yilliklar mobaynida insoniyat farovonligiga xizmat qilib kelgan. Shunday ma’naviy durdonalardan biri afsonaviy shaxs – buyuk mutafakkir Lao Szining qalamiga mansub va u “Muruvvatning Dao asoslari” risolasida keltirilgan. “Agar kishilar Osmon osti sultanatida to‘g‘rilik,adolat va xotirjamlik timsoli Dao boshqarishini ixtiyor etsa, – deb yozgan ekan buyuk alloma, – unda u yerdagi allaqaysi noma’lum sharpalarning ilohiylashtirilishiga chek qo‘yiladi. Bu, ular hech narsaga arzimaydigan hodisalar, degani emas. Eng muhim, ular sultanatga zarar keltirmasligi kerak”²⁶. Xullas, gap shundaki, odamlarning ijtimoiy-madaniy yuksaklikka intilishidek tabiiy holat

²⁵ Кант И. Идеи всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – 1966. – С. 16.

²⁶ Чинь У. Философские идеи. – Пекин, 2009. – С. 16.

(birgalashib, hamjihatlikda va o‘zaro erkin muloqot va ishonch muhiti)ga hech qachon darz ketmasligi muhim. Bunday ulkan ijtimoiy-tarixiy jarayonda allaqanday shaxsiy mayl emas, aksincha jamoaviylik, kollektiv bo‘lib olg‘a intilish hukmronlik qilishi alohida nufuzga ega.

Dunyo haqida chuqur mulohaza yuritgan barcha buyuk olimlar, umuman tafakkur bobida o‘z davri sarhadlaridan chiqib umrboqiylikka yo‘g‘rilgan dono insonlarga bir jihat xos: birgalikda xo‘jalik yuritish, oila farovonligi, jamoa tinchligi, yakka tarzda amalga oshirib bo‘lmaydigan maqsad va manfaatlar, xavfsizlikni ta’minalash, jamoa potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mudofaa va qolaversa yon-atrofdagilar bilan har kuni va muttasil aloqalar o‘rnatish va boshqa kundalik yumushlar faqat jamoaviy safarbarlik va har bir odamga xos o‘zi haqida ham bosh qotirish, jamoaviy maqsadni, joiz bo‘lsa, kuch ishlatish yo‘li bilan bo‘lsa-da amalga oshirish o‘rtasida balansni ta’minalash individning o‘ziga borib taqalishi va shu tarzda ezgu maqsad yo‘lidagi salohiyatini ishga tushirishi mumkinligiga ishora.

Ammo jamoaviy safarbarlikka erishish, bugungi kun tilida ifoda etilsa, umumiy mo‘ljal faqat har bir individ faoliyatining ma’no va mazmuniga aylangandagina amalga oshishi²⁷ va bu yerda tomonlar o‘tkinchi narsalardan voz kechib, bir umumiy maqsad – o‘z-o‘zini asrab qolish, avlodni bardavom etish maqsadida birlashmog‘i zarur.

Bu amaliy va ilmiy muammoga ham munosabat turli xil yo‘nalishda, usullar orqali amalga oshirilgan. Xususan, G‘arb olimlarining (jumladan, I.Kantning yuqorida keltirilgan fikrida ham shu g‘oya mavjud) asarlarida jamoadagi tabiiy salohiyatning ro‘yobga chiqishida majburlashga bo‘lgan zaruratga urg‘u berilgan bo‘lsa, aksincha Sharq allomalari ilmiy merosida aksariyat aql-idrok, donolikka alohida o‘rin ajratiladi.

Kuzatuvlar, ilmiy asoslar bu borada mintaqalar, sivilizatsiyalar o‘rtasida qat’iy “ayirish chizig‘i”ga yo‘l qo‘yish ham bir tomonlamalik ekanligidan guvohlik beradi. Bu yerda konkret bir hududda sodir bo‘lgan voqeа-hodisalar

²⁷ Федотова В., Колпаков В., Федотова Н. Глобальный капитализм: великие трансформации (социально-философский анализ общества и экономики). – М., 2008. – С. 150.

yo‘nalishi, ularning ijobiylar va aksincha salbiy ta’sir kuchi bilan bog‘liq omilni nazarda tutish lozim. Zero buning uchun na mintaqasi va na u yerda hayot kechirayotgan elatlar-u xalqlar aybdor. Misol uchun, bir zamonlar alloma Platonning mamlakatga, yurtdoshlari hayotiga kirib kelayotgan yot unsurlardan, jumladan savdogarlikdan tashvishlangani, natijada vatandoshlari xos tabiiy maromdan chetga chekinganidan hadiksiraganligi haqida bitik borki²⁸, unda faoliyatning tabiiylik, ya’ni jamoaviylikdan yiroqlashish holati kishilarning yumushu muammolar yechimini hamjihatlikda izlashiga salbiy ta’sir qilishidan ogohlantirilgan. Demak, inson zotini boshqa jonzotlardan keskin ajratuvchi, aniqrog‘i uning barchadan ustun tomoni jamoaviylik, hamkorlikka moyilligi pirovardida umumxalq ezgu maqsadiga aylanishi ekan.

Shu sababli xalqlar navbatma-navbat ijtimoiylikning, aniqrog‘i hamjihatlikning eng yuqori pillapoyasi va tayanch nuqtasi davlatchilikni yaratib, shu bilan ham o‘zini va ham boshqalarni beshak halokatdan xalos qildi. Uni chuqurroq idrok etish uchun mavjudotlarning ayrim turlari tabiat injiqliklari, ulkan biosotsial kataklizmlar qarshisida ojiz qolib, oqibatda qirilib ketganligini yodga tushirishning o‘zi kifoya. Jangu jadallardan xoli bo‘lgan paytlarda shu xususda o‘ylashga imkon topgan qadimgi Xitoy faylasufi, sarkarda Sun-Szi o‘zining “Hukmdor yo‘li” nomli traktatida ibratli bir fikrni insonlarga meros qoldiradi. “Odamlar ho‘kizlarga qaraganda ancha zaif bo‘lsa-da, otlardan chopqirroq bo‘lmasa-da, ammo ularga buyruq beradi. Nega? Chunki u jamoa bo‘lib yashay oladi – ho‘kizlar va otlar esa, undan mahrum. Odamlar jamoasiz yashay olishmaydi, aks holda ular o‘rtasida kurash hukm surgan bo‘lar edi. Odamlar qanday qilib jamoaviylikka erishgan, degan savolga Sun Szi ular o‘rtasida xizmat vazifalarining taqsimlanganligi asosida yumushlarini birgalikda bajarishi orqali o‘zaro birlashuv²⁹, deb javob bergen ekan.

Shunday ekan, jumladan xitoyliklarga xos butun umri mobaynida ushbu holatni haqli ravishda tabiiy qonuniyat deb, unga qattiq turib rioya qilayotganligi

²⁸ Геворкян Е.Г. Иносказания в «Теэтете» Платона // Вопросы философии. – 1985. – №1. – С. 102.

²⁹ Чинь У. Философские идеи. – Пекин, 2009. – С. 117.

bugun ko‘pchilik uchun sir emas. Ana shu g‘oya, ijtimoiy-axloqiy dasturni amalga oshirish bugun ularni dunyo taraqqiyotining yetakchilaridan biriga aylantirdi, desak xato bo‘lmaydi. Umuman, yuqorida keltirilgan prinsip, garchand u alohida bir sotsiumga xos bo‘lsa-da, boshqalar undan namuna olsa yomon bo‘lmasdi. Zero, bu sun’iy yaratilgan tartibot emas, aksincha odamzot uchun birdan bir imkoniyat.

Xullas, har bir individning kundalik kasb-u kori, burchini jamoadowschlari oldida bajarishi orqali, va qolaversa jamoaviylikning hozircha yuqori pog‘onasi bo‘lgan o‘z davlatiga sodiqligi va uning oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishi ijtimoiy taraqqiyotning kafolati ekanligiga barcha mamlakatlarda bugun ishonch oshib bormoqda. Jahondagi nufuzli ekspertlar fikri, sotsiologik so‘rovlar bashariyatning mutlaq ko‘pchiligi bugun alohida bir davlatdan to jahon hamjamiyatiga qadar katta va kichik muammolarni global hamjihatlik asosida, siyosiy makonda yechimini izlashni ma’qul ko‘rishini – jamoaviylik tamoyili taxmin qilishmoqda. Bu yerda davlatga nisbatan ham nufuzliroq boshqa bir ishtirokchini hozircha ko‘rmayapmiz.

Darhaqiqat, insoniyat ongi va tafakkurida, ijtimoiy amaliyotda chuqur ruhiy-axloqiy “burilish”ning zamirida ko‘plab ob’yektiv hamda sub’yektiv sabablar-u omillar mavjud. Odamlar bir zamonlar o‘zini asrab qolish, avlodlar davomiyligiga erishish maqsadida dastlab intuitsiya darajasida hamjihatlikni afzal ko‘rgan bo‘lsa, endilikda uning haqiqat ekanligi ilm-fanda ham isbotlandi. Ammo afsuslantiradigan jihat bor – u bugungi kunga kelib son-sanoqsiz xatarlar sababidan dunyo miqyosida davlatdek benazir ijtimoiy tayanch bir muncha murakkab holatni boshidan kechirayotganligi bilan bog‘liq.

Dunyo ahlining ayrim qatlamlari ongi va qalbida o‘rnashib, so‘ngra ijtimoiy amaliyotga ta’sir etayotgan davlatga nisbatan aksilinsoniy g‘oyalar o‘z vazifasini bajarmoqda. Shu munosabat bilan o‘tgan asr 90-yillarining ilk soniyalarida atoqli olim Y.Xabermas qalamiga mansub bir fikrni qog‘ozga tushirish to‘g‘ri bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. “Dunyo ahlining ko‘plab guruhlari tasavvurida, – deb mulohaza yuritadi olim, – ekstrimal vaziyatlarda aholining hozirgi paytda joylashuvida sodir bo‘layotgan mulkiy notekislik, asimmetrik taqsimot, biotexnologik hamda

kompyuter to‘ntarishlar sharoitida, davlatning ijtimoiy hamjihatlikning allaqanday mavhum va soxta ko‘rinishiga aylanib qolishi xavfi tobora ildiz otib bormoqda”³⁰.

Agarki muammoga xolisona yondashilsa, birinchi navbatda “davlat” – bu ijtimoiy-siyosiy mavjudot sifatida biologik jarayonlardan mustasno, sifat jihatdan ulardan mutlaqo ajralib turuvchi alohida ilohiy xilqat, Inson qo‘li bilan yaratilgan tengi yo‘q fenomen ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Holbuki, aynan davlat tufayli sotsium buyuk kuchga aylanib, jamiyat darajasiga ko‘tarildi. Davlat – inson uchun eng bosh qadriyatlardan biri, ezgu niyat maqsadlar konsentratsiyasi. U hech qachon o‘tmishga aylanmaydigan va istiqbolni ta’minlashda sotsium va jamiyatning qo‘lidagi bosh instrument. Inson jismida mavjlanib turgan ijtimoiylik va u orqali muammolar yechimini topishga intilish, faqat davlatning salohiyati va kuch-qudrati, uning siyosiy uddaburonligi asosida mukammallik kasb etganligi hech kimga sir emas. Davlatga nisbatan kuchayib borayotgan anarxistik qarashlardan inson zotining tashvish tortayotganligining boisi ham shunda deb bilamiz.

Ma’lumki, Yer kurrasi cheksiz potensial, hozircha yuzaga chiqmagan moddiy va ma’naviy imkoniyatlarga egaki, ular Yaratgan tomonidan eng avvalo Insonga tuhfa, ne’matdir. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, boshqa bir hammasidan-da muhimroqg‘i – uni to‘g‘ri yo‘naltirish; shaxsiy manfaatlar yo‘lida emas, balki jamiyat, uning har bir a’zosi uchun teng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Odamzot paydo bo‘libdiki, bu masala kun tartibidan tushgan emas. Biroq bugun, tarixning eng murakab asnolarida u yanada alohida dolzarblik kasb etmoqda. Insoniyat oldida o‘z mas’uliyatini chuqurroq his etuvchi shaxslar fikriga binoan, hal qilib bo‘lmaydigan muammoning o‘zi yo‘q va ularning yechimini esa davlatlar xohish-irodasi bilan hatto qandaydir umumjahon siyosiy konsensus bilan bog‘lashmoqda³¹.

Bizningcha, aynan shu kichik bir ijtimoiy guruhdan to global birlashmalar darajasida o‘zaro bag‘rikenglik, birgalashib muammolarning aynan siyosiy

³⁰ Щедровицкий П. Изменения в мышлении XXI века: социокультурные вызовы // Вопросы философии. – 2007. – №7. – С. 46.

³¹ Федотова В., Колпаков В., Федотова Н. Кўрсатилган асар. – С. 448-449.

yechimini topish “sirli kalit” shekilli. Insoniyatda esa unga moyillik, tabiiy ko‘nikma, intilish allaqachon mavjud va uni ishga tushirishning o‘zi yetarli. Zero, kurrai zaminning barcha puchmoqlarida odamzot uchun yetarli shart-sharoit, imkoniyatlar mavjud va ularni jamiyat foydasi tomon yo‘naltirmoq uchun inson aql-idroki tabiat bilan hamnafas bo‘lsa, shuning o‘zi yetarli, degan konsepsiya ilmfanda allaqachon ildiz otgan. Yechim ayirmachilikda emas – ijtimoiy hamjihatlikda ekanligini bugungi kun o‘zi isbotlab qo‘ydiki, unga birdan bir javobgar davlat. Shunday ekan, davlatning ildizi nimada va u ne maqsadda dunyoga kelganligini xalqlar, millatlar anglashsa, shuning o‘zi yyetarli.

Ijtimoiy hamjihatlik, o‘zaro muloqot va tajriba ayriboshlashning insoniyat uchun nechog‘lik xizmat qilgani, shu asnoda ijtimoiy taraqqiyot uzluksiz davom etayotganligi bugun ham bashariyat uchun ulkan nazariy va amaliy asosdir. Shu munosabat bilan V.Vernadskiyning bir fikriga e’tiborni jalb etish foydadan xoli emas. Unga binoan “Insoniyatning, Insoning bardavomlik kasb etishi, o‘zining ko‘lamli tafakkurga qodirligi, unga imon keltira olishiga bog‘liq. Shu tarzda ayrim shaxs, oila, urug‘, davlat va boshqa ulkan hamjamiyat darajasidan umumsayyoraviy darajaga ko‘tarilishi lozim”³².

Inson, sotsium va boshqa qator ijtimoiy guruuhlar bu qadar yuksaklikka ko‘tarilishni uddalay oladimi, axir inson aql-zakovati ham axloqiy me’yorlar nuqtayi nazaridan cheklanganku, kabi tabiiy savollar, muammolar yuzaga chiqadi. Holbuki, imkoniyat cheksiz – uni faqat izlash, kerak bo‘lsa, kutilmagan vaziyatlar, hodisalar, sharoitlar sari harakat qilinsa bas. O‘z davrida qandaydir bir tomonlama ilmiy dogmalardan yiroqlashgan atoqli sotsiolog Maks Veber imkoniyatni ro‘yobga chiqarish uchun ijtimoiy guruuhlar murakkab asnlarda, kerak bo‘lsa, “imkonsizlik” tomon qat’iy intilishi lozim, deganda qandaydir xomxayol emas, kundalik voqelikni nazarda tutgan edi³³.

Xullas, dunyo hamjamiyati orttirgan boy ijtimoiy tajriba, ilmiy tahlilimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, individlarning asrlar davomida umumiy maqsad yo‘lida

³² Вернадский В.И. Размышления натуралиста. – М.: Наука, 1977. – С. 25.

³³ Красин Ю. Расчёт циклов или анализ реальности // Мировая экономика и международные отношения. – 2003. – №5. – С. 126-127.

hamjihatligi hamda katta va kichik jamoaviy birlashmalar, tuzilmalarning yaralishi shu umumiy maqsadni amalga oshirishi qancha zamonlar o‘tib siyosiy xususiyat kasb etishga olib keldi. Ana shu nuqtadan masalaga yondashsak, siyosiylikning hatto davlatchilik jarayonigacha individlarning institutsiyalashuv davriga ham immanent xususiyat ekanligi ayon bo‘ladi. Zero, yakka tarzda biror bir jiddiy ijtimoiy-madaniy marrani egallash ilojsizligini, uning uchun faqat jamoaviylik zarur ekanligining individ tomonidan anglanganligi uning siyosat makoniga qadam qo‘yganligining tasdig‘idir.

Bandni muxtasar qilar ekanmiz, individ, jamoalar tomonidan ushbu zarurat anglansa uni jahon taraqqiyoti nuqtayi nazaridan global inqilobiy transformatsiya deyishga asos yetarli. Bunday “ijtimoiy sakrash” u yoki bu interval bilan dunyoning aksariyat o‘lkalarida asoan sinxron tarzda ro‘y bersa ajab emas. Holbuki, “ilojdan (imkoniyatdan) ilojsizlik (imkonsizlik) sari” degan azmu qarorga kelish, jonzotlar orasida faqat insonga, insoniyatga nasib qilgan hodisa. “Imkoniyat – ilojsizlik” birikmasining asl ma’nosи ular aslida bir hodisa, imkoniyat va imkonsizlik biri birini keltirib chiqaradigan jihatlar, imkonsizlik mavjud bo‘lmasa “imkoniyat”ga ham hojat yo‘qligini, imkonsizlikdan, boshi berklikdan imkoniyat yaratish ana o‘sha individlar bag‘rida bitmas-tuganmas ijtimoiy-ma’naviy quvvat mavjudligini isbotladi.

1.3-§. Davlat – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning asosiy omili sifatida

Bundan ancha oldin nashr qilingan ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning aksariyatiga bir umumiy fikr xos: davlat oliv qonun chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy me’yorlar hamda ijtimoiy hayot qoidalarini ishlab chiqish, nazorat qilib borish huquqiga ega, ma’lum bir hududiy-ma’muriy makonda mazkur jamiyatning xavfsizligi va barqarorligi uchun mas’ul va javobgar siyosiy institut shaklida talqin qilingan³⁴. Umuman olganda, bu ta’rifda biror bir g‘alizlik yo‘q va shunday ekan, uni qaysi bir parametriga ko‘ra ma’qullash mumkin. Ammo, bu garchand muhim bo‘lsa-da, ularda davlatdek ko‘pqirrali institutning ayrim funksional muhim tomonlari o‘z aksini topmagan.

³⁴ Всемирная энциклопедия философии. – М. – Минск: «Альма-Матер», 2001. – С. 249.

Ma'lumki, bugungi globallashuv, xususan, davlatning liberal-demokratik modelining millionlab insonlar orzu-umidlari, kundalik yumushlaridan yaqqol yiroqlashish amaliyoti davlat haqida turli-tuman fikrlar ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda. Achinarli tomoni faqat shundaki, davlatga nisbatan noo'rin fikrlar mamlakat, fuqarolar taqdiri uchun bevosita javobgar siyosiy elita, uning istiqbolini shubha ostiga olish hatto ayrim ilm sohiblarining tafakkuridan ham joy olmoqda. Ayrim mintaqalarda davlatga, uning insoniyat taraqqiyoti davomidagi ulkan mavqeyiga nisbatan keskin anarchistik munosabat shakllanishda davom etmoqda.

Tabiiyki, bu negativ tendensiya globallashuv, qolaversa davlatning iqtisodiy jabhaga ta'sirini ma'lum darajada cheklash zarurati bilan bog'liq umumsiyosiy istak-intilishlarni tor tushunishning ham oqibatidir. Biroq bu masalani bir tomonlama tushunish yoki bo'lmasa davlatga nisbatan qandaydir eksperiment o'tkazishni anglatmaydi. Zero, bunday xatti-harakat ko'pchilik fuqarolarning davlat haqidagi tasavvurini siyqalashtirishi turgan gap. Xullas, ro'y berayotgan ijtimoiy tabaqlanishning barcha segmentlarida kuchayib borayotgan bosh-boshdoqchilik, parokandalik sharoitida dunyoni davlatsiz tasavvur qilish zararli deb o'ylaymiz.

Holbuki, barcha ijtimoiy, qolaversa davlatlararo munosabatlarda ro'y berayotgan muammolar, umuman, insoniyat rivoji va istiqboli davlat boshqaruvi bilan bevosita bog'liq va shunday bo'lib qolaveradi. Aks holda bugun ham, qolaversa ajdodlar, turli davrlar va mamlakatlarda buyuk allomalar davlat xususida bu qadar bosh qotirmagan bo'lar edi.

Shu boisdan ushbu holat butun tarix davomida, G'arbda ham va ham Sharqda insoniyat tafakkuri va siyosiy ta'limotlarda markaziy mavqega ega bo'lib kelgan. Jumladan, 2500-2000 yillar chamasi avval, Xitoy yurtida rivoj topgan konfutsiychilik ta'limotining buyuk namoyandalaridan biri Syun Szi "Kurrai zamindagi barcha narsalar in va yan o'rtasidagi garmoniya tufayli vujudga keladi va shu tufayli ijtimoiy hayot ildiz otib, ravnaq topib boradi. Bunda saltanat sohibining o'rni beqiyosdir. Saltanat – bu davlat"³⁵, degan. O'rta asrchilik

³⁵ Чинь У. Философские идеи. – Пекин, 2013. – С. 35.

absolyutizmi davrida umrguzaronlik qilgan fransuz faylasufi Monteskye: “dono davlatlar, dono rahbarlar hech qachon taqdirning o‘yini bilan bog‘liq yumushga jur’at qilmasliklari kerak. Ulardan kutilayotgan birdan-bir yaxshilik – bu davlatni mustahkamlashga betinim intilishdir”³⁶, – deb yozadi.

Ko‘rinib turibdiki, davlatga shunchaki mavjud institutlardan biri yoki bo‘lmasa ijtimoiy barqarorlik uchun qandaydir javobgar instrument sifatida qarash, ayniqsa bugungi alg‘ov-dalg‘ovlarga boy dunyoda asossiz ekanligini anglash zarur. Ilm-fan o‘z navbatida buni atroflicha isbotlagan holda siyosiy elitaga ko‘makdosh bo‘lmog‘i lozim. Har bir fan tarmog‘i davlatni o‘z diskursi, tasarrufidagi makon doirasida qayta idrok etib, yangi xulosalarga kelishi lozim. Zero, muammoga aniqlik kiritilishida har bir fan tarmog‘ining o‘z o‘rni borki, bu nafaqat davlatga oid tasavvur va tafakkurimizni kengaytirib boradi, balki o‘zaniga tushiradi. Shu ma’noda falsafa fanining ham o‘z o‘rni bor. Boshqalardan farq qilib, falsafa eng avvalo “g‘oya” deb bilishi bilan davlat muammosiga kirib keladi.

Avval ta’kidlaganimizdek, davlat bo‘lib yashash istagi, odamlar (guruh, qabila, sotsium) ongi-shuurida davlatning qiyofasi, u bilan bog‘liq qadriyatlar va unga erishish yo‘llari xususida tasavvur barcha elatlar va millatlarga xos. Zero, ular bu fikrga bir paytda emas, har xil davrlar kesimida kelishadi; davlatchilik g‘oyasi bo‘lмаган millat yo‘q, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Aks holda ular elat ham va millat ham emas, balki bunday ijtimoiy va ma’naviy yuksalish darajasiga chiqishga munosib bo‘lмаган, dunyoga daxldor bo‘lмаган yakka-yakka umr kechirayotgan kimsalar to‘dasidir. Davlatchilik g‘oyasining ijodkori xalqning o‘zi, o‘sha konkret hududga mansub ilg‘or insonlar tafakkuri mahsuli bo‘lgandagina xalqni xalq qiladi. Qolaversa, yorug‘ dunyoda shu xalq bor ekan davlatchilik g‘oyasi unga muttasil hamroh, jismining bir bo‘lagidir. Ilm-fan vakillari o‘z davlatchiligidagi asos solish, davlatiga ega bo‘lgan xalqlar dunyo hamjamiyatidan o‘rin egallahsga munosib sub’yektlik a’zolarining hamkorlik munosabati bo‘lib, bu insonlarga xos o‘zaro intellektual hamda ma’naviy kelishuviga olib keladi, deb hisoblanadi. Shu tarzda xususiy, individual o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy intilishlar bekam-u ko‘st

³⁶ Монтеске. О дхе законов. Избр. произ-я. – М., 1995. – С. 86.

butun hamjamiyat manfaatlari bilan mushtaraklashish natijasida yagona umumiylar maqsad-vazifaga aylanadi”³⁷.

Ko‘rinib turibdiki, alohida individlar yig‘masi bag‘rida tarixiy taqdir bo‘lmish umumiylikni anglash, shu umumiylar ezgu maqsadni amalga oshirishga bo‘lgan intilish keyinchalik davlatchilik g‘oyasi tarzida dastlab ong va tafakkurda paydo bo‘lar ekan. U ma’lum bir konkret tarix kesimida amaliy jarayon darajasiga ko‘tariladi. Davlat tarzida yashash va o‘z davlatini asrab-avaylash istagi bu qandaydir tashqaridan kirib kelgan yot unsur emas, balki u insonning ontologiyasi, inson tabiatining bosh xususiyatiga borib taqaladi. G‘oya – davlatni keltirib chiqardi, shu zaylda g‘oya semiosferadan, ya’ni ma’nolar dunyosidan moddiylik darajasiga tushdi. Tafakkurdan voqelikka, amaliyotga ko‘tarildi³⁸.

Davlat o‘ziga xos barcha atributlari orqali va ularga tayangan holda xalq – ijtimoiy guruh uchun ikkinchi “Men”ga aylandi. Davlat bilan xalq har biri alohida alohida unsur ekanligini saqlagan holda bir butunlikka aylandi. Xalqning ongi, tafakkuri va orzu umidlari davlatning ham ongi, tafakkuri va pirovard maqsadiga aylandi. Individlarga immanent xos bo‘lgan jamoaviylikka intilish davlat siyemosida, faoliyatida pirovard ifodasini topdi. Davlat bo‘lib yashash g‘oyasi g‘oyalar olamini tark etib ob’yektiv qonuniyatga, amaliyotga aylandi.

Xalq bilan bog‘liq har qanday narsa shu xalq turguncha turadi, abadiylikka yo‘g‘riladi, bu o‘z navbatida xalqni xalq qiluvchi, uning asliyatini asraguvchi “sotsiomadaniy kod” shaklida o‘zini mujassam etadi. Zero, g‘oyaviy, ruhiy tayanchi bo‘lмаган xalq ham va davlat ham yashay olmaydi. Zamon va makon tahdid va talablariga o‘z vaqtida javob bera olmagan xalq, davlat tarix sahnasidan tushib ketgan asnolar insoniyat tarixidan bizga ma’lum. Xullas, so‘z xalqning o‘z-o‘zini anglashi masalasiga borib taqalmoqda³⁹.

Shu munosabat bilan bir muammo ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Jumladan, bugungi kunda davlat bilan bog‘liq ko‘p masalalarga “ratsional qarash”

³⁷ Барлыбаев Х.А. О философии солидарных отношений // Вопросы философии. – 2018. – №12. – С. 41.

³⁸ Ковельман А.Б. Семиосфера и Матрица // Вопросы философии. – 2018. – №9. – С. 78.

³⁹ Алексеева И.Ю., Алексеев А.П. Философия исторической памяти // Вопросы философии. – 2018. – №10. – С. 67.

nomi bilan mashhur bo‘lgan davlatga instrumental yondashuvni nazarda tutayapmiz. Unga ko‘ra, davlatni ma’lum bir tarixiy vaqt kesimida insonlarga asqotgan va so‘ngra unchalik ham zarur bo‘lmagan quroq tarzida tasavvur qilinadi. Xulosa – davlat o‘tkinchi, ammo xalq, avlodlar abadiy. Ba’zi birlar ongida davlatga nisbatan zo‘ravonlik timsoli, erkinlikni cheklovchi omil sifatida qarash, shunday ekan, undan tezroq xalos bo‘lish lozim, degan fikr mavjud. Unga ko‘ra, davlat insonning haqqoniyligini erkinlik, hurfikrlik tomon intilishi uchun ulkan to‘siq emish.

Bugungi keskin o‘zgargan dunyoda boshqa bir yo‘nalish – postnoklassik qarash o‘zini yaqqol namoyon etmoqda. Yangicha fikrllovchi olimlar bugungi kunda cheksiz erkinlikdan (uning intihosi – anarxiya, xaos) ko‘ra, “insonning o‘z erkinligini cheklashga bo‘lgan salohiyati” muhimligi xususida so‘z yuritishmoqda⁴⁰. Chunki tarixning barcha davrlari, xalqlar tarixiy tajribasi “cheklanmagan erkinlikdan” bardavom tartibotni afzal ko‘rish, olomonlik holatidan jamoaviylik beqiyos ustunligini isbotlab qo‘ydi. Shu zayl dunyo xalqlarining birin-ketin davlatchilikka etib kelganligi kafolatlandi desak bo‘ldi. Davlat tarix sinovidan o‘tib ajdodlar va avlodlarni bog‘lovchi, ular o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlikni asrovchi, uning tashuvchisi darajasida bugun o‘zini namoyon etilmoqda.

Tadqiqot ishining mazkur qismida yoritilayotgan muammoning barcha jihatlari/parametrlarini qamrab olish ilojsiz. Shu bois uning ayrim, hali ilmiy adabiyotlarda to‘laqonli ifodasini topmagan ba’zi qirralariga diqqatimizni jalb qilmoqchimiz. Bu “davlat-xalq-hudud zanjiri” bo‘lib, avlodlararo ijtimoiyma’naviy, ruhiy mushtaraklikning muttasil mukammallahib borishi ob’yektiv qonuniyat sifatida ko‘rinish berishiga borib taqaladi. Fikrimizcha, uning zamirida, birinchi navbatda, mazkur sotsiumga xos tarixiy-madaniy omillar majmuasi (dunyo qiyofasi siyratining ushbu xalq ongida aks etishi, shu asosda shakllangan o‘ziga xos milliy tafakkur yo‘nalishi, o‘zi va atrofdagilar haqidagi tasavvuri, jamoaviy mentalitet, o‘ziga va istiqboliga nisbatan ishonch tuyg‘usi, bugungi kun

⁴⁰ Даллмаер Ф.Р., Деменчёнок Э.В. Мир по ту сторону глобального беспорядка // Вопросы философии. – 2018. – №10. – С. 19.

ehtiyojlaridan chiqib moziya murojaat va h.k.) va qator ma’naviy qadriyatlar tizimi yotadi. Aynan shu ijtimoiy-madaniy muhit davlatni nafaqat avlodlararo ichki mushtaraklik kafolati sifatida o‘zini namoyon qilishi, uning abadiylikka yo‘g‘rilishini ham ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur omil “sotsium ko‘nikmalari qatlami” konsepti orqali va kontekstida toifalashtirilgan.

Ildizlari sotsium hayotiy faoliyatining eng chuqur qatlamlariga borib taqalgan davlat har doim o‘zining borlig‘i – boshqa zarur ijtimoiy omillar qatorida – aynan shu omilga ustuvor darajada bog‘liqligini “his etib” yashaydi. Bir paytlar, ya’ni XIX va XX asrlar oralig‘ida ijod qilgan shvetsiyalik olim R.Shellenning Shvetsiyaning davlat sifatida mavjudligida aynan monarxistik an’analar va ramzlar hal qiluvchi omil deb hisoblaganligi, mabodo ular barham topsa shved davlati ham, shvedlarning o‘zлari ham barham topishi xususida aytgan fikri ayni haqiqatni aks ettirganligini ko‘ramiz⁴¹. To‘g‘ri, ushbu umum fenomen faqat nomi zikr etilyotgan xalq va davlatga, ya’ni Shvetsiyaga xos xususiyat. Biroq har bir alohida sotsium, davlatning ijtimoiy-ma’naviy tayanchi turli xil bo‘lsa-da, bu omil uning moziyi, buguni va kelajagining bir-biri bilan uchrashishini ta’minlar ekan. Ko‘rib turganimizdek, “davlat-inson-sotsium-kosmos” o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin borliqning boshqa bir shakli sifatida aynan shu ob’yektiv bog‘liqlik, shu davlatni ajdodlar va avlodlar, o‘tmish, bugungi kun hamda keljak o‘rtasidagi mushtaraklik kafolatini parchalanmas quvvvat darajasiga ko‘taradi.

Shu munosabat bilan Gegel qalamiga mansub bir fikrga e’tibor qaratsak durust. Zotan unda inson va sotsium umrguzaronligida davlatning ahamiyati yaxshigina ochib berilgan. “Shu boisdan, – deb davom etadi buyuk faylasuf, – aslida davlat barcha ijtimoiy jarayonlar, rivojlanishning ifodasi, boshlang‘ich nuqtasidir. Aynan uning bag‘rida shu muhitda fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida jumladan oila ham ravnaq topadi”⁴². Ushbu fikr mohiyati, yo‘nalishiga ko‘ra, marksistik ta’limotga nisbatan oila muammosiga tubdan boshqacha qarash bo‘lib, hamma ijtimoiy munosabatlar, jarayonlar uchun

⁴¹ Риттер К.П. О пространственных отношениях на поверхности Земного шара и их влияние на ход исторического развития // Полис. – 2005. – №5. – С. 110.

⁴² Гегель. Философия права. – М., 1990. – С. 278.

davlatning birlamchi ekanligiga, uning mudom ijtimoiy taraqqiyot bilan uyg‘unligiga, qolaversa ularning ichki bog‘liqligi, uzlusizligini ta’minlovchi asosiy tayanch, tuzilma ekanligiga ishora qiladi.

Davlat tarixiy marom sifatida barcha ijtimoiy munosabatlar, jarayonlar, ularning uzlusizligini ta’minlovchi betakror omil. Unga doir Aristotelning bir fikrini keltirish o‘rinli ko‘rinadi. “Mohiyatan, tabiatiga ko‘ra har bir inson uchun yolg‘iz holida mustaqil hayot kechirishi ilojsiz. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, insonning, individning davlatga nisbatan maqomi har qanday qismning butun bilan o‘zaro munosabatining aynan o‘zidir”⁴³. Mutafakkirning bu umumlashmasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, birinchi xulosa shunday: inson haqiqiy ma’noda o‘zining va o‘zgalarning nima ekanligini, olam yuzini ko‘rishdan, yashashidan maqsadini, nimalarga qodir/qodir emasligini, bu yorug‘ dunyo sub’yekti sifatida yelkasidagi vazifasi, burchi nimalardan iborat ekanligini aynan davlat bilan hamohang, hamjihatlikda anglab etdi. Bu yerda biz odamzotni yolg‘iz bir holatda emas, balki insoniyat borlig‘ining asosiy qismi tarzida tasavvur qilmoqdamiz. Inson aynan shunday yuksaklik tomon borgandagina insoniyat bilan uyg‘unlashadi, o‘zining o‘tkinchi umrini abadiyat bilan mushtaraklashtira oladi.

Davlat va odamlar, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi munosabat xususida fikrni davom ettirar ekanmiz, insonning ijtimoiy-siyosiy sub’yekt sifatida o‘z-o‘zini aynanlashtirishida davlatning roli haqida ham batafsilroq so‘z yuritish joiz deb o‘ylaymiz. Davlat va hudud, xullas shu makonda ajdoddan avlodga o‘tib istiqomat qilib kelganlar – bir tomondan va ikinchi tomondan esa bugungilar o‘rtasida aynanlashish mumkinmi, agar shunday bo‘lsa, u nima va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati nimada, degan savollarni idrok etish lozim bo‘ladi. Zero, bu azaliy fenomen, uni hatlab o‘tish to‘g‘ri emas.

Ma’lumki, aynanlashish, ya’ni insonning u yoki bu omil bilan yaxlitligi, mushtarakligini anglash odatda oila darajasida ro‘y beradi. Inson o‘z mo‘jazgina oilasi – “jonajon o‘chog‘i”ga ega ekanligini anglash borasida oilasi uning uchun qandaydir organizmik kafolat, ilohiylik kasb etib boradi. Inson shu joyda o‘zida

⁴³ Илова: Дюргейм Э. О разделении общественного труда// Метод социологии. – М., 1991. – С. 369.

transsidental ruhiy kuch his etadi, unga nisbatan mehribon, uning himoyasiga doimo tayyor insonlar orasida umr kechiradi. Ta’lim jarayonida jamoa bo‘lib muammolarni yechish oqibatida, mehnat jamoasi, mahallaga nisbatan uning qalbida shu singari aynanlashuv kechadi. Demak, inson hayotiy faoliyat davomida turli makonlar, resurlar bilan aynanlashishni boshidan kechirar ekan. Biroq inson aynanlashuvi jarayonining eng yuqori pillapoyasi – bu xalqi, jamiyati, davlati, ona yurti bilan aynanlashuv deb bilamiz. Ko‘rinib turganidek, mazkur ma’naviy-ruhiy jarayon oddiy ko‘zdan yiroq, ya’ni ha deganda sezilmaydi. Demakki, aynanlikning reallikka, buyuk kuchga aylanib borishi inson umrining mazmuni, shaxsiy dunyoqarashining sifat darajasi hamda inson ijtimoiy-ma’naviy kamoloti va nihoyat siyosiyashuv pillapoyalariga borib taqaladi⁴⁴. Uning aksi – tabiiyki vatansizlik, yurtsizlik.

Bu borada asrlar davomida dunyoning turli go‘shalarida va turli davrlarda ko‘plab noyob fikrlar, ta’limotlarni, qolaversa, jahoniy dinlar tadrijiyligida tarixida ham uchratish mumkin. Masalan, dini islam sufizmida boqiylikka, buddizmda nirvanaga intilish, xristianlikda – Iso jamoliga intilish. Lekin bu yerda aynanlashuv, tabiiyki, diniy yo‘nalish kasb etgan. Aynanlashuvdek qudratli ruhiy voqelikka nisbatan umumiy jihat – o‘zining nazdida buyuk qudratga ega biror insonga xos bir omil tomon intilish bo‘lib, undan madad olib, unga kuch bag‘ishlashga moyilligida va dunyoqarashi va xatti-harakat yo‘nalishida ko‘rinish beradi. To‘g‘ri, aynanlashuv ko‘zga tashlanmaydi, lekin inson vujudining chuqr qatlamlariga yo‘g‘rilgan holda, kerak paytda, kerak joyda o‘zini namoyon etadi. Fuqaroning ona vatani, davlati oldida o‘z burchini ado etishi shular jumlasiga kiradi.

Davlat, xalq va shu yurt farzandi deb o‘zini his eta olgan har bir inson aynanlashuv jarayoni jamoaviy tarzda kechishi bois, u xususda har xil, ba’zan biri biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Aynanlashuvning buyuk kuchi barcha darajalarda ulkan o‘zgarishlarga sababchi bo‘lganligiga qaramasdan, hanuzgacha

⁴⁴ Федорова В.Г. Меняющаяся современность: всемирность и социальность // Вопросы философии. – 2020. – №11. – С. 5-14.

“aynanlashuv – bu noqulay, noaniq, ma’no-mazmun nuqtayi nazaridan ikkinchi darajali konsept. Unga aniqlik kiritish, uni ilmiy ratsional asoslash o‘ta mushkul bir soha”, deb muammoni chetga surish holatlari ham bor. Biroq bu dunyo olimlarining aksariyatining haqli ravishda jiddiy e’tiroziga sabab bo‘lmoqda⁴⁵.

Tarixiy taraqqiyotning bugungi bosqichida shaxs, sotsium va hatto butun boshli mintaqa rivojida madaniy-ma’naviy aynanlashuv birinchi o‘ringa chiqishi, qolaversa, uning xalq hamda davlat tomonidan sinxron anglanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kechayotgan turli-tuman salbiy yoki ijobiy siljishlarni o‘rganar ekanmiz, ularning kelajakda ijtimoiy bir butunlik sifatida o‘zini asrab qolish va aksincha, qolmasligi avvalambor “jamiyat-davlat-inson” triadasi darajasida o‘zaro bir-birini asrash tuyg‘usi qay darajada ekanligi bilan belgilanmoqda. Zero, bugungi kunda o‘zini deyarli saqlab qola olmayotgan, parchalangan davlatlar yo‘q emas. Globallashuv, gegemonizm, messionizm qarshisida ayrim joylarda keskin milliy davlat tanazzuli kuzatilmoqda. Bu yerda, albatta kuchlar teng emasligi, ya’ni zaif davlatlarning qudratililarga bas kela olmasligi ham mavjudki, ularga hatto moddiy va intellektual salohiyat ham yordam berishi qiyinlashib bormoqda. Xullas, siyosat bilan milliy aynanlashuv o‘rtasida ziddiyat borgan sari kuchayib ketishining guvohiga aylanmoqdamiz. Bunday vaziyat, tabiiyki, mintaqaviy yoki xalqaro barqarorlikka o‘z ta’sirini o‘tkazmasligi amri mahol.

Bugungi bosqichga xos xususiyatlardan biri – bu turli mintaqalarda davlat-jamiyat-inson o‘rtasida ma’naviy mushtaraklik, ichki aynanlashuvga darz ketish jarayoni. Davlat darajasida “ma’naviy yakdillik” muammosi bugungi kunda nafaqat kam taraqqiy etgan davlatlarda, hatto iqtisodiy, harbiy-siyosiy va siyosiy parametrlar bo‘yicha yetarli darajada kuchga ega bo‘lgan davlatlarda ham o‘z kuchini ko‘rsatmoqda.

Biroq XXI asrning birinchi choragida u yoki bu davlatning istiqboli uning iqtisodiy yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki “xalq-davlat-inson” triadasi darajasiga ko‘proq bog‘liqligi ravshanlashib qoldi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotning

⁴⁵ Идентичность: личность, общество, политика. Энциклопедическое издание. – М., 2017. – С. 72.

shunday bir davriga kirdiki, u yoki bu politiya yoki jamiyatning istiqboliga nisbatan yuz foiz aniq bashorat berish qiyin⁴⁶. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlaridek har jihatdan olg'a qarab ketgan davlatga nisbatan ham siyosiy bir butunligi yoki barqarorligiga nisbatan ishonchdan ko'ra shubhalanish ko'proq⁴⁷. Hozirgi kunda u yerda "davlat-jamiyat-xalq-inson" zanjirida o'zaro ishonchsizlik hissi sezilarli mavjudligi, mabodo u bartaraf etilmasa, "eritish qozonidagi" sun'iy aralashma – shimoliy amerikaliklar o'zлari o'z davlatining zominiga aylanishi tayin demoqdalar. Rossiyalik sotsiolog olim V.Lapinning fikriga ko'ra, ekspert jamoatchiligi tomonidan aytilayotgan prognozlar aynan shunday jarayon zamiridagi fundamental o'zgarishlar, betinim, besamar qo'nimsizlik, etnik va konfessional to'qnashuvlar, ichidan darz ketishlar mahsuli ekanligi isbotlanmoqda⁴⁸.

Shunday ekan, tarixning hozirgi bosqichida "davlat-xalq-inson" zanjiriga nisbatan ba'zi bir anarchistik qarashlar ko'paymoqdaki, ularga qarshi kurashish bugungi dunyodagi vaziyatga (globallashuv, messionizm, kuch ishlatgan holda butun boshli bir davlatni siyosiy bo'lmasa-da, psixologik yo'q qilish amaliyoti va boshqalar) ilmiy nuqtayi nazardan munosabat bildirish davlatimiz manfaatlari nuqtayi nazaridan muhimlik kasb etmoqda. Ustiga ustak deganlaridek, dunyoda shunday ilmiy ta'limotlar mavjudki, ularga ko'ra bugungi bosqichda nafaqat davlatga barham berish, balki shu asnoda bir vaqtning o'zida jamiyatning boshqaruvdan to ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanishgacha bo'lgan muassasalardan, hatto jamiyat, shahar, qishloq singari odamlar umrguzaronligi kechadigan maskanlardan voz kechishga to'g'ri kelar emish. Tartibot, ijtimoiy jarayon, qonunchilik va davlatchilik bilan bog'liq yumushlar, kundalik tashvishlar ularning fikriga ko'ra insonlar erkinligi, ijodkorligini cheklar ekan. Bu – boshqa mavzu.

Biroq insoniyat hayoti va faoliyat tarzi shuni allaqachon isbotlaganki, davlat shunchaki bir guruh aqli raso insonlarning intellektual kelishuvi natijasi, nafaqat

⁴⁶ Международная жизнь. – 2006. – №7. – С. 21.

⁴⁷ Панченко М.Ю. России не стоит мешать Соединённым Штатам, они сами работают против себя // Вечерняя Москва. – 2019, 16 января. – С. 6.

⁴⁸ Традиции и новации: полсотни взглядов на идентичность // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. – №12. – С. 111.

insonlararo sheriklik munosabatlarining ming yillar davomida yaratgan mahsuli emas. Uning balki ko‘p ming yillik jamoaviylik jarayoni sari intilish, ya’ni siyosiylilikni tartibga tushiruvchi va uyushtiruvchi, qonun doirasida kuch ishlatuvchi va shu orqali davlat va davlatchilikning davomiyligi, abadiyligini ta’minlashga qodir birdan bir siyosiy-ijtimoiy omil ekanligi har soat va har daqiqada tasdiqlanib turibdi⁴⁹.

Bugungi alg‘ov-dalg‘ovlarga boy davrga nisbatan zararli fikrlar bugungi kunning ehtiyoj-u intilishlaridan ancha yiroq. Insoniyat, dunyo boshqa, ya’ni davlatga oid yangi ishlanmalar yuzaga kelishini kutmoqda. Davlat inson zoti, insoniyat qalbining eng chuqur qatlamlaridan mustahkam joy egallab ulgurdi. Odamlar qadim-qadimdan jamoaviy farovonlik haqida orzu qilishgan. Nainki jamoaviy boylik, jamoaviy yumushlar, jamoaviy ezgulik sari umumxohish asosida intilish va boshqa qator ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar pirovardida davlatning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Shu munosabat bilan rossiyalik tarixchi olim A.A.Alayevning Сельская община: «Роман выявленная в истории» kitobida qadimgi dunyodagi ijtimoiy tartibotga nisbat qilib “xususiy mulk aslida xususiy mulk huquqi bo‘lmagan davrlarda ham muomalada bo‘lgan edi”⁵⁰, degan fikri diqqatga sazovor. Holbuki, umuman inson zotiga tabiatan mulkka intilish xos. Ammo unga egalikning institutsiyalashuvi faqat va faqat davlat tomonidan tartibga tushirilishi mumkin. Aks holda turli-tuman qarama-qarshiliklarga sababchi bo‘lib qolishi ehtimoli katta. To‘g‘ri, qadimda qabila boshliqlarida shunday imkoniyat bo‘lgan, ammo bu boshqa masala. Zero, mulkiy munosabatlar insonlararo munosabatlar orasida eng murakkab, uni tartibga tushirish, davlat darajasida fuqarolarning anglab etishi juda ko‘p muddat va tarixiy masofani bosib o‘tishini taqozo etadi.

Davlat kuch va salohiyat sohibi sifatida u ma’rifiy ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratish, uni avlodlarga, zamonlarga, makonlarga bus-butun yetkazilishi orqali, shu makonda o‘tmish-bugun-kelajak yaxlitligiga asos soladi. Bir zamonlar

⁴⁹ Барлыбаев Х.А. О философии солидарных отношений // Вопросы философии. – 2018. – №12. – С. 41.

⁵⁰ Трансформация политической власти в переходный период (рецензия О.Воркуновой из ИМЭМО) // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. – №4. – С. 119.

ota-bobolar zakovati, uddaburonligi mahsuli bo‘lgan boy moddiy va ma’naviy madaniyat bugun uchun taraqqiyot qudratli resursi bo‘lsa, kelajak uchun esa pillapoya bo‘lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish foydadan xoli emas. Ma’lumki, kurrayi zaminda xalqlarning davlat haqida tasavvuriga qarab ularni bir-biriga qiyoslash, ularning har biriga xos noyoblikni, xususiy jihatlarini belgilash mumkin. To‘g‘ri, davlatchilik deyarli barcha xalq va elatlarga xos, undan hamma teng manfaatdor. Davlat tasarrufiga kirish, o‘z vakolatining u yoki bu jihatini davlat bilan baham ko‘rishdan aziyat chekkan xalqning o‘zi bo‘lmaydi. Bu – aksioma. Ammo shunday bo‘lsa-da, xalqlaru elatlarni shartli ravishda “davlatparast”larga va aksincha, davlatga nisbatan “bag‘rikenglar”ga ajratsa bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Birinchi guruhga mansub xalqlar shunday ma’naviy-psixologik xususiyatga egaki (bu muammo milliy mentalitetga oid tadqiqotlarda chuqurroq o‘rganilgan), ularning davlatparvarligi, davlat bilan o‘zini aynanlikda ko‘rishga intilishi aslini olganda ijtimoiylikka moyillik darajasidan boshlangan. Va vaqtlar o‘tib undagi ijtimoiylik, demak, siyosiylik sifatlari davlat, davlatchilik bilan ancha chuqr uyg‘unlashib ketadi. Jamiyatning tabiiy moyiligi, intilishi voqelikka aylanib, amaliyotda o‘z ifodasini topadi. Bu ulkan ilmiy hamda amaliy muammo har doim buyuk aql-zakovat sohiblari, ijtimoiy-gumanitar ilm tarmoqlari vakillarining e’tiborini muttasil o‘ziga qaratib kelgan.

Darhaqiqat, jahon dinlari, ilm-u fan sohiblari uqtirib keladiki, insoniyat umrguzaronligi, kundalik hayoti dastavval ilm va aqldan boshlanganmi/yo‘qmi, jumboqligicha qolmoqda. Bu yerda so‘z ilmiy tafakkurning o‘rni yaqin moziyda e’tirof etilganligi bois, ratsional yashash ibridoiy davrga xos bo‘lmaganligi, odamlar o‘z yumushlarini stixiyali tarzida yil fasllariga, oylar, kunlar almashinuviga qarab amalga oshirganligi haqida bormoqda, xolos. Ilmiy va amaliy ishlanmalar asosida hayot kechirish u paytlarda inson salohiyatining ro‘yobga chiqishi uchun shunchaki instrument vazifasini o‘tagan. Ushbu holatni xayoliga keltirib F.Dostoyevskiy “xalqlar boshqa sirli majburlovchi va amr etuvchi, ammo

ifoda etish mushkul, noma'lum va tushuntirish qiyin bir kuch amrini bajo keltirishmadi”, – deganda mazkur sir-u sinoat davlat ekanligini nazarda tutgan. Demakki, bu inson zotigagina xos jamoaviy yashash, ijtimoiylikka, ezgu niyatga erishishda jamoaviy xohish/moyillikning kuchi bo'lsa kerak. Zero, insonning hayoti ham va uning insoniylik darajasiga ko'tarilishi ham, o'ziga men nimaman, nima uchun dunyoga keldim va nimalarga qurbim etadi yoki etmaydi, degan jumboqlar xususida bosh qotirishidan boshlanadi, deb aytishgan buyuk olimlar⁵¹.

Shunday ekan, odamzotning Inson bo'lishida, yangi tarix sub'yektiga aylanishida, uning keyingi avlodlar va qolaversa zamondoshlari qarshisida burchi, mas'uliyati nimalarni o'z ichiga olishini anglab yetishida ijtimoiy hamjihatlikning oliv shakli va zinapoyasi davlatning roli shubhasiz. Uning bunyodkorlik salohiyati, qudrati Sharqda ham va G'arbdan ham hech qachon shubha ostiga olinmagan.

Insoniyat tarixida bir-birini kamsitish, birining ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishi kolonial siyosat darajasiga ko'tarilgan davrda yashagan hind faylasufi Krishnamoxan Banerdji shunday deb yozib qoldirgan: “Ma'rifiy yashash, unga rioya qilish amaliyot o'laroq Osiyoning qadimiy shonli ibtidosidan boshlangan. Aynan o'sha zamonlarda jamiyatni boshqarishga oid dastlabki qonunlarning hayotga tatbiq qilinishi va eng muhimi yovuz kuchlarga nisbatan insonning o'z buyukligi, qudratini isbotlash imkoniyati, muhit shakllandii”⁵², – degan muhim bir xulosaga kelgan olim. Bu yerda biz uchun muhim jihat Sharqning G'arbdan qandaydir ustunligini, yozuv, ta'lim-tarbiya masalalari birinchi bor aynan Sharqda paydo bo'lganligini ko'z-ko'z qilish emas. Aksincha, qanday buyuk transformatsiya (siyosiy, iqtisodiy, sotsiomadaniy, ilmiy va boshqalar) insoniyat tarixida ro'y berish asnolarida ular avlodlar mulkiga (muzeylar, arxivlar, osori-atiqalar) aylantirilgan bo'lsa, unda davlatning, ma'rifatli saltanat hukmdorlarining o'rni borligini ta'kidlash biz uchun muhim.

Insoniyatning erkinlik, hurfikrlikning yuqori pillapoyalarini zabit etganligining bosh sababi, xususan, davlatning mohiyatini, ezgu maqsadini

⁵¹ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества Т. 6. – 1966. – С. 16.

⁵² Скороходова Т.Г. Проблема «Восток-Запад» в социальной мысли Бенгальского Возрождения // Вопросы философии. – 2017. – №12. – С. 149.

tushunib etganligida deb bilamiz. Uning ilmiy talqinini jumladan Immanuel Kant bisotida ko‘ramiz. O‘zining mashhur “Umumiylar tarix g‘oyasi, jahonshumul fuqarolik jamiyatni loyihasi” nomli asarida quyidagilarni yozib qoldiradi: “Tabiat hukmi bois inson yechimini topishga majbur bo‘lgan eng zalvorli muammo – umumjahon huquqiy fuqarolik jamiyatiga erishishdir. Faqat a’zolariga keng erkinlik berilgan jamiyatda ularning erkinligi boshqalar erkinligi orqali amal qilishi mumkin. Erkin bo‘lgan hamohang jamiyatdagina tabiatning pirovard maqsadi – tabiat tufayli insoniyatga berilgan barcha salohiyat va kuch-quvvat amalga oshadi. Shundagina tabiat tomonidan in’om qilingan barcha imkoniyatlar o‘zini namoyon eta oladi. Yuksak darajadagi erkinlik bilan majburiylik uyg‘unlashgan jamiyatda, ya’nikim to‘la-to‘kis adolatga asoslangan fuqaroviylar munosabatlari ko‘lamida tabiatning insonga qaratilgan pirovard oliy maqsadi ro‘yobga chiqishi mumkin. Zero, ana shu maqsadga erishish, uni amalga oshirish orqali tabiatning insonga ato etayotgan ezgu niyatlarini amalga oshadi”⁵³, – degan ekan buyuk faylasuf.

Shuningdek, jamiyat a’zolari manfaati, orzu umidi, maqsadini jamul-jam qilish, shu orqali davlatning “ajdodlar-avlodlar” tizimi parchalanmasligi, abadiyligini asrashi uchun ichki omillar/resurslar bilan bir qatorda qulay tashqi vaziyat bo‘lmog‘i lozim. Hozirgi kun terminologiyasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, vaziyat shundayki, davlat o‘z fuqarolari oldida zimmasiga olgan burchi hamda vazifasini ado etishi uchun jahonda haqqoniylar demokratik jarayon chuqur ildiz otishi zarur bo‘ladi. Tabiatan ijtimoiy sheriklikka, mafkuraviy konsensusga muttasil intilgan va undan manfaatdorlik hissi bilan sug‘orilgan davlatda har bir jamiyat a’zosi o‘z ichki salohiyatini yuzaga chiqara oladi.

Bu yerda ideal holatni hisobga olish bilan birgalikda davlat va jamiyat a’zolari, fuqarolar o‘rtasida qaror topgan o‘zaro ishonch sharoitida majburiylik omilini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ijtimoiy muloqotda birlashib umumjamiyat rejalarini amalga oshirishda majburiylik qandaydir tashqaridan tigishtirilgan sun’iy omil emas, balki u inson mohiyati, qalbi-shuurida ob’yektiv mavjud turli xillik, manfaatlar o‘rtasidagi tabiiy notejislik, inson ongi va

⁵³ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – 1966. – С. 16-17.

tafakkurida ba’zida o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishlar bilan bog‘liq motivatsiyaga borib taqaladi. Zero, sotsium mohiyatan shunday va shu zaylda o‘zini har doim namoyon etib kelgan. Aynan shunday holatlarda “majburlash” omili ishga tushadi. Bunday imtiyoz va huquqni davlat o‘zida saqlab turadi va u umumiy insonparvar mezonlar doirasida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, qadim-qadimlardan buyon insonga xos bir jihat mavjud. Huquqi va mas’uliyatini uyg‘unlashtirishda ularni bir-biridan yoki ajrata olmasligi yoki ulardagi o‘zaro turli-tumanlikni anglab yetmasligi bois, odamzot o‘ziga o‘zi muammo orttiradi. Buyuk ilm sohiblarining ta’limotlarida muammo shu darajada talqin qilingan. Ammo nima bo‘lganda ham bir immanent jihat bor. So‘z jamiyat a’zolari kollektiv xohish-irodaning kuch-qudrati timsoli, ya’ni o‘zlari yaratgan benazir vosita – davlatga bo‘lgan munosabatda yakdillik zarurligi xususida bormoqda. Ayrim hollarda bu qoidaga rioya qilinmasligini kuzatamizki, bu esa, birinchi navbatda, ayrim insonlar tafakkuridagi fuqarolik – bu huquqiy kategoriya, aksincha mas’uliyat emas, degan nojoiz fikr-o‘y mavjudligi bilan bog‘liq. Ammo bunday yo‘ldan chetlashish shubhasiz “inson-jamiyat-davlat-koinot” tizimida jarlik paydo bo‘lish ehtimolini yaqqol oshiradi.

Bandni yakunlar ekanmiz, davlat, uning mislsiz imkoniyatlari, salohiyati, kerak bo‘lsa insonparvarligidan aql-zakovat, donolik asosida foydalangan xalqgina uning abadiyligi, barqarorligi, hayotiyligini ta’minalashga qodir. Hayotbaxsh, ichki yakdillikka erishgan fuqarolar bilan ma’nан hamjihat, ularning ikkinchi “Men”i “o‘tmish-bugun-kelajak”ni, ajdodlar bilan avlodlar tadrijiyligini saqlab qolgan davlatni o‘ziga munosib davlat deb baholash mumkin.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Inson zoti uchun immanent sotsiogenetik invariant bo‘lgan ijtimoiylikka moyillik, davlatga bo‘lgan munosabatda yaqqol ustuvorligi, demakki, insonning/individning azaliy siyosiyligi, bugungi bosqichda xalqlar, davlatlarning hamjihat bo‘lmasdan ayro tarzda barqarorlikka erishishi mumkin emasligi, jamoaviylik, siyosiylikning shakli va manbayi sifatida davlatchilik va davlatni

taqozo etdi. Demak, davlatning mavjudligi qanchalik aksioma bo‘lsa, uning sarchashmasi ijtimoiylik ham shu qadar aksiomadir.

2. Individ, jamiyat tomonidan ushbu zarurat anglanib ulgursa uni jahon taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ulkan inqilobiy transformatsiya deyishga asos yetarli. Taxminimizcha bunday keng ko‘lamli ijtimoiy sakrash u yoki bu interval bilan dunyoning aksariyat o‘lkalarida sinxron tarzda ro‘y bersa ajab emas. Holbuki, “ilojdan (imkoniyatdan) ilojsizlik (imkonsizlik) sari” degan azm-u qarorga kelish, jonzotlar orasida faqat insonga, insoniyatga nasib qilgan hodisa. “Imkoniyat – ilojsizlik” birikmasining asl ma’nosи ular aslida bir hodisa, imkoniyat va imkonsizlik biri birini keltirib chiqaradigan jihatlar, imkonsizlik mavjud bo‘lmasa “imkoniyat”ga ham hojat yo‘qligini, imkonsizlikdan, boshi berklikdan imkoniyat yaratish ana o‘sha individlar bag‘rida bitmas-tuganmas sotsiallik mavjudligini isbotladi.

3. Davlat, uning mislsiz imkoniyatlari va salohiyati, insonparvarligi, aqlzakovat mohiyati – tabiatidan foydalangan xalqgina uning abadiyligi, barqarorligi, hayotiyligini ta’minlashga qodir. Hayotbaxsh, ichki yakdillikka erishgan fuqarolar bilan ma’nан hamjihat, ularning ikkinchi “Men”iga aylangan, “o‘tmish-bugun-kelajak”ni, ajdodlar bilan avlodlar tadrijiyligini saqlab qolgan davlatni o‘ziga munosib davlat deb baholash mumkin.

II BOB. DAVLATNING IJTIMOIY-SIYOSIY TARTIBOT KAFOLATI

EKANLIGI

“Ijtimoiylik”ning asosiy sharti insonga uning qadri, sha’ni va erkini asrab-avaylab munosabatda bo‘lishdir. Bu, o‘z navbatida, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari amalda to‘la ta’minlanishi va bu kafolatlanganligi bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy davlatning mohiyati uning oqilona ijtimoiy siyosatni amalga oshirishida, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi.

Davlat hech qachon inert ko‘rinishda namoyon bo‘lmaydi, u doimo harakatda bo‘ladi. Bu faol harakat uning yashash tarzi hisoblanadi. Bu bevosita davlatning tabiatini va mohiyatidan kelib chiqadi.

Mazkur bobda davlatchilik asoslari, uning shakllanishga xos ijtimoiy – ma’naviy, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, davlatni ijtimoiy barqarorlik uchun javobgar instrument sifatida qarash, ayniqsa, bugungi murakkab va notinch davrda inson ijtimoiy hayotiga bo‘lgan xatarlar va tahdidlarni aniqlash, davlat ijtimoiy ob’yekt va sub’yekt tarzida barcha ijtimoiy-siyosiy fanlar uchun muhim muammo va tahlil predmetlaridan biri ekanligi, davlatni o‘z “tasarrufidagi” makon doirasida o‘rganishi lozimligi xususida fikrmulohazalar bildirilgan.

2.1-§. Davlat – jamiyat hayoti va faoliyati tashkil etilishining muhim shakli

Ma’lumki, inson o‘zini tanigandan beri munosib hayot kechirish, uni qanday yo‘l, vositalar va nima orqali tartibli ravishda olib borish xususida muttasil bosh qotirib kelgan. Zero, jamiyat hayoti va faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga boshlash masalasi ancha murakkab. Agarki insonning o‘ziga hamma narsa bog‘liq bo‘lganda, aksincha insonning mustaqil, erkin va o‘ziga ma’qul boshqarish imkoniyatlariga turli-tuman ongli/ongsiz to‘sqliar bo‘lmaganida bugungi kunda yuz berayotgan ijtimoiy tangliklar ancha kam sodir etilgan, insoniyatning farovonlik yo‘liga chiqishi oson kechgan bo‘lardi. Gap bugungi kunda faqat uning aksi yuz

berayotganligida ham emas, balki odamzot muammoning o‘ta murakkab, uning yechimi uchun sifat jihatdan mutlaqo boshqa uslublar, yo‘llar va vositalar zarurligini chuqurroq anglab etmaganligiga, ularni izlashga bel bog‘lamaganligiga borib taqaladigan ko‘rinadi.

To‘g‘ri, insoniyat o‘z umrguzaronligi asnolarida bir narsani, u ham bo‘lsa muammoning hal etilishiga yaroqli umumiyligi retsept yo‘qligini anglab etdi. Boz ustiga dunyo xalqlaridan har birining o‘z muammosi mavjudligi, uning intellektual salohiyati darajasiga borib taqaladi. Har bir jamiyat geografik, iqlimiyligi va hududiy konfiguratsiya nuqtayi nazaridan turlicha joylashgan, ularning tarixi, turmush sharoiti ham tabiiyki bir xilda kechmagan. Pirovard natijada ularning olam, inson, qo‘ni-qo‘shni, hayot va faoliyat haqidagi, umuman dunyoning qiyofasi xususidagi tasavvurida ham tabiiyki, har xillik, ba’zida mutlaqo qarama-qarshi yo‘nalishlar shakllandi. Ularning dunyo bilan aynanlashuvi ham boshqa-boshqa shaklda sodir bo‘ldi⁵⁴. Ammo umrguzaronligi qayerda kechmasin, ong va tafakkur yo‘nalishi qanday bo‘lmasin, dunyo ahliga xos umumiyligi konsensus – jamiyatning hayoti va faoliyatini tartibga tushirish faqat va faqat davlat bo‘lib yashash orqali bo‘lishi mumkinligi va uning ob’yektiv zarurat, qonuniyat ekanligi bilan izohlanadi.

Insoniyatning boy ijtimoiy-tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat shakl jihatdan monarxiya, respublika va diktatura; boshqaruv mafkurasiga nisbatan teokratik, avtokratik va demokratik tarzda o‘zini namoyon etishi mumkin. Agar biz qadimgi Xitoyda chuqur ildiz otib bugungacha o‘z ta’sirini yo‘qotmagan meritokratiya (hokimiyatning donishmand va mutlaq axloqiy-estetik yetuk shaxslarga nisbatan taqsimlanishi)⁵⁵ yoki vojdizm (qabilaviy mentalitet asosida boshqaruv) va boshqalarni xususiy holat deb qaraydigan bo‘lsak, davlatchilik shakllarining muxolifsizligini bashariyatga xos umumiylilik sifatida qabul qilishga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqot predmeti nuqtayi nazaridan yuqorida keltirilgan jihat juz’iy holat emas, balki davlat xalq oldida o‘z zimmasidagi tarixiy vazifa yoki mas’uliyatini

⁵⁴ Идентичность, личность, общество, политика. Энциклопедическое издание. – М.: «Весь мир», 2017. – 992 с.

⁵⁵ Федотова В.Г., Федотова Н.Н., Чугров С.В. культура, институты, политика // Полис. – 2018. – №1. – С. 143-156.

anglab yetishi muhim muammo hisoblanadi. Shunday ekan, davlatning salohiyatiga uning shakli yoki mafkurasiga emas, balki jamiyat oldidagi burchini bajarishi/bajarmayotganligiga qarab baho berish ma'qul. Zero, bugungi kunda mafkura yoxud siyosiy-ijtimoiy loyiha ma'nosida insoniyatga o'zini ko'z-ko'z qilayotgan liberal-demokratiyaning “g'arbona” amaliyotidagi tanazzul ko'p muammolarga oydinlik kiritmoqda.

Jamiyat hayoti va faoliyatini tartibga tushirishda, jamiyatning aksilinsoniy kuchlar zarbasi ostida butkul parchalanib ketishi xavfining oldini olishda birdan bir real kuch davlat ekanligi haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor, uni jamiyat individlarning stixiyali birlashmalari (turli kasbiy, qabilaviy etnik guruhlar va b.)dan farqli o'laroq, aniq maqsadi va shu maqsad atrofida aholini jipslashtiruvchi g'oyasi, jamiyat a'zolari rioya qilishi lozim bo'lgan huquqiy, axloqiy prinsiplari va nihoyat, ruhan-ma'naviy birlashtiruvchi tarixiy-ijtimoiy qadriyatlar majmuasiga ega aniq maqsad/manzil sari intiluvchi individlarning mukammal yig'masi deyish mumkin. Yaxlit, ko'pqirrali bir majmua (konglomerat) sifatida, davlatdan farqli o'laroq, jamiyat umumjamoaviylikka daxldor boshqa sub'yektlar bilan funksional bog'liqlikda va ularning ta'siri doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ular bilan muttasil muloqot, ayriboshlash, o'zaro uyg'unlikda bo'lishga mahkum. Shuningdek, jamiyat kichik, o'rtamiyona va keng ko'lamlimi, undan mustasno holda, “o'ziga yetarli” darajada o'zini-o'zi davlatsiz boshqarishga qodir emas. Boz ustiga u boshqa ijtimoiy guruhlar singari tabiatan boshqaruvga muhtoj. Mutaxassislar fikriga ko'ra, jamiyat hayot kechirishi va o'z maqsadiga erishishi uchun begumon boshqa ijtimoiy segmentlar bilan bog'liqlik/tobelikda bo'lishiga to'g'ri keladi⁵⁶. Ammo bu reallikning jamiyat buyuk ijodiy potensialga egaligiga, ulkan kuchiga daxli yo'q.

Shu munosabat bilan davlatning jamiyatga xos ijtimoiy munosabatlar, o'zining tasarrufidagi unsurlar, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va qayta yaratish bilan bog'liq rang-barang yumushlar, ijtimoiy hayot va faoliyat (ijtimoiy-

⁵⁶ Момжян К.Х. Гипотеза общественного прогресса в современной социальной теории // Вопросы философии. – 2016. – №10. – С. 39.

iqtisodiy, tashkiliy-institutsional hamda madaniy) turlari o‘rtasida bog‘liqlik uchun maksimal shart-sharoit yaratish zaruratini anglashning o‘zi jamiyat oldidagi vazifalar nechog‘lik murakkab, ko‘p qirrali ekanligiga e’tiborni qaratadi. Binobarin, davlat jamiyat hayot va faoliyatini shunchaki tartibga solishdan tashqari, uning sohalari orasida zarus sinxroniya/garmoniyani ta’minlashga ham javobgar.

Jamiyatda hamma soha bir tekis, bir xil natija berib borishi mushkul. Buni bartaraf qilish jamiyat emas, davlatning, jamiyat va boshqaruv organlarining bevosita mas’uliyati, vazifasiga kiradi. Chunki jamiyat tarmoqlaridan birortasida, boringki iqtisodda inqiroz holati yuz bersa, uning salbiy ta’siri siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda shu zahoti o‘zini ko‘rsatadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, bunday vaziyatda hatto “ijtimoiy taraqqiyot” degan tushuncha o‘z kuchini yo‘qotadi, bir-birini to‘ldiruvchi, boyituvchi va yaratuvchi o‘zaro ichki bog‘liqlikka sezilarli salbiy ta’sirga sababchi bo‘ladi⁵⁷.

Darhaqiqat, qadimgi vaqtarda ham ulug‘ kishilar, saltanat sohiblari fuqarolar hayot sharoitini munosib bir holatda ushlab turishda “hukmdor-hokimiyat-fuqaro-xalq” shaklidagi o‘zaro yaxlit tizimga, oliy maqsad yo‘lida bir-birini tushunishga jiddiy e’tibor qaratishgan. E’tiborli joyi shundaki, ular bu ulkan tizimda “davlat hokimiyati” omiliga alohida o‘rin ajratishgan. Ijtimoiy xaos hech qachon samara keltirmaganligi bois, jamiyat faqat ma’lum tartibot asosida shakllanishi nazarda tutilishi zarus ediki, buni dunyoda o‘zini-o‘zi aynanlashtira olgan barcha xalqlar tarixida kuzatishimiz mumkin.

Buyuk ajdodlarimiz Beruniy, Forobiy, Navoiy, Amir Temurning ijtimoiy fikr olamiga murojaat qilsak, u yerda hamma yumushlar amalga oshirilishi eng avvalo jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv (konsensus) bilan bog‘laganligi ayon bo‘ladi. Uning umumiyl tendensiya ekanligini uzoq va yaqin xalqlar, davlatlar dunyoqarashidan joy olgan misollar orqali tasdiqlash mumkin. Jumladan, xitoy xalqi ijtimoiy tafakkuri gultoji – miloddan avvalgi va milodiy asr kesishuvida yaratilgan “Dastlabki bo‘g‘inni qo‘ldan chiqarmaslik” degan traktatda

⁵⁷ Пятигорский А. Непрекращающийся разговор. – Санкт-Петербург: “Питер”, 2004. – С. 53.

“hamjihat bo‘lib yo‘lni bosib o‘tish osmon gumbazi ostidagi barcha insonlar uchun o‘ta zarur. Shun (qadimiy Xitoyning afsonaviy hukmdorlaridan biri) o‘z suhbatdoshini savolga tutish va uning zaif fikrlarini tahlil qilishni juda xush ko‘rar edi. Shu bilan u uning o‘z og‘zidan afzal tomonlari bilan birga nojoiz tomonlarini ham bilib olar edi. Ammo suhbat davomida Shun har ikki tomonni qo‘ldan chiqarmasdan, fuqarolar bilan muloqotida mudom Boshlang‘ich nuqta, dastlabki bo‘g‘indan ko‘zini uzmagan”⁵⁸, – degan bir bitik mavjud. Buni keltirishimizdan muddao – mohiyatan tarqoq, turli-tuman yo‘nalishlarni qamrab olgan, jamiyat garchi o‘ziga xos ijtimoiy institut bo‘lsa-da, davlat hokimiyati ta’siri, ko‘magi va qolaversa aralashuviga muhtoj ekanligini oydinlashtirish.

So‘z yuritilayotgan muammoga oid tafakkur durdonalari islom olamida ijod qilib, avlodlarga tuhfa qoldirib ketishgan mutafakkirlar bisotida ham mavjud. Misol uchun, Bag‘dod xalifaligi gullab-yashnagan davr – X-XI asrlar oralig‘ida yashab barakali ijod qilgan Abul-Hasan al Movardiy jamiyat a’zolari, fuqarolar oldida davlatning mas’uliyatiga oid quyidagi mulohazani zamondoshlar e’tiboriga havola etgan. “Payg‘ambar vasiyatlarini, dunyoviy yumushlarni mulozimat oldida bajarish va bajarish xususan imomga, ya’ni davlat boshlig‘iga yuklatilgan. Biroq ba’zi kishilar bu yumushning bajarilishini jamoa o‘z orasidan aqli raso bir kishini tanlab, uning zimmasiga yuklash zarur, deb hisoblashsa-da, u nima uchun zarurligi borasida umumiyl fikr yo‘q. Bunday yo‘l tutmaslik esa ham aqldan va ham Alloh irodasidir. Aqldan deb hisoblovchilar, aqli raso odamlar, bu masalada hukmdorga bo‘ysunish zarur. Zero, hukmdor odamlarga bir-biriga nisbatan nohaqlik qilishining oldini oladi, anglashilmovchilik, ziddiyat va dushmanlik junbushga kelgan asnoda esa hukmdor ularga nisbatan sobitqadamlik va qat’iyatni namoyish etadi. Mabodo hukmdor bo‘lmasa, odamlar o‘rtasida bosh-boshdoqchilik, sarosima va isrofgarchilik abadiy hukm surgan bo‘lar edi”⁵⁹, – deb so‘zini yakunlaydi alloma.

⁵⁸ Удержаніе Изначального / Перевод И.Канаева // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 131.

⁵⁹ Абул-Хасан ал Моварди. Законы власти и религиозное правления / Перевод Т.Туманяна // Вопросы философии. – 2018. – №5. – С. 179.

Garchand bir-biridan geografik yiroq o‘lkalarda, shuningdek zamon (davr) nuqtayi nazaridan ham katta oraliq mavjud paytlarda aytilgan yuqoridagi ikki fikr jamiyat va davlat munosabati muammosi tarixning ibtidosidan to bugunga qadar ajdodlar va avlodlar e’tiboridan markaziy o‘rin olganligidan guvohlik berib turibdi.

Darhaqiqat, “davlat” tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud va bu ob’yektiv holat. Uning asosiy sababi ibtidosidan to bugunigacha fenomen yoki jarayon sifatida inson hayot faoliyatining barcha sohalariga daxldorlik, ulardan hech qachon yiroqlashmaslik zaruratiga borib taqaladi. Bu murakkab holat, jarayon, tabiiyki, davlatning jamiyat bilan bog‘liqligiga, o‘zaro kesishmaydigan fikrlarga ham sababchi bo‘ladi va u tabiiy. Unga oydinlik kiritish maqsadida ijtimoiy hayotda umuman davlatning vazifasi bilan bog‘liq bir jihatga e’tibor qarataylik. Masala bir tomondan – davlatning jamiyatni tartibga keltirishning siyosiy shakli, sotsiumning yashash, o‘z-o‘zini asrab qolish uchun zarur omil ekanligi, boshqa tomondan esa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud-huquq organlaridan iborat alohida institutsional shakl ekanligiga borib taqaladi. Shuningdek, davlat fuqaro xavfsizligi, farovonligi va jamiyat yaxlitligi va barqarorligiga mas’ul hamda siyosiy suverenitet bilan bog‘liqligi ham bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Ammo tadqiqot maqsad-vazifasi yuzasidan ulardan biz uchun muhim masala: davlatning jamiyat hayot faoliyatini muttasil tarkiblashtirish, ya’ni jamiyat a’zolari intellektual hamda moddiy salohiyatini bir joyda yig‘ish kuchiga egaligi hamda millat borlig‘ining birdan-bir yaxlit ko‘rinishi va uslubi ekanligini ilmiy isbotlash.

Darhaqiqat, har bir milliy davlatning rivoji va ravnaqida aynan xalq (fuqarolar) beqiyos rol o‘ynagan, uning maqsad-muddaolari davlatni har doim sergaklikka majbur qilgan. Shu boisdan ham xalqlar haqli ravishda davlatni yaratuvchi, hayoti va faoliyatida birdan-bir hal qiluvchi kuch va tayanch deb bilishgan. Shunday ekan, jamiyat, xalq tufayli davlat bor – aks holda u yo‘q. Shundan chiqib jamiyatga baho beradigan bo‘lsak, ijtimoiy-gumanitar fonda e’tirof etilgan “davlat yaratuvchi jamiyat”⁶⁰ tushunchasining nechog‘lik reallik ekanligiga

⁶⁰ Галиев Ф.Х. Комаров С.А. Общество и государство: современные точки соприкосновения // Государство и право. – 2018. – №12. – С. 172.

ishonch hosil qilamiz. Shu asnoda buyuk faylasuf, sotsiolog Russoning “agarki davlatning muddaosi umumiylar farovonlik keltirish bo‘lar ekan, uning ildizini xalqning, jamiyatning umumiylar xohish-irodasidan axtarish lozim”⁶¹, – degan xulosasi xotirada jonlanadi. Demak, bu muammo, ya’ni “davlat-jamiyat” muammosi faqat bugun emas, balki tarixning barcha bosqichlari va barcha mamlakatlarda bo‘lganligidan darak beradi. Qolaversa, u tabiiy xususiyat tarzida odamzot uchun juda qadim zamonlardan “jismining bir qismi”ga aylangan. Davlat hamda jamiyat o‘rtasida uzviy bog‘liqlik, davlatning tartibga solish funksiyasini va ularning konstitutsion asosda jamiyat tomonidan tan olinishi xususida so‘z yuritar ekanmiz, xususan davlat uchun uning ancha murakkab jarayon ekanligini nazarda tutish lozim. Va uning sabablari talaygina.

Gap shundaki, davlat ham, jamiyat ham tarixiylik, ya’ni bir fazadan ikkinchi bir yangi fazaga o‘tib⁶², muttasil yangilanish, yangicha yashashga yo‘g‘rilish xususiyatiga ega. Bunday asnolarda an’anaviy asqotib kelgan tajribalardan yaroqsizlaridan voz kechib, yaroqlilarini esa yangi zamon talabiga moslashtirish, ayrim ko‘nikmalar va ijtimoiy loyihalarni moziyda qoldirish, batamom yangi yondashuv, yangi madaniyat va yangi amaliyotning barcha-barchasini aholi aynan davlatdan talab qiladi. Shunday asnolarda davlat javobgar, mas’ul institut, siyosiy sub’yekt sifatida mutlaqo yangi vaziyat qarshisida noaniqlik, ayrim holatlarda “boshi berk ko‘chada qolish” effektini boshidan kechiradi. Xullas, jamiyat hayot va faoliyatiga bosh-qosh bo‘lish mas’uliyati davlat uchun har kun va har soniya jiddiy sinovga aylanadi.

Tabiiyki, bunday sharoitda barcha uchun bir xil asqotadigan umumiylar qoidalar, uslublar, instrumentlar yo‘q. Birinchi Prezident Islom Karimov bir paytlar, dunyoda nechta xalq, jamiyat bo‘lsa har biri o‘zgacha, bir biriga aynan o‘xshaydigan ikki xalq bo‘lmaydi, deganda shu holatni nazarda tutgan ko‘rinadi. Shunday ekan, har bir xalqning, davlatning o‘z “tarixiy-madaniy kodi”, shundan chiqib olamning manzarasi va siyratini o‘zicha tasavvur etish, tushunish va talqin

⁶¹ Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Трактаты. – М.: “Наука”, 1969. – С. 167.

⁶² Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. Избранное. – М.: “Альма-Матер”, 2015. – С. 403.

qilish uslubi va shakli mavjud. Aynan shunday tarixan dolzarb va ham murakkab asnlarda shu xalq taqdiri uchun bosh mas’ul sub’yekt sifatida, davlat o‘z moddiy resursi, salohiyatini harakatga keltirishi kerak bo‘ladi.

Yaqin tariximizdan eslash joiz bo‘lsa, endigma oyoqqa turib, hal qiluvchi asnlarda voyaga etayotgan zamonaviy o‘zbek davlati, jamiyatni tartibga tushirish, uning turli-tuman jabhalarini bir-biriga yaqinlashtirish muammosiga duch keldi. O‘sha murakkab davrga baho berar ekan, Birinchi Prezident, – “Hech kimga sir emas, biz hozir tarixiy taqdirimizning eng murakkab va eng muhim davrini boshdan kechirmoqdamiz. Butun dunyo tan olgan mustaqilligimiz tufayli asrlar osha davom etgan dahshatli tanazzul va mustamlaka balolaridan xalos bo‘lmoqdamiz...”⁶³, – deganda ham edi. Xullas, O‘zbekiston misolida, mustaqillikni endigma qo‘lga kiritgan, misli ko‘rilmagan boshqa tarixiy bosqichga o‘tgan barcha davlatlarda mohiyatan bir xil – jamiyatning o‘tish asnolarida ulkan ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarga duch kelishi qonuniyat ekanligi ayon bo‘ldiki, u o‘z navbatida davlatdan nostandart echimlarni talab qildi.

Jamiyat murakkab va ko‘p jabhali tizim: iqtisod, siyosat, sotsial va madaniy sohalardan iborat. Ularning motivatsiyasi, funksiyasi, yo‘nalishi va tashkiliy yumushlari ham bir xil emas. Ayrim joylarda go‘yoki ularni bir maxrajga keltirish, oliy maqsad – inson farovonligiga – yo‘naltirishning deyarli iloji yo‘qdek tuyulgan edi. Biroq inson mavjudligi va istiqboli nuqtayi nazaridan shunday muammolar borki, ularning yechimini topish kechiktirib bo‘lmas talabdir.

Ulardan biri – jamiyatning turli sohalari o‘rtasida muttasil uyg‘unlikka erishish. Bu o‘z navbatida ijtimoiy muloqot va o‘zaro munosabatlar maromi, manfaatlar tizimida umumiy birlashtiruvchi nuqtaning paydo bo‘lishiga olib keladi. Va bu shunday umumiyligliki, uning atrofida barcha manfaatlar o‘zaro yaqinlashishga mahkum. Mabodo bunday bo‘lmasa alohida manfaatlar ham, ijtimoiy munosabatlar ham va kerak bo‘lsa, jamiyat ham barham topadi⁶⁴, – deb yozadi J.J.Russo.

⁶³ Каримов И.А. Ўрта Осиё ва Қозогистон мусулмонлари қурултойи қатнашчиларига табрикнома // Асарлар, 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.

⁶⁴ Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Трактаты. – М.: “Наука”, 1969. – С. 409.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan asosiy xulosa shuki, davlat hokimiyati ushbu murakkab jabhada faoliyat yuritar ekan, guruhiy manfaatlar, intilishlarning mustaqilligini ham e’tirof etadi va ham ularning ro‘yobga chiqishiga shart-sharoit yaratishga majbur. Shuning bilan bir qatorda, davlat ko‘p qirrali guruhiy manfaatlar tizimlari orasidan aholining umumiy farovonligiga asqotishi mumkin bo‘lgan fundamental qatlamni ajratib, uni milliy strategiyaning asosiy yo‘nalishiga aylantiradi. Ijtimoiy guruhlar uchun xususiy, umumdavlat manfaatlaridan qaysi jihatlariga ko‘ra farq qiluvchi jihatlarga bosh-qosh va rahnamo davlat, guruhiy manfaatlarning umumilliylar manfaatlarga me’yordan oshiq zid kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aks holda bunday holat fuqarolik jamiyati bilan umummilliylar manfaatlar orasida sezilarli jarlik paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratish ehtimolini oshiradi. Bu davlatchilikning imijiga, davlatning siyosiy maqomiga ulkan zarar keltirishi turgan gap.

Eng noxush jihat shundaki, mamlakatda ijtimoiy tabaqlanish, o‘ta boyib ketgan shaxslar davlatning jamiyat a’zolari kuchi va salohiyatini birlashtirish qobiliyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Jamiyat a’zolari – fuqarolar hamda davlat organlari o‘rtasida ishonchszlik kayfiyati avj olish xavfi oshadi. Bunday murakablikka duchor bo‘lgan xalqlar, davlatlar avval ham bo‘lgan va bugun ham taqchil emas. Bu holat ba’zi bir ilmiy adabiyotlarda “davlat obstruksiysi”⁶⁵, obro‘sizlanishi deb tavsiflangan.

Ma’lumki, jamiyat hayoti va faoliyatini bir maromga tushirishda millatlararo munosabatlarga alohida e’tibor davlat siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Zero, dunyoning hech bir burchagi/hududida bir millatdan iborat jamiyat yo‘q va u ayniqsa globallashuv davrida faqat chuqur ildiz otib boraveradi. Gap shundaki, millat omili reallik hamda g‘oya sifatida jamiyatning muhim segmentlaridan bo‘lib, jamiyatning buguni va istiqboli qay tarzda kechadi, asosan ustuvor darajada uning kayfiyati, jamiyat, davlat bilan o‘rtasidagi aynanlik darajasini aniq his etishiga bog‘liq. Shu boisdan, jamiyatning botiniy va zohiriylarimiz imkoniyatlari,

⁶⁵ Гумилев А.Н. Древняя Русь и Великая степь. – М., 1994. – С. 576-577.

birinchidan, millat salohiyati davlatga javobgar mas’ul shaxslar tomonidan muammoni his etishi bilan birga, uning kuchi va obro‘-e’tiboriga borib taqaladi.

Shulardan biri – jamiyat faoliyati maromini ushlab turishda millatlararo munosabatlarga borib taqalishi muammosi. Unga munosabat barcha davlatlarda turli-tumanligi bois uning yechimi noyoblik kasb etadi. Demak, jamiyat kayfiyati va kundalik faoliyatiga ta’siri nuqtayi nazaridan millatlararo muloqotni zarur darajada ta’minlash siyosati oldingi chiziqqa chiqishi tabiiy. Ushbu siyosiy jarayonning ildizi, birlamchi qatlamlari millat an’analari, urf-odati va mentaliteti bilan chirmashib ketganligi qo’shimcha muammolarga sababchi bo‘ladi.

O‘zbekistonimizda ham har xil etnos vakillari aynan shu qoidadan chiqqan holda muloqotni yo‘lga qo‘yishi lozimligini ta’kidlar ekanmiz, insoniyat tarixining bugungi bosqichida o‘zini ijobiy ma’noda yaqqol namoyish qilayotgan Xitoy politologi Szin Sanjunning fikriga e’tibor qaratsak. “Xalqaro hamjamiyat, xususan G‘arb dunyosi Xitoy bilan tanishish asnolarida ko‘p tushunmovchiliklarga uchraydi. Sovuq urush tugaganidan beri iqtisodiy tanglik davriga qadar G‘arb dunyosi har doim Xitoy haqida noto‘g‘ri fikrda bo‘lib kelgan... Ular kamdan-kam hollarda mamlakatlarning farqlari va o‘ziga xos milliy xususiyatlari xususida bosh qotirishadi”⁶⁶, – deb haq so‘zni aytgan.

O‘zbekistonga nisbatan ommaviy ong darajasidagi xuddi shunday fikrlar, “do‘stona maslahatlar”ni mustaqillik davrida ko‘p eshitdik va eshitayapmiz. To‘g‘ri, tub millat hayotida funksional transformatsiya sodir bo‘lgan paytda o‘zga etnoslarga mansub yurtdoshlarimiz ongi, qalbida qandaydir ikkinchi darajali fikr-o‘ylar yuzaga qalqib chiqib, o‘z navbatida, bu ularning xatti-harakatiga u yoki bu tarzda ta’sirini o‘tkazadi. Shu bois, Birinchi Prezident o‘zining bir chiqishida: “Tabiiyki, bu hayajonli vaqtarda quvonch bilan birga “O‘zbeklar o‘z yeri, o‘z erkiga egalik qilsa, bizning farzandlarimiz taqdiri qanday kechadi?”, degan shuhbalar ham bor edi”⁶⁷, – deb bejiz ta’kidlamagan. Zero, uni xohlaydigan kuchlar o‘sha paytda ham bo‘lgan va bugun ham bor.

⁶⁶ Цзинь Цанжун. Буюк давлат масъулияти: Хитой истиқболи. – Тошкент: Академнашр, 2017. – Б. 256.

⁶⁷ Ўзбекистон мустақиллиги – миллатлараро муносабатларда янги давр // Ўзбекистон – умумий уйимиз. Узбекистан наш общий дом. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 71.

Ammo katta siyosiy tajribaga ega bo‘lmagan, endigina oyoqqa turib olgan o‘zbek davlati bu masalada ham milliy davlatdek muqaddas g‘oya va nomga munosib ekanligini, zimmadagi eng muqaddas vazifa millati, dini, kasbi-kori, jamiyat hayoti va faoliyatiga qo‘shayotgan ulushidan qat’iy nazar ko‘pmillatli, ko‘pkonfessiyali va hatto ko‘pirqli O‘zbekistonning farovonligi, ozod va obodligi, ravnaqiga hamnafas va bosh tashkilotchilagini dunyoga baralla ochiq-oydin ayta oldi. Shukurki, zamonaviy o‘zbek davlati ajdodlar nidosi, zamondoshlar muddaosi, avlodlar mo‘ljali, xalqaro maydonda esa, yurt taqdiri uchun birdan-bir javobgar ekanligini namoyish eta oldi.

J.-P.Sartr so‘zi bilan ifodalaganda, navqiron o‘zbek davlati bu masalada ham o‘zini ko‘z-ko‘z qilmasdan, kezi kelganda transsidental, ammo ulkan kuch-qudrat, salohiyat sarchashmasi⁶⁸ sifatida, o‘z xalqi oldida vazifasini to‘la-to‘kis bajardi va bajarib kelmoqda. Umumiy ulkan vazifa uchun davlat mas’ul institut sifatida doimo jamiyat manfaatlariga tegishli yumushlardan eng muhimini o‘z zimmasiga yukladi. Jumladan, jamiyat xavfsizligi, madaniy hamda milliy aynanligini muhofaza qilish. Ko‘rinib turganidek, so‘z davlatning funksiyasi bilan bog‘liq turli-tuman yumushlar orasida eng ustuvorlari haqida bormoqda. Zero, davlatning mohiyati hamma joylarda eng avvalo, uning tabiatni, ya’ni uning barqarorligi, hayotbaxshligi bilan belgilanadi”⁶⁹.

Globallashuv va hatto davlatlararo, insonlararo munosabatlar yangi davrga o‘tgan pallada (eski boshqaruv strukturasi, modellari hozircha saqlanib turibdi) davlat oldida o‘z-o‘zini yo‘naltirib borish, fuqarolar moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga qodirligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilish vazifasi borgan sari murakkablashib bormoqda⁷⁰. Va bu holat qandaydir to‘satdan yuzaga kelmadi va qolaversa u davlatning mohiyati, burchi va mas’uliyati bilan bog‘liq. Zero, insoniyat o‘z faoliyati doirasida ko‘plab yangi ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarning vujudga kelishiga o‘zi sababchi bo‘lar ekanki, bu ob’yektiv jarayon.

⁶⁸ Сартр Жан-Поль. Марксизм и экзистенциализм // Вест. Моск. Ун-та. Философия. – 1990. – Серия 7. – С. 55-56.

⁶⁹ Кутовой Д.А. Сущность государства информационного общества: Дихотомия власти отношений // История государства и права. – 2019. – №4. – С. 78.

⁷⁰ Кутовой Д.А. Кўрсатилган манба. – С. 80.

Bunday sharoitda davlat oldida, jumladan jamiyat bir butunligi, madaniy hamda milliy aynanlikni asrashdek murakkab vazifalar ko‘ndalang bo‘lib qoladi. Nainki, milliy-madaniy aynanlikka putur yetsa, axborotlashtirish va globallashuv amriga ko‘r-ko‘rona itoat qilsa jamiyat, xalq tabiiy, unga jisman yo‘g‘rilgan aynanligidan chetga chiqsa, jamiyat ham va davlat ham barbod bo‘ladi. Bu yerda, tabiiyki, birligina davlat emas, eng avvalo shu davlatni yaratgan xalq, millatning o‘zi ham javobgar. Bu bosh javobgar davlat ekanligini inkor etmaydi, balki tasdiqlaydi. Barcha zamonlar va hududlarda azaldan shunday bo‘lgan, inson uni shunday qabul qilib kelgan.

Davlat va jamiyat hayoti, faoliyat maromi, uning ichki tamoyillari xususida gap borar ekan, garchand boshqa ijtimoiy jarayonga nisbatan aytilgan bo‘lsa hamki, Qadimgi Sharq buyuk allomalaridan biri Men Szining “avvalo xalq – keyin davlat”⁷¹, – degan fikri va hozirgi zamon olimlaridan R.Karnap tomonidan “Mabodo biror bir jarayon yoxud hodisaning har doim va hamma joyda qaytarilishi kuzatilsa, u pirovardida universallik, doimiylilik kasb etadi”⁷², degan mutlaqo ikki sharoit va turli zamonlarga nisbatan aytilgan xulosalarda qandaydir dialektik bog‘liqlikni yaqqol kuzatish mumkin. Ayni paytda biz uchun ularning qaysidir semantik turdoshligi emas, balki ulardagi voqeа-hodisalar (avval xalq – keyin davlat) ritmi dunyoning barcha mintaqalarida shunday shakl kasb etishini anglatishi muhim. Demak, avval inson, uning davlat maqomiga ega bo‘lganligi, davlat va xalq o‘zaro biri birini taqozo etishi bir paytda bo‘lib keyin yo‘q bo‘ladigan fenomen emasligi asli haqiqat ekan. Aynan bugungi kunda davlatlar uchun o‘zini asrash barobarida xalqni, jamiyatni tarkiblashtirib, tashkillashtirib borish burchi abadiy mavjud voqelikning davlat tomonidan doimo his etilishi o‘ziga xos ijtimoiy zarurat ekan.

Yuzaki qaraganda, davlat va jamiyatga xos bo‘lgan madaniy va milliy aynanlik omili o‘rtasida unchalik ham uyg‘unlik yo‘qdek ko‘rinadi. Davlat – ijtimoiy-siyosiy institut shaklida ustuvor darajada siyosat makoni bo‘lsa, jamiyatning o‘zini o‘zi anglashi, aynanlikka intilishi esa ijtimoiy-madaniy va

⁷¹ Чинь У. Философские идеи. – Пекин-Шанхай, 2009. – С. 114.

⁷² Карнап Р. Философские основания физики // Введение в философию науки. – М., 1971. – С. 39.

o‘zini idrok etish unsuri muammosi. Biroq global miqyosda har ikkalasi katta siyosat muammosiga aylanadi. So‘z shu xususdaki, mabodo jamiyatda aynanlik shakllanmagan bo‘lsa yoki turli ichki hamda tashqi ta’sirlar tufayli o‘sha xalqda tanazzul, emirilish boshlansa, unday paytda xalq buning sababini davlat bilan bog‘lashiga to‘g‘ri keladi. Holbuki, o‘z aynanligiga erishgan jamiyatgina davlat bilan aynanlikka erishadi.

Aynanlashish yoki aynanlikning chuqur ichki qatlamlarida jamiyat rivoji, bardavomligi uchun zarur qonun-qoidalar, xatti-harakat me’yorlariga doir axloqiy va xulqiy asoslar, bir so‘z bilan asrlar va hatto ming yilliklar mobaynida kristallahgan yo‘l-yo‘riqlar tizimi qaror topadiki, jamiyat ham va davlat ham, garchand yozilmagan bo‘lsa-da, unga rioya qiladigan bo‘ladi. Bordi-yu, unga turli sabablar bois darz ketsa, davlat tomonidan unga nisbatan xotirjamlik boshlansa, unda jamiyat oldidagi mas’uliyati va burchi bajarilmagan, ijtimoiy parokandalik girdobiga tushgan bo‘ladi. Bunday asnolarda davlatdan, siyosiy mas’ul/javobgar shaxslardan mavjud bunyodkor universaliylar va ijtimoiy mo‘ljallarni qayta idrok etish, qadriyatlarni qayta baholash va qolaversa yashash va abadiylikni asrash uchun yangi ufqlar sari borishi⁷³ talab etiladi.

Yuqorida biz davlat va jamiyatning pirovard maqsadlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro ichki bog‘liqlik, muloqot, o‘zaro burchlaridan chiqib fuqarolar faoliyatini yushtirishda davlat oldida turli darajadagi vazifalar, yumushlar mavjudligi va qolaversa konkret payt uchun muhimlarini saralash, ularni hal etish vazifasi voqelik ekanligi haqida so‘z yuritdik. Shu asosda jamiyat barqarorligi va yaxlitligi uchun zarur omillar: a) inson farovonligi yo‘lida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ijtimoiy sektorlari o‘rtasidagi murakkab uyg‘unlik; b) millatlararo, konfessiyalararo munosabatlar uyg‘unligiga erishish zarurligi oydinlashdi. Va nihoyat v) ijtimoiy sub’yekt va ob’yekt sifatida jamiyatning aynanlashish darjasini bilan bog‘liq jihatlarining tahlilidan quyidagi ayrim umumlashmalarga ham kelish mumkin.

⁷³ Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. – М., 2015. – С. 463.

Jamiyat shunchaki nazoratsiz odamlar yig‘masi emas, balki o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiylikka, tabiiyki, hamnafaslikda faoliyat yuritishga, aniq maqsad sari intilishga moyil, shuning barobarida o‘ziga qaraganda yuqoriroq darajadagi tartibotga muhtoj⁷⁴ ijtimoiy hodisa sifatida boshqaruvni taqozo etadigan ijtimoiy birlikdir. Ko‘p strukturali, ularning bir-biri bilan aynan emasligi, turli-tumanligi tufayli jamiyat tartibotga muhtoj. Demakki, turli-tuman ichki va tashqi munosabatlar, kuchlar ta’sirida muttasil dinamika/tarixiylik holatidagi jamiyatni tartibga tushirishga davlat ob’yektiv majbur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarur: bugungi globallashgan dunyoda bir millatli, sodda jamiyat yo‘q. Jamiyat hayotiy faoliyatining yanada yuksakroq pillapoyalarga ko‘tarilishida davlatning millatlararo, konfessiyalararo munosabatlarni jamiyat a’zolari istak va manfaatlari darajasida tartibga solishdagi roli bugungi tahlikali dunyoda yanada oshib bormoqda. Mazkur holat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan chuqur his etilgan, uning ijtimoiy dastur va amaliyotga aylangani sari jamiyat ong va tafakkuri, faoliyatida jamoaviy aynanlik hissi chuqur ildiz otib boraveradi. Xullas, jamiyat hayoti va faoliyati hamda davomiyligi, davlatning moddiy va ma’naviy resurslari-yu, qudrati, siyosiy salohiyati orqali davlat strategiyasiga aylansagina voqelikka yuz tutishi mumkin.

2.2-§. Davlat – jamoaviy kuch va milliy salohiyat ifodasi

Tadqiqotning avvalgi qismlarida davlatning mohiyatiga nisbatan ilm-fan vakillari hamda jamiyat oldida javobgar shaxslar fikrlarining turli-tuman, ayrim paytlarda diametal qarama-qarshiligi va bu holat davlatning faoliyat ko‘lami kengligi hamda murakkabligiga borib taqalishini ta’kidlangan edi. Darhaqiqat, davlat faoliyatining qaysi jabhasini olmaylik, barchasiga oid xulosalar, fikrlar o‘rtasida o‘zaro bahsli holat mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Bunday murakkablik ong va tafakkurda ham mavjudki, bu bir tomondan, davlatning ildizi xalq ekanligi va ikkinchi tomondan esa, aksincha, davlat sun’iy shakllantirilgan va uning xalqqa mutlaqo aloqasi yo‘q, degan inkorga asoslangan xulosa atrofida kechadi. U

⁷⁴ Ризоев Ш.Х. К вопросу о социальной природе власти // Вопросы политологии. – 2018. – №5. Т. 8. – С. 33.

Sharqda ham va G‘arbda ham, qolaversa tarixning barcha bosqichlarida kuzatib keltingan.

Jumladan, xitoylik faylasuf Shjan Binlin (1869-1936) o‘zining “Keraksiz besh unsur xususida” nomli risolasida “Davlat inson taqdiriga mutlaqo daxldor bo‘lmaqan sirli mexanizm va haqiqiy hayotda o‘z o‘rni va mohiyatiga ega emas. Ilonda jun va yilqida shox bo‘lmaqanidek, bu tushuncha, ya’ni davlat ham ma’no va mazmunsiz bir narsa. Uning ichkarisiga kirib borganing sari uning xom hayol va ro‘yobga chiqmasligiga ishonch hosil qilasan. Bu narsa millatga ham tegishli emasmikin?”⁷⁵, – degan savol bilan o‘ziga o‘zi murojaat etadi va unga javob sifatida beshta keraksiz unsurni, ya’ni yo‘qotilishi lozim bo‘lganlari – hukumat, turar joylar, insoniyat, barcha tirik mavjudot va davlat bilan bog‘liq millatni keltirib o‘tadi.

Shubhasiz, olimning fikri ancha g‘aliz. Unda ratsional yondashuvga qaraganda hissiyat ustuvorlik qilishining sababini balki u yashagan mamlakatning siyosiy holati bilan bog‘lasak ma’qul bo‘ladi. Olim nazdida keraksiz va hatto o‘ta zararli hisoblangan (jumladan davlat) unsurlarni bir tomonga qo‘yib, inson va jamiyat uchun organik zarur bo‘lgan omillarga olimning salbiy munosabati zamirida o‘sha paytda mavjud bo‘lgan siyosiy-ruhiy vaziyat, yarim mustamlaka holatidan chuqur noroziligi aks etgan.

Aslida bu darajadagi keskin tafakkur xitoyliklarga hech qachon xos bo‘lmaqan. Ularning dunyoqarashida “davlat”, “hukmdor”, “boshqaruv” singari tushunchalar, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik muammosi ming yillar mobaynida xalq ongi va tafakuridan markaziy joyni egallab kelgan. Shunday ekan, nomi zikr etilgan faylasufni oqlash emas – balki uni tushunish zarur. Zero, u xitoyliklar tarixida eng fojiali, ular uchun mutlaqo yot, begona mustamlakachilar bilan til biriktirib aholi boshiga qora kunlarni solgan manjurlar bosqini davrida yashagan edi. Og‘ir davr (irqchilik, gegemonizm, milliy tahqirlanish va b.) siyosatchi dunyoqarashiga salbiy ta’sir o‘tkazishi, uning ongi-shuurida davlatga, unga xos kuch ishlatishlikka nisbatan jiddiy norozilik uyg‘otishi turgan gap.

⁷⁵ Мартынов Д.Е., Мартынов Ю.А. Нирвана и анархия: учение о пяти исчезновениях // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 171-174, 176-177.

Yuqoridagi holatni hammaning psixologiyasiga xos holat natijasi deb hisoblagan holda, umuman bugun mavjud intellektual jarayonga e'tibor qaratilsa, sayyoramizning boshqa koordinatlarida “davlat” tushunchasiga nisbatan hanuzgacha aniq bir fikrga kelinmaganlikda davlatning fuqarolar oldida burchini ado etishi, xalqning buyuk bunyodkor kuch-qudratining shakli sifatida o‘zini namoyish qila olmayotganligini sabab ekanligini yodimizdan chiqarmasligimiz ham joiz.

Nazarimizda, oldi-ortiga qaramasdan, davlatni asossiz tanqid qilishdan ko‘ra, og‘ir va dolzarb paytlarda odamlar uning bilan hamnafas bo‘lsalar buyuk ezgulikka qo‘l urgan bo‘lar edi. Darhaqiqat, bugun ko‘pgina mamlakatlarda liberalizm bir tomondan va boshqa tomondanadolatli etatizm o‘rtasidagi tortishuvda go‘yo davlatchilikning muhim prinsiplaridan bo‘lgan “boshqaruvchi-boshqariluvchi”, “bo‘ysundiruvchi-bo‘ysunuvchi”lik amaliyoti bugungi kun talabiga mos kelmaydi, degan asossiz g‘oya bor. Aksincha,adolatli etatizm ta’limoti insonlararo tabiiy ierarxiya timsoli va davomchisi, kuchli davlat va aynan u tabiiylik tarafdiridir⁷⁶.

Eski siyosiy-mafkuraviy loyihalardan qat’iy nazar, insonning genetik tabiiy moyilligi ifodasi sifatida davlatning bugun va abadiy mavjudligi ob’yektiv zarurat ekanligini ijtimoiy amaliyot o‘zi tasdiqlamoqda. Agarki, davlat zaiflashsa yoki barham topsa, “jamiyat-insoniyat” munosabati tuzilmasidan u chetlatilsa xalqning ruhiyati, intellektida yashirinib yotgan buyuk kuchni ifoda etishga qodir boshqa birorta kuch, institut yo‘q. Davlat – xalqqa, millatga, jamiyatga xos yaratuvchanlik ifodasidir.

“Davlat shunchaki rasmiyatchilik emas, balki u xalq hayoti, uning tabiat, iqlimi, hudud konfiguratsiyasi, tarixiy taqdiri, qolaversa aholining xarakteri, diniy qarashlari, xohish-irodasi, haq-huquqini anglab etishi, davlat bilan aynanlashish, bir so‘z bilan aytish mumkin bo‘lsa, uning milliy quvvatini belgilaydi. Davlat yuqoridagi holatlar ta’sirida organizmik tartibot, xalq xohish-irodasi ifodasi

⁷⁶ Борисова А., Журавлёва В. Американское государство: кризис доверия // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. – №5. – С. 89.

tarzida, o‘z navbatida, xalqqa moslashadi va u bilan uzbek bog‘liq. Davlat xalq istagan paytda tashlab, boshqasi bilan almashtiradigan libos emas, aslida jismu joniga yo‘g‘rilgan bir qismi”⁷⁷, – deb o‘z paytida davlatga ta’rif bergen atoqli rus faylasufi I.Ilin haq ekan. E’tiborga molik joyi shundaki, mutafakkir so‘zining zamirida muallifning o‘z davlati va yurtidan ketishga, ajnabiylikka mahkum qilingan insonning sog‘inch tuyg‘usi yotadi. Demakki, davlatning ma’no-mazmuni, qolaversa, unga jisman yaqinligini hamma ham darhol sezavermas ekan, uning uchun inson ongi, tafakkurida keskin transformatsiya, evrilish sodir bo‘lishi zarur bo‘ladi.

Shu munosabat bilan L.Feyerbax qalamiga mansub quyidagi purma’no fikrga e’tibor beraylik. “O‘z ma’no-mazmuniga ko‘ra dinning davlat bilan bog‘liq joyi yo‘q: ular alohida-alohida hodisalardir. Xudo – bu ota, barchani nazorat qilib turuvchi, yaratuvchi, mehribon, yerdagi monarxiyaning hukmdori va egasi sifatida din davlatni siqib chiqaradi, chetlatadi. Shunday ekan, inson boshqa biror bir xaloskorga muhtoj emas – barchasini u xudodan oladi. Sub’yektiv nuqtayi nazardan esa odamlar xudoga, xaloskorga umid bog‘lamasligi bois o‘zaro birlashishadi va shu bilan anglamagan holda inson diniy aqidasini inkor qiladi... Davlat o‘z paytida xudoga ishonish emas, aksincha undan hafsalasi pir bo‘lish oqibatida paydo bo‘lgan. Davlatning vujudga kelishini, uning ildizini aslida xudodan emas, balki insonga ishonishdan izlash to‘g‘ri bo‘ladi. Inson kuch-qudratini alohida tasavvur qilishdan maqsad, shu yo‘l bilan hadsiz-hududsiz bir mohiyatni, yagona bir buyuk kuchning paydo bo‘lishiga inson imon kelishini ta’kidlashdan iborat. Davlat – barcha realliklar yig‘ilgan, to‘plangan joy, davlat – inson qismati. Davlatda bir jihat ikkinchisining o‘rnini egallaydiki, bunday holat boshqa birorta narsada kuzatilmaydi. Men tabiatning nogahon evrilishlari qarshisida yakka emasman, mening yonimda boshqalar, sheriklar bor, men umumiyligi mohiyat bilan chirmashganman. Men – bir butunlik qismiman. Haqiqiy davlat – bu cheksiz, cheklanmagan, haqqoniy va eng so‘nggi ilohiy inson. Davlat –

⁷⁷ Ильин И.А. Наши задачи. Историческая судьба и будущее России. В 2 т. – М., 1992. Т. I. – С. 194.

eng avvalo inson, u – mutlaq odamzot. U o‘zini o‘zi belgilaydi, o‘zi o‘zining nisbati”⁷⁸.

Mumtoz mutafakkirning yuqoridagi mulohazasidan kelib chiqsak, davlat eng avvalo insoning o‘zi, odamlarning katta yoki kichik guruhlarning o‘zi va ham o‘zligi. Davlat – inson kuch-qudratining ramzi va manbayidir. Davlat – majoziy va haqiqiy ma’noda inson shaxsida, mohiyatida aynanlikka erishadi; insonga, jamiyatga, hamjamiyatlarga xos kuch-qudrat shu boisdan davlat atrofidan joy olgan. Xalqning cheksiz yaratuvchilik salohiyati aynan davlat shaklida o‘zini namoyon etadi. Qizig‘i shundaki, inson zotining turli-tuman salbiy kuchlarga bardosh berishining birdan bir yo‘li davlat doirasida faoliyat yuritish ekanligini qachon, tarixning qaysi davrida chuqur his etganligi noma’lum. Balki bu unchalik muhim ham emasdир. Muhimi shuki, insonga xos cheklanmagan qudrat davlat faoliyati va amaliyotida o‘z ifodasini topdi.

Odamzod atrofida ichki qarma-qarshi, o‘ta murakkab, ammo inson mohiyatini belgilovchi kuch mavjud. Bir tomondan, u – yaratuvchi, ikkinchi tomondan esa buzg‘unchi ham. Bu hozircha yechim topmagan jumboq va muammo. Xususan, G‘arb falsafiy olamida hozircha bu borada yangi bir fikr ko‘zga chalinmayapti. Biroq Sharq falsafiy an’analarida bu masala qadimdan keskin, boshqacha muhokama qilinib kelgan. Bundan salkam 1500 yil avval yashab, buddizm ta’limotining Sharqiy Osiyo kengliklari uzra yoyilishiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ alloma Xuey Nen o‘zining “Illohiy inson tavallosi: donolik” risolasida “Kimki lomakonlik holatiga erishgan bo‘lsa, u ming dxarma (ezgulik) bilan uyg‘unlashadi”⁷⁹, deyishi orqali, insondagi ezgu yaratuvchan kuch beshak davrlar o‘tib g‘alaba qilishiga ishora qilgan deb o‘ylaymiz.

Bu singari g‘oyalarni zardushtiylik, induizm, jaynizm va sufiylik falsafasida, qolaversa ba’zi postnoklassik qarashlarda uchratamiz. Xullas, o‘zining kim va nima ekanligini u yoki bu darajada his etishga qodir har bir individ uchun o‘z xalqi, Vatani, davlatidan-da afzalroq qudrat yo‘qligini anglab etishi zarur bo‘ladi.

⁷⁸ Фейербах Л. Необходимость реформы философии // Избранные философские произведения. В 2-х томах. – М.: “Прогресс” 1955. Т. I. – С. 110-111.

⁷⁹ Чинь У. Философские идеи. – Шанхай: Межконтинентальное издательство, 2015. – С. 198.

Olimlar ta'kidlaganidek, “Har qaysi individ uchun aynan o‘z xalqini tarixan birlashtirishga qodir va doimo mavjud, shuning bilan birgalikda boshqa madaniy jamoalardan farq qiluvchi yangi ittifoq mutlaq zarur, o‘z navbatida u boshqalarga nisbatan asosiydir”⁸⁰.

E'tiborga molik jihat shundaki, yuqorida zikr etilgan umumlashmalar amaliyotini Yangi O‘zbekiston – zamonaviy o‘zbek davlatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatida to‘laqonli kuzatish imkoniyatiga bugun egamiz. Mustaqillik yillarda, xususan uning dastlabki eng murakkab vaqtlarida, mamlakatimiz oliy siyosiy rahbariyati davlat bilan xalq o‘rtasidagi har tomonlama, birinchi navbatda, ruhiy va ma’naviy yakdillik muammosiga alohida e’tibor qaratdi. Uning qator sabablaridan biri xalqimizning asrlar davomida o‘z davlatiga egamenligini chuqur his eta olganligida deb bilamiz. Bu tendensiya, intilish Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan amaliyotga yo‘g‘rilgan “2017-2021 yillar Harakatlar Strategiyasi” va hozirgi “Taraqqiyot Strategiyasi”da yaqqol o‘zini namoyon etmoqda

Xalq va jamiyat a’zosi hamda davlat hokimiysi o‘rtasida uzviylik, bir-birini qalbdan his etish taqdirbardor masala va uning ma’naviy-axloqiy zamin-u asoslari jumladan O‘zbekistonda butun tarixi mobaynida uzlusiz shakllanib kelgan. Va uni bugungi avlodimiz, buyuk bobokalonlarimiz ilmiy va siyosiy qarashlarida ko‘rish imkoniyatiga egamiz. Alloma Abu Nasr Forobiyning “Fuqarolik siyosati”, “Fozil shahar aholisining qarashlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli asarlarida ulkan sarchashma, kuch-qudrat va ijodkorlik manbayi bo‘lgan xalqqa nisbatan alohida siyosat olib borish davlatning bosh burchi ekanligi alohida tilga olingan⁸¹. Mutafakkirning bu sohadagi tafakkuri nafaqat o‘zigacha mavjud intellektual jarayonning uzviy davomi bo‘lishi barobarida, ulardan hatto o‘zib ketganligini ko‘plab dunyo olimlari e’tirof etishmoqdaki, uning ilmiy merosi, xususan davlat bilan fuqarolar birligiga nisbatan turli-tuman anarxistik fikrlar

⁸⁰ Симонян Р.Х. Кризис либеральной рыночной модели либерализации // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 22.

⁸¹ Qaralsin: Мухиддинова Ф.А. Абу Наср Форобийнинг давлат ва хукуқ хақидаги таълимоти: Юридик фанлар номз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2001. – Б. 14-15.

paydo bo‘layotgan bugungi globallashuv davrida insoniyatga beminnat xizmat qilishi tabiiy.

Darhaqiqat, milliy mustaqillik davriga kelib oliy siyosiy rahbariyatda aynan shu masalaga alohida e’tibor qaratish imkoniyat ko‘lami kengaydiki, uning bosh sababi buyuk bobokalonlarimiz ilmiy merosining zamon uchun dolzarbligi, iz-chilligida deb bilamiz. Milliy egamenlikni asrab qolish nuqtayi nazaridan hal qiluvchi asnolarda ushbu masala alohida nufuz kasb etdi. “O‘zbekistonda davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi xalq bo‘lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariiga xizmat qiladi”⁸², deb bejiz ta’kidlanmagan. Zamonaviy o‘zbek davlatining birinchi rahbari zimmasiga yuklangan zalvorli vazifani chuqur his etgani holda, bir chiqishida davlat o‘zining haqqoniyligi, ulug‘vorligini “xalqni xalq, millatni millat qila bilishi bilan buyuk quroqla aylanishi” zarur degan fikrni ilgari surdi.

Davlatning o‘z kuchi, qudrati manbayi, ikkinchi “Meni” bo‘lgan xalqning diqqat markazida bo‘lishligini I.Karimov alohida uqtirgan edi. Shu munosabat bilan xalqning ma’naviy-axloqiy darajasi qanday bo‘lishida, jamiyat segmentlari ning jamuljam bo‘lishida davlat boshlig‘i shaxsining ulkan siyosiy zalvorini alohida ta’kidlash joiz. Bugungi avlod rahbariyatining mustaqil rivojlanishning dastlabki soniyalaridan e’tiboran davlatning mohiyati va pirovard maqsadi, “xalq-millat-davlat” zanjiri bilan bog‘liq muammoni eng dolzarb, paysalga solish mumkin bo‘lmagan muammo deb hisoblaganligining asl sababini faqat shu asosda tushunish mumkin bo‘ladi.

Bu yerda, shubhasiz, ajdodlarimiz meros qoldirgan, ammo bugun ham zamondoshlar xatti-harakatini yo‘naltirib turgan milliy siyosiy madaniyat va qolaversa xalqimiz ruhiyatidagi bitmas-tuganmas qudrat Birinchi Prezidentga asqotdi, desak xato bo‘lmas. Zero, u zamonaviy milliy davlatimiz qudratining voqelikka aylanishida shu omilga asosiy e’tiborini jalb etdi. “Inson-jamiyat-davlat” uchligiga kuch-quvvat bag‘ishlash yo‘lida mamlakat rahbariyati, unga salbiy

⁸² Каримов И.А. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат // Ўзбекистон: миллий истиқол, иқтисод, сиёсат, мафкура. I жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 125.

ta'sirini o'tkazish ehtimoliga ega “vatanfurush”, “vatangado” unsurlarning bariga keskin zarba berishda aynan buyuk bobolarimiz, ajdodlar vasiyatlarini engilmas ma'naviy qurolga aylantirdi. Zero, buzg'unchi kuchlar xalqimizga Olloh in'om etgan salohiyatni zaiflashtirish orqali davlatimizni to'g'ri yo'lidan chetlatishni rejalashtirgan edi. Xalq bilan davlat bir jon va bir tan bo'lmog'i uchun ular, Forobiy bobomiz aytganidek, “tartibga bo'ysunmagan va qo'l ostidagi kishilarni ham shunga chorlagan”⁸³ zararli unsurlarga nisbatan xalq xohish-irodasi ifodasi bo'lmish kuchdan ham kerak payt va kerak joyda foydalanildi.

Davlat bilan xalq o'z tabiatiga ko'ra – bir butunlikning ikki ko'rinishi. Xalq evaziga davlatga ehtiyoj paydo bo'lgan bo'lsa – davlat esa xalqqa ichki ehtiyoj sezadi. Shunday ekan, garchand davlat hokimiysi bilan fuqarolar/jamiyat a'zolari har biri alohida ijtimoiy institutlar bo'lsalar hamki, ularning har biri uchun azaliy yaxlitlik muhim va ahamiyatlidir. Bu, o'z navbatida, davlatning xalq nomidan faoliyat yuritishi, turli-tuman ijtimoiy yumushlardan tashqari birinchi navbatda tashqi va ichki siyosatda ham xalq nomidan shunday faoliyat ko'rsatishida o'z ifodasini topgan. Holbuki, har qanday ijtimoiy guruh davlat bo'lavermaydi.

“Xalq davlat degan nomga munosib bo'lishi, o'zini hamda mavjud resurslarini (mulkini) muhofaza qilishi uchun dastavval birlashmog'i zarur”⁸⁴, degan ekan Gegel o'zining “Siyosiy asarlar” nomli kitobida. Bunday qaraganda, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi ichki mushtaraklik, siyosiylik o'zaro bir-birini taqozo etishi, keltirib chiqarishi borasida umumiyl fikr dunyoning barcha burchaklarida allaqachon shakllangan. Va bu – ob'yekativ reallik, shuknchaki orzu emas. Butun Sharq olami gullab-yashnagan pallada (G'arb u paytda “o'rrta asrchilik” iskanjasida, chuqur ijtimoiy-madaniy inqiroz holatida bo'lgan) Xitoyda yashagan atoqli mutafakkir Van Yanmin (1442-1520) muhokama etilayotgan muammo nuqtayi nazaridan bilim va faoliyat ajralmas, parallel kechadigan hodisalardir. Biroq oldinga intilish faqat va faqat ularning bir butunligi orqali amalga oshadi...⁸⁵, degan muhim fikrni bejiz ilgari surmagan. Demak, xalqni

⁸³ Аль Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата, 1985. – С. 147.

⁸⁴ Гегель. Политические произведения. – М., 1978. – С. 75-76.

⁸⁵ Ван Янмин. Записки о направлении и учёбе // Философские идеи Шанхая. – 2015. – С. 229.

behisob va benazir bilim va donolik sarchashmasi, davlatni esa uning siyosiy faoliyat timsoli desak, ularning katta kuchga aylanishiga shubhaga o‘rin qolmaydi.

Biroq bunday ideal mushtaraklikni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun davlat kuchli bo‘lishi, uning namoyishi uchun davlatda nafaqat imkoniyat bo‘lishi, balki ana shu imkoniyatni amaliyotga aylantirishga konstitutsiyaviy haq-huquq bo‘lmog‘i zarur. Darhaqiqat, shu kuchning manbayi – sarchashmasi fuqarolarning o‘zi. Bu cheksiz jamoaviy siyosiy kuch, o‘z navbatida, maxsus institut – davlat faoliyatida o‘z aksini topadi. Davlatning kerak paytda aynan shu kuchdan foydalanishga bo‘lgan haq-huquqi, legitimligi ham shunda.

Garchand davlat xalqning jamoaviy xohish-irodasi ifodasi va shu ma’noda jamoaviy siyosiy kuchga tayanishga to‘la haqli bo‘lsa hamki, bu uning muttasil barcha holatlarda kuchga tayanishini bildirmaydi. Va tom ma’noda o‘zini ma’rifiy deb hisoblaydigan, boshqalar nazdida ham shunday nufuz va martabaga ega davlat bugungi murakkab davrda bu borada birgina o‘zining fuqarolari emas, balki butun bashariyat taqdirini o‘ylagan holda faoliyat olib bormog‘i lozim. Muammoga doir I.Kantning ilmiy merosida bir fikr keltirilgan: “Qachonki, o‘z kuchini o‘zining tor maqsadlari, bosqinchilik niyatları, boshqalar farovonligiga to‘g‘anoq bo‘lish amaliyoti bas qilinmas ekan, unday davlatlardan na o‘z fuqarolarining ravnaq topishi va na axloq borasida biror bir yutuqni qo‘lga kiritishini kutish xomxayoldan boshqa narsa emas. Hozirgi paytda davlatlar o‘rtasida munosabatlar shu qadar murakkabki, biror bir davlat boshqalar farovonligi, osoyishtaligi deb o‘z niyatidan qaytmaydi”⁸⁶.

Insoniyat shu kungacha shu zaylda umrini o‘tkazmoqdaki, xalqning jismoniy va ruhiy qudrati, salohiyatidan jiddiy vaziyatlarda hokimiyat foydalanishga majbur. Mustaqillikning dastlabki asnolarida mamlakat siyosiy rahbariyatining davlatimiz qurolli kuchlari salohiyatini oshirishga katta e’tibor bergenligini ham ushbu umum davlat, kerak bo‘lsa umumbashariy manfaatlar kontekstida qarash lozim. Bu sohada nimaiki amalga oshirilgan bo‘lsa, barisi davlat hokimiyatning

⁸⁶ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – М., 1966. – С. 19-20.

birdan bir manbayi xalq bo‘lib, davlat xalqning irodasini ifodalab, uning manfaatlariga xizmat qilganligida⁸⁷, deb bilamiz.

Davlat jamiyat a’zolari xohish va irodasini ado etishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos institut sifatida jamoaviy kuch va salohiyatdan odatda zarur payt va zarur jabhada foydalanadi. Fuqarolar tomonidan qonun asosida berilgan imtiyoz/vakolatlardan davlat oqilona foydalanar ekan, unda xalq xohish-irodasiga zid yoki xalqqa qarshi yo‘naltirilishi notabiyyikdan boshqa narsa emas. Chunki kuch ishlatish bu odatiy yoki birdan bir yagona yo‘l emas, aksincha, davlat xalq oldida o‘z zimmasiga olgan bunyodkor vazifalarning bajarilishi esa zo‘ravonlik emas, aksincha xalqning yaratuvchi salohiyatini, aql-idrokini ishga solishni taqozo etadi.

Demak, kuch ishlatish davlat uchun qandaydir bir o‘ziga xos xususiy holatlar bilan bog‘liq xususiy bir vositaligicha qoladi. Kuch ishlatish davlat uchun, garchi u qonunga binoan joiz bo‘lsa hamki, ammo muhim ahamiyat doimiy ustuvorlik kasb qilmaydi. Chunki davlatning vazifasi jazolash emas, aksincha uning haq-huquqini, insoniy fazilatlarini himoya qilishdir. Aslida xalq ham va davlat ham mohiyatan insonga xos barcha yaratuvchilik qobiliyat va salohiyatni ro‘yobga chiqarishi, ularning erkin va farovon, munosib mazmunli umr kechirishi, ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo‘lishidan tub manfaatdor. Biroq tarixiy-ijtimoiy institut tarzida davlatning holati, tashqi va ichki ta’sirlar bosimi tufayli har doim ham bir marom kasb etmagan.

Jamiyatga tahdidlar avvalambor davlatning kayfiyatida namoyon bo‘ladi va uni bartaraf etish yo‘lida xalq atrofidagi buyuk kuchni ishga tushirish, uni tartibli tashkil qilish davlatning mas’uliyatiga kiradi. Chunki “davlat va kuch (u xalqning xohish-irodasi, ma’naviy-ruhiy salohiyati) o‘rtasida farq yo‘q. Zero, davlat g‘oyasining zamirida mustaqillik, suverenlik g‘oyasi yotadi va uni saqlab qolish uchun kuch zarur”⁸⁸, deganda XIX asr nemis tarixchisi I. fon Ranke to‘la haq edi. O‘z navbatida, aynan davlatni asrab qolish zarurati har bir inson uchun har qanday

⁸⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат // Ўзбекистон: миллый истиқбол, иқтисод, сиёсат, мафкура. I жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 125.

⁸⁸ Ranke I. Von – The Theory and Practice of History/ – Bonn, 1991. – P. 118-119.

huquqdan yuqori ekanligiga borib taqaladi. Bu yerda mamlakat, yurt va Ona Vatan taqdiriga oid msala mavjud. Shu bois ilmiy jamoatchilik unga alohida munosabat bildirib, shunday degan: “Agar yurt, umrguzaronlik kechayotgan ona zamin siyosat darajasida Ona Vatan bo‘lib ko‘rinish bersa, u holatda bu millat ongida ilohiy qadriyat ma’no kasb etadi”⁸⁹. Mana shuning o‘zi davlatning xatti-harakati yo‘nalishini belgilab beradi. Taqdirbardor pallalarda esa kuch-qudrat ato etgan xalq nomidan barcha imkoniyatlarini ishga tushirishga davlat mas’ul va javobgar.

Kimgadir (asosan ultrapatsifistik ijtimoiy qatlamlar) dunyoqarashiga davlatning bunday yo‘l tutishi, davlat tomonidan jumladan mudofaa qobiliyatini mustahkamlash xalq ommasining turmush darajasiga zid yo‘nalish bo‘lib tuyulishi ham mumkin. Bu inson tabiatiga immanent xos hodisa. Buni hisobga olgan J.J.Russo shunday degan ekan: “Nokaslik va yomonlik qilish ko‘pincha odamlarga naf keltiradi. Va bu tez orada yoyilib ham ketadi. Ammo butun bir jamiyatga taalluqli bo‘lgan vazifa hech qayerda va hech qachon kuch ishlatmasdan yechimini topmaydi. Zero, xususiy manfaatlar unga nisbatan barcha zamonlarda to‘sinqilik qilib kelgan”. Holbuki, umumjamiyat, umumxalq ishi – u faqat barcha fuqarolar safarbarligida amalga oshadi. Davlatning kuch ishlatishi ayni paytda xalqning xohish-irodasiga hamohang. Zero, davlat bilan xalq xohish-irodasi, xatti-harakatida mushtarak, qayerda “avval xalq – keyin esa davlat”⁹⁰, degan fikr chuqur ildiz otgan bo‘lsa o‘sha joyda muammolar kam bo‘lishidan tarix o‘zi guvohlik berib kelmoqda.

Xalqqa xos buyuk jamoaviy xohish-iordaning qudrati, bunyodkor salohiyati davlatning ko‘pqirrali ijtimoiy faoliyatida ifodalanganligini ta’kidlash asnosida shu jihatni jamiyatga, fuqarolarga ham nisbat qilish joiz, deb o‘ylaymiz. Davlatni davlat darajasiga olib chiqadigan ulkan kuch-qudrat, yaratuvchi imkoniyat faqat jamiyatning kundalik faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi keng ko‘lamli siyosiy muloqot, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning qanday yo‘nalish kasb etishi oddiy inson dunyoqarashi, xatti-harakatiga bog‘liq. Davlat

⁸⁹ Симонян Р.Х. Кризис либерально-рыночной модели либерализма // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 22.

⁹⁰ Чинь У. Философские идеи. – Шанхай, 2015. – С. 114.

ham va jamiyat ham oddiy odamlardan iborat ekan, ularning madaniy yuksakligi jamiyat va davlat salohiyatini belgilaydi. Xalqning va davlatning salohiyati haqida so‘z yuritar ekanmiz, uni oddiy inson kechinmalari, mo‘ljalu manfaatlaridan ayro tasavvur qilish nojioz va g‘ayrijtimoiylikdir deyishga asos yetarli.

Jamiyat-Davlat-Inson o‘zaro ko‘p qirrali bog‘liqlikda barhayot. O‘z ahamiyatiga ko‘ra uning davlat va jamiyat diqqat markazida bo‘lishi ob’yektiv zaruratdir. Pirovard maqsad inson ravnaqi, farovonligi ekanligi va ularsiz dunyo ham va ijtimoiy borliq ham ma’nosizligi xususida so‘z yuritar ekanmiz, albatta inson omilini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Uni qalban anglash – davlatning umumiy jamoaviy kuchi ifodasi, immanent zarurat.

Shundayki, insonga doimo ezgulik bilan bir vaqtda, muammolar ham hamroh: to‘g‘rirog‘i, uning o‘zi muammolarni keltirib chiqaradi. Ba’zi onlarda u boshi berk ko‘chaga kirib qoladiki, undan yolg‘iz o‘zi chiqib ketishi mushkul. Ana shunday paytda uning joniga davlat, jamiyat, oila, ishlab chiqarish jamoasi va boshqalar ora kiradi. Aslida “boshi berk ko‘cha”ga kirib qolish o‘z xulq atvori, jamiyat va davlatga nisbatan adashishi oqibatida ro‘y beradi, biroq inson uni o‘z “meni”dan kamdan-kam izlaydi. Davlat va jamiyatda o‘rnatilgan qoidalar asosida “insonning erkinligiga nisbatan cheklash”, bunday qaraganda, o‘z aybi tufayli sodir etilayotgan cheklanishdan behisob darajada afzal. Agar davlat va jamiyat bo‘limganida, cheklovchi qurol va qudratga ega bo‘limganda, oddiy odam o‘z noshudligi, farosatsizligi qurban bo‘lishi hech gap emas edi. Demak, davlat va jamiyat, xususan siyosiy hokimiyat zimmasiga jamiyat a’zolarining yashirinib yotgan ulkan safarbarligi va ezgu intilishini ro‘yobga chiqarish yuklanar ekan.

Shu ma’noda, rus diniy faylasufi, siyosiy ta’qib tufayli ajnabiylilikka yuz tutgan N.Berdyyayev “Davlat bu fony dunyoda jannat yaratish emas ekan, demak, uning jahannamga aylanib ketishining oldini olish uchun yashaydi”⁹¹, deganda haq edi. Davlat tartibotini anglamagan unsurlarga nisbatan fransuz sotsiologi A. de Tokvil o‘z paytida “sening aybdor emasligingni bilsalar ham, oxir oqibatda yaqinlaring sendan yuz o‘girishadi”⁹², degan. Xuddi shunday fikr-mulohazani

⁹¹ Бердяев Н. Судьба России. – М.: “Эхо”, 1990. – С. 11-12.

⁹² Токвиль А. де. Демократия в Америке. – М.: “Моск. изд-ский дом”, 1990. – С. 200.

qadimgi Sharq falsafasining buyuk namoyondalaridan biri Kun FutSzi (G‘arbda Konfutsiy) ma’naviy merosida ham uchratish mumkin. U hayotini odamlarni aqli rasolar, donishmandlar, fazilatli hukmdorlar bilan hamnafaslikka, jamoa urfodatlariga rioya qilish orqali sultanat, hukmdorlar marhamatiga sazovor bo‘lishga, xalq va jamiyatga xos bo‘lgan cheksiz imkoniyatlardan mavridi kelganda baha olishga undashga bag‘ishlagan⁹³.

Bugungi notinch davr, manfaatlar to‘qnashuvi barcha darajalarda sezilarli kuchaygan, xususan inson qadri, haq-huquqi va erkinliklariga nisbatan ba’zan asossiz fikrlar shakllanayotgan, inson qalbi-shu’urida “begonalashuv” kuchaygan davrda, odamlar qandaydir bir g‘oya yoki kuch atrofida birlashishga yaqqol ehtiyoj sezmoqda. Shunday vaqtarda alloma Aristotelning davlat boshqaruvi prinsipi sifatida demokratiyaga salbiy munosabat bildirganligining tagida qanday sabab yotganligi xususida o‘ylashga to‘g‘ri keladi. Zero, bugungi g‘arbona demokratiya, keng tarqalayotgan “xom sut emgan banda”lar, unsurlarga keragidan ortiq erkinlik (bu negativ erkinlik) berilishi natijasida, ayrimlarda siyosiy tartibotga nisbatan befarqlik holatini keltirib chiqarmoqda. Ammo uning ildizi insonning borlig‘ida, tanasida va ongida va buni jilovlash bilan bog‘liq muammo bundaylarning xalqqa xos jamoaviy qudratga nisbatan befarqligi har doim dono kishilarni tashvishga solib kelgan.

Individ uni sezadimi, sezmaydimi, undan qat’iy nazar – u qandaydir bir kuchga bo‘ysunishi zarur. Ba’zan insonda uning mutlaq teskarisi ham sodir bo‘lishi mumkin. Shuni nazarda tutar ekan, ispaniyalik tafakkur sohibi Benidikt Spinoza quyidagi fikrni e’tiborga havola etgan: “Mabodo davlat barham topadigan bo‘lsa, unda boshqa birorta narsa o‘z o‘rnida qolmaydi. Hamma narsa xavf ostida qoladi. Bunday holatda g‘azab, beboshlik hukmronlik qilib, barchaga mislsiz qo‘rquv va dahshat soladi”⁹⁴. Bunday vaziyatning sababi, uning oldini olish yo‘l- yo‘riqlari va zamirida nima yotadi va nimaga borib taqalishi bilan bog‘liq ko‘plab jumboqlar G‘arbda ham va Sharqda ham barcha zamonlarda insoniyatni

⁹³ Конфуций. У истоков мудрости. – М.: “Альма Матер”, 2008. – С. 35-36.

⁹⁴ Спиноза Б. Богословско-политический трактат // Избранное произведения. – Т. 2. – М.: “Наука”, 1996. – С. 250.

tashvishlantirgan. Masalan, XVII asrda Xitoyda yashagan mashhur ilm sohibi Van Fuchji uni “jamiyat va davlat rivoji zamirida abadiy mavjud, inson izmiga bo‘ysunmas parchalanish va uning aksi bo‘lgan birlashish bilan bog‘liq tabiiy siklga”⁹⁵ nisbatan aytgan bo‘lsa, Xitoy daosizmi izdoshlari bunday parokandalik sodir bo‘lmasligi uchun “hukmdor sukut saqlab, uni o‘z oqimiga tashlab qo‘yishi lozimligini maslahat bergen.

Nima bo‘lganda ham, insoniyat tarixi ularning barchasi davlatning salohiyati, uddaburonligi, qat’iyatliligi va pragmatik salohiyatiga borib taqalishini allaqachon isbotlab ulgurdi. Zero, xalqqa xos ulkan qudratni ro‘yobga chiqarishda, aynan shuning ifodasi bo‘lgan davlatdan bu stixiyaga bardosh beradigan aslida boshqa bir kuch ham va qurol ham yo‘qligi reallik.

Yuqorida davlatning mohiyati, uning pirovard maqsadiga nisbatan bildirilgan ko‘plab ta’rif-u tasniflar o‘rtasida o‘zaro birlashtiruvchi maxraj, ko‘rsatkich hali hanuz yo‘qligi bois, unga erishish hatto qiyinlashib borayotganligini aytib o‘tdik. Darhaqiqat, mutaxassislar bu masalada asosan ikki guruhga ajralishadi: biri – davlatga kuch ishlatish huquqiga ega bo‘lgan yagona institut deb qarashsa, boshqa biri – uni inson haq-huquqini ta’minalash, muhofaza etish vositasi deb hisoblaydi. Biroq uning mas’uliyati va burchi nimalarda namoyon etilishi bilan bog‘liq muammo ikkinchi planga tushib qolayotganligi tadqiqotchilarni tashvishga solayotgandek tuyuladi. Aslida bu bor gap. Balki bu yerda davlat muammosi ustuvor darajada yuridik fanlar, siyosiy fanlar va qolaversa, xalqaro munosabatlarni o‘rganuvchi olimlar doirasida tahlil qilinishi jarayoni bilan bog‘liqidir. Shunday ekan, masalaga falsafa fani doirasida yondashuv uning hanuzgacha “soyada qolib kelayotgan” qirralari/parametrlarini yuzaga chiqarishda asqotishi tayin. Zero, bunday yo‘l tutish, xususan “davlat” tushunchasiga yuqorida keltirilgan har ikki yo‘nalish doirasidagi ilmiy yutuqlarni inobatga olgan holda, yanada kengroq yondashib, dialektik bir-biri bilan bog‘liq barcha tomonlarni qamrab olib, ular asosida boshqa, qolaversa yangi umumlashmalar sari borish imkoniyatini kengaytirar ekan.

⁹⁵ Торчинов Е.А. Даосизм: опыт историко-религиоведческого описания. – Санкт-Петербург: “Питер”, 1993. – С. 118-119.

Xulosa shuki, avtonom ijtimoiy institut sifatida davlat qandaydir bir kuchlar tomonidan tashqaridan olib kirilgan jamiyatni boshqarish vositasi emas, balki individning o‘zining ko‘p qirrali intilish hamda manfaatlari, ehtiyojlariga erishishi yo‘lida o‘z salohiyatidan foydalanishning o‘ziga xos shaklidir. Shu asosda davlat hokimiyyati mohiyatining birdan bir bosh ijtimoiy-siyosiy mavjudot bo‘lmish inson tabiatining voqeligida o‘zini namoyon etadi. Undagi imkoniyat va kuch, ulardan tegishli joylarda huquq doirasida foydalanish; jamiyat barqarorligi va farovonligi uchun javobgar tuzilmalar hamda muassasalarning bari ushbu jamiyatning ajralmas qismi deb atalgan insonlarning xohish-irodasi, umumjamoaviy ong hamda tafakkurning yuzaga chiqishidir. Tahlil natijalarida davlat shunchaki sun’iy yaratilgan vosita emas, aksincha ajdodlar, zamondoshlar hamda kelgusi avlodlarning umumiyy xohish-irodasi, salohiyati namoyishi ifodasi sifatida barcha zamonlar va barcha joylarda manfaatni anglash nuqtayi nazaridan individdan keskin farq qiladi. Agar individ, har qanday vazifa bo‘lmisin, o‘z xususiy intilish va manfatlari doirasida faoliyat yuritsa, undan farqli o‘laroq davlat umumxalq, umumjamiyat, demaki siyosat ishiga o‘zini baxshida etib, tom ma’noda siyosiy mohiyatga ega buyuk qudrat ro‘yobi sifatida o‘zini ko‘rsatadi. Shu asosda davlat tarix, insoniyat, bashariyat va to‘laqonli hayot kechirayotgan insonlar oldida o‘zini oqlab keldi va shunday bo‘lib qoladi.

2.3-§. Ijtimoiy institut tarzida davlatning tarixiy-madaniy an'analar bilan bog‘liqligi

Avval ta’kidlanganidek, hozirgi kungacha davlat ikki xil yondashuv asosida o‘rganilib kelinadi: bir tomondan – unga siyosiy hokimiyyat instituti, ikkinchi tomondan esa, tegishli ma’muriy-hududiy kenglikda istiqomat qiluvchi fuqarolarning xavfsizligi, farovonligi hamda tadrijiyligini ta’minlashga javobgar siyosiy tashkilot sifatida qaralib kelingan. Oqibatda davlat asosan davlatshunoslik, xalqaro siyosatshunoslik va huquqshunoslik hamda keyinchalik siyosiy tadqiqotlar predmeti deb hisoblangan. Zikr etilayotgan ilm tarmoqlari vakillarining bu sohadagi sermahsul faoliyatini qadrlagan holda, keyingi globallashuv, liberallashuv, ijtimoiy munosabatlarning “bozorlashuvi” sharoitida davlat

muammosiga xususan siyosiy-falsafiy yondashuv nihoyatda zarurligi yaqqol ko‘zga tashlandi. Gap shundaki, bu muammo falsafiy kontekstda ustuvor darajada o‘zining kundalik kuzatuvlar ortida yashirinib, ammo bugungi kunda yaqqol dolzarblasthgan ijtimoiy ma’naviy-axloqiy qarashlarning gumanistik jihatlarini ochish imkoniyatiga ega. Ma’lumki, ularni eksperiment orqali ko‘rish, statistik sarhisob qilish, qoliplashning iloji yo‘q. O‘z kuchi va salohiyatiga ko‘ra ham dastur, ham g‘oya va ham faoliyat shakli sifatida davlat ma’naviy parametrlarsiz shunchaki oddiy bir unsurga aylanib qolishi hech gap emas.

Turli-tuman anarxistik tazyiqlarga qaramasdan, davlat paydo bo‘libdiki, faqat inson uchun xizmat qilib keldi va shu zayl inson oldida u o‘zini oqladi. Zero, uning “peshonasiga” shunday bo‘lishi “yozilgan” edi. Ammo inson tabiat murakkab va biror bir andozaga sig‘maydi. Uning xatti-harakati qanday bo‘ladi, oldindan bilish mushkul. Qolaversa, davlat qanday faoliyat olib boradi, birinchi navbatda, bu uning o‘ziga emas, balki inson tabiat bilan uzviy bog‘liqligi allaqachon ayon. Boz ustiga davrlar o‘tib davlatning xulq-atvori salbiy tomonga o‘zgarganligi, tabiiy o‘zandan chetlashganligi sababini inson o‘zida deb bilmagan. Hali-hanuz aksariyat shunday deb ham o‘ylaydi.

Shu munosabat bilan davlatchilik tarixida eng murakkab davrlarda J.J.Russo aytgan bir fikrini keltirish va tahlil qilish o‘rinli, deb o‘ylaymiz. “Turli-tuman to‘ntarishlarga to‘la davlatning tadrijiylik holatini sinchkovlik bilan kuzatganimizda, qonun va huquqiy me’yorlarning ishlab chiqilishi, so‘ngra ularga rioya qilishni nazorat qilib, tushuntirib turuvchi muassasalarning joriy etilishi barobarida aynan shu huquq me’yorlari doirasida ish yuritib turgan hokimiyatning pirovardida o‘zboshimchalikka asoslangan kuchga aylanganligini ko‘ramiz”⁹⁶, – degan xulosaga keladi mutafakkir. Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, bu ko‘p marotaba isbotlangan, huquqiy me’yorlar, cheklovlar, nazorat organlarining ta’sis etilishi oxir oqibatda ma’rifiy hokimiyatning zo‘rlik ishlatishga majbur bo‘lishiga insonning o‘zi, uning nafsi, xohishini jilovlay olmasligi sababchi bo‘lgan ekan. Natijada davlatning kuch-qudrati jamiyat a’zolariniki bo‘ladigan bo‘lsa, unda

⁹⁶ Руцко Ж.-Ж. О причинах неравенства // Онтология мировой философии. В 4-х томах.. – М.: “Наука”, 1971. – С. 366-367.

aynan shu kuch ayrimlarga yoki jinoiy guruhga qarshi ishlatilganligi bilan bog‘liq paradoks kelib chiqadi. Bu hamma mamlakatlarga xos tendensiya, uning pasayish, barham topish darajasi odamzotning o‘ziga bog‘liq. Yassaviy bobomiz o‘z paytida “Fe’ling ozdi, xaloyiqdan shafqat ketdi...”⁹⁷, deb insonga xos qusur oxiri nimalarga olib kelishini bejiz aytmagan ekanlar.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, davlat funksiyalari ko‘lamni uning faqat bir yoki bir necha qarorlari bilan belgilanmasligi, balki ular qatorida odamlarning kundalik tashvishlari (tartibga solish, murosaga keltirish) dan yuqoriroq, oddiy ko‘zdan ancha yiroqligi sabab ko‘pchilikka ma’lum bo‘limgan buyuk yaratuvchilik funksiyasi ham bor ekan va uni hamma ham his etavermasligi tabiiy ekan. Ulardan biri, bizningcha, davlatga xos buyuk ruhiy kuch – konkret bir kenglikda davlatchilikning ahamiyatini dastavval chuqur anglab yetgan ajdodlar shu’urida, faoliyatida ildiz otib, so‘ngra son-sanoqsiz ajdodu avlodlar salohiyati orqali bugungacha etib kelgan. Mazkur ma’naviy-ruhiy omilning zamondoshlar uchun ezgulik sari intilishida benazir qudratga aylanishida davlatning o‘rnini va roli beqiyos. Bu ma’naviy resurs, kuch-qudrat ajdoddan avlodga mabodo davlat bo‘limganida etib kelishi uyoqda tursin, balki inson xotirasidan mutlaq o‘chib ketgan bo‘lar edi. Davlat hamda davlatchilik mahorati, har bir millatga (jamiyatga) xos madaniy-ruhiy kechmishni asrab-avaylash bo‘limganda, bugun davlatning o‘rnini shunchaki majolsiz to‘da yoki makonsiz, maqsadsiz olomon egallagan bo‘lar edi. Tarixiy xotiraning ulkan qudratini his yetar va qadrlar ekanmiz, bu yerda uni asrab kelayotgan eng asosiy omil – davlat ekanligini bir soniya ham unutmaslik lozim bo‘ladi.

Bugungi avlod, zamondoshlar uchun misli yo‘q ruhiy ozuqa tarixiy-madaniy resursni asrab, davlat odamzotni dahshatli sinovlar, olovlardan omon saqlab qoldi. Shu ma’noda davlat millat, xalq, kerak bo‘lsa, ona zamin uchun zarur ma’naviy quvvatning ham soqchisi va ham tashuvchisi vazifasini bajarmoqda. Shunga tayanib, o‘zbek davlati va davlatchiligi xususida ham ayrim mulohazalar bayon qilsa bo‘lar. Atoqli o‘zbek arxeolog – tarixchisi Yu.Buryakov ushbu masalaga

⁹⁷ Яссавий Хожа Ахмад. Девони ҳикмат. – Тошкент: “Мовароуннахр”, 2004. – Б. 41.

oydinlik kiritib, quyidagi fikrni bergan. Zardushtiylarning qadimiy madhiyalari majmuasi “Avesto”da Shan (Toshkentning arxaik nomi) Qang‘ha tog‘ining ortida istiqomat qiluvchi afsonaviy hukmdor Afrosiyob boshqarib turgan qudratli turlar sultanati, xususan, Turon tasarrufida bo‘lganligi zikr etilgan va o‘sha qadim kezlarda “shahar”, “madaniyat” iboralari muomalaga kiritilgan⁹⁸. Xulosa shuki, qadimgi ajdodlarimiz (ular qaysi etnosga mansubligidan qat’iy nazar) mamlakat, davlatning bunyodkor mohiyatini ancha tushunishgan, uning inson umrguzaronligida tutgan o‘rniga munosib baho berishgan. Shuningdek, “Avesto”ning dastlabki qismlaridan biri “Bundaxishn”da⁹⁹ Orol dengizi (Avesto bo‘yicha – Fraxvard) mintaqamizning janubida yastanib yotgan osmono‘par tog‘lar tizmasi (Avesto bo‘yicha – Xunvand) va u yerda joylashgan mamlakat (Avesto bo‘yicha – Ganavad), Kaspiy dengizidan¹⁰⁰ janubda joylashgan viloyat (Avesto bo‘yicha – Mazondaron), aholi istiqomat qiladigan zaminimizdagi etti mamlakat (Avesto bo‘yicha – Keshvar) tilga olinib, u yerda elatlar bir butun va ahillikda umr kechirishganligi haqida noyob ma’lumotlar keltirilgan.

Demak, zaminimizda bir necha ming yillar avval davlatchilik ko‘nikmasi shakllanganligi, odamlar kundalik yumushlariga doir hamjihatlikda yechimga kelishganlari, o‘zaro insoniy munosabatlar ildiz otganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Qadimgi O‘zbekistonda (geografik nuqtayi nazardan) yashagan, biroq “o‘zbeklar” degan atamaga keyinchalik ega bo‘lgan ajdodlarimiz¹⁰¹ orasidan yetishib chiqqan zakovatli insonlar, sultanatpeshadan meros qolgan tosh bitiklarda bu kenglikda odamlar fozil hukmdorlar tufayli bexavotir yashaganligi haqida ishonarli xabarlar mavjud. Bu yerdagi sultanatlar, muruvvatli hukmdorlar, aksincha tinch hayotimizga xavf keltirgan dushmanlarga qarshi mardonavor kurashga otlanganligi, ajdodlarimizning o‘z ona yurtini boshqalar qo‘liga topshirmasligi yo‘lida jon olib-jon bergenligi, muhimi o‘sha davrga xos yashash, ijtimoiy munosabatlar tizimi xususida xabarlar, jumladan, xalq og‘zaki ijodiyoti (folklor va

⁹⁸ Буряков Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1997. – С. 8.

⁹⁹ Майданов А.С. Миф как средство сакрализации жизненного мира человека // Вопросы философии. – 2018. – № 9. – С. 207-214.

¹⁰⁰ Камолиддин Ш.С. Ўзининг “Географическая карта Средней Азии Василио Ватадзи”. – Т., 2005. – С. 4. XIII асрдан эътиборан “Ўзбек мамлакати” мавжудлигини айтади.

¹⁰¹ Камолиддин Ш.С. келтирилган манба. – Б. 9, 33

dostonlar)da og‘izdan og‘izga o‘tib tarixiy xotira tarzida bugungacha yetib keldi va ma’naviy mulkka aylandi. Qolaversa, ulardan ajdodlar yaratgan davlatchilik shakli, nisbatan primitiv bo‘lsa-da, strukturasi, siyosiy boshqaruv ierarxiyasi, ijtimoiy nufuziga oid ko‘plab ma’lumotlarni bilib olish mumkin.

To‘g‘ri, u bitiklardagi ma’lumotlar bugungi intellekt nuqtayi nazaridan g‘ayritabiiy ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin. Ba’zan zo‘ravonlik asosida shakllantirilgan boshqaruv uslubi, xalqdan begonalashgan institut shaklida dostonlarda ko‘rinish bergen bo‘lishi ham mumkin. Ammo nimaiki qilingan, qanday yo‘l tutilgan bo‘lganda ham, qadimgi sultanatlar, hukmdorlar boshqaruv shakli umuman umidbaxshlik, hamjihatlik prinsipi asosida shakllantirilganligi ma’lum. Misol uchun, “Qutadg‘u bilig” dostonida “Elig zo‘ravonlik qiluvchilarga yuz-xotir qilmasligimizning ramzidir. Xoh o‘g‘lim bo‘lsin, xoh yiroq. Adolat borasida har ikkisi men uchun birdek”¹⁰², degan fikrga duch kelamiz. Bundan chiqadigan xulosa shuki, sultanat garchi kimlargadir kuch ishlatgan bo‘lsa-da, umumiyoq oshyon, qarorgoh sifatida avlodlar, qolaversa bashariyat oldida o‘z burchini bajargan.

Davlatning ijtimoiy-tarixiy o‘rni xususida so‘z yuritar ekanmiz, davrimizning mashhur tafakkur sohiblaridan biri M.Xaydeggerning fikr yo‘nalishiga e’tibor bersak, ba’zi bir jihatlar yanada oydinlashadi, deb umid qilamiz. “Bizning birligimiz qandaydir bizlarning o‘zimizni mahkam tutib turgandek. Biz muttasil shu bir butunlik sari u yoki bu darajada yo ketayotgan yoki aniqrog‘i shu yo‘lga tushgandaymiz”¹⁰³, – degan xulosaga keladi olim. Xaydegger nazdida bu olamdagagi barcha moziy, bugun va kelajak va ularning barisi o‘zaro uyg‘unlikda borliqni shakllantiradi.

Bizni qiziqtirgan jihat – davlatda shu yaxlitlikning son-sanoqsiz emanatsiyasi, ko‘rinish berishida barcha ijtimoiy jarayonlarni uning qamrab olish xususiyati mavjudligidir. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonning namoyon bo‘lish uslubi va shakli sifatida davlatning butun tarixi mobaynida hayotning muhim jihatlarni

¹⁰² Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибининг “Қутадғу билиг” асари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1991. – Б. 55.

¹⁰³ Хайдеггер М. Основные понятия метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9. – С. 116.

qamrab olishi, uni o‘z faoliyatida namoyish etishi o‘ziga xos qonuniyat. Ammo tabiiy sharoiti, ijtimoiy munosabatlar tartiboti va shu asosda olamni tasavvur va ifoda etishda hamma jamiyatlarda bir biriga o‘xshashlik bo‘lishi mushkul. Ularning ma’naviy-madaniy asoslarida, boy tarixiy tajribasi va uni kelajak avlodlarga yetkazish uslublarida ham ko‘plab xususiyliklar mavjud.

Ammo tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan ayni paytda davlatning tarixiy-madaniy an'analar, andozalar tashuvchisi ekanligi bilan bog‘liq masala muhim. Shu kontekstni O‘zbekistonga tatbiq qilib ko‘radigan bo‘lsak, kundalik hayoti, orzu-niyatlar ro‘yobi, barqaror va farovonligimizni davlatning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda tasavvur qilish o‘zbeklarga xos ustuvorlik ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Bizning milliy dalvatchiligidiz necha ming yillik qadim tarix va boy madaniyatga ega”¹⁰⁴, – deganda Prezident Sh.Mirziyoyev uning jahon tarixida tutgan o‘rni bilan bir qatorda xalqimizga xos noyob tajriba/madaniy salohiyatimizni, uning ichki tuzilmalaridagi o‘ziga xoslikni nazarda tutgan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Ajdodlarimiz ongida davlat va davlatchilik alohida nufuz kasb qilganligi tarixdan ma’lum. U bizgacha yetib kelgan nodir qo‘lyozmalar va bitiklarda o‘z aksini topib madaniy merosimizga aylangan va shu tarzda ajdodlar ongu tafakkuri, faoliyat mentalitetini shakllantirgan. Xalqimizga xos ma’naviy-ruhiy resursga baho berar ekan, Birinchi Prezident: “Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi bu hudud, ya’ni bizning vatanimiz Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda... Diniy va dunyoviy bilimlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rk-u fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimizda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, axloq, falsafa, tibbiyot,

¹⁰⁴ Мирзиёев Ш. Ташки ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчилари фаолиятига бағишенгандаги нутқ // Халқ сўзи. 2018, 14 январь.

matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lган xalq dunyoda kam topiladi¹⁰⁵, – degan edi. Ushbu fikrni bayon yetar ekan, muallif, bir tomondan – ularning bizgacha etib kelishida bosh kafolat bir necha ming yillik tarixga ega o'zbek davlatchiligi an'analariga xos o'tmishni ardoqlash, bugungi avlodga tuhfa etish madaniyati xalqimizning bosh fazilatlaridan biri bo'lганligini va boshqa tomondan esa, zamonaviy o'zbek davlati ham ushbu an'anani qattiq turib davom ettirishga mas'ulligini alohida ta'kidlagan ko'rindi.

Madaniy merosni misqollab yig'ish jarayoni odatda ming yillarni o'z ichiga oladi. Bitiklarning tilida, yozuv uslubida davrlar o'tishi bilan anchagina farq ko'zga tashlansa hamki, ammo bir narsa aniq, u ham bo'lsa, ularning har birida xalqimizning doimo sergak, zamon va makonlar osha bag'rikeng tafakurining evolyutsiyasi o'z aksini topgan. Zero, ikki tarixiy davr uchun dunyoni aynan bir xil idrok etish bo'lmaydi. Nainki falsafa – bu tafakkurda aksini topgan davrdir.

Mavjud osori atiqalar tadrijiyligiga jiddiy qarasak, ularning har birida ajdodlarning bir-biridan farqlanuvchi tafakkur yo'nalishi, davlatni idrok etishda ham chuqur evrilishlar, umrguzaronlik kechayotgan muhitning xususiyatlarini kuzatamiz. Ular orasida u yoki bu ramzlar orqali bugungi kungacha yetib kelganlari ham talaygina. Biroq tadqiqotimiz jarayonida bir narsa, ajdodlarimizga, millatimizga xos bir jihatni, u ham bo'lsa, o'zbek davlatchiligidagi madaniy meros, madaniyat bilan uyg'unlashish alohida o'rin tutganligini anglab yetdik. Shu asosda o'zbek yurtida biror bir xalqda uchramaydigan beqiyos davlat konsepsiyasiga asos solindi. Tub xalq, ajdodlar qanday tilda so'zlashishi yoki qaysi etnotoponimga mansubligidan qat'iy nazar, davlatchilikning noyob o'ziga xos yo'lidan borib, shunday davlat shaklini yaratdilarki, unda o'zbeklarga xos bag'rikenglik bugun hayotbaxsh ekanligini namoyish etdi.

Mutaxassislarning ta'kidlashiga ko'ra, shu o'lkada yashab ketganlar davlat qurilishida boshqalardan yotsiramadi, aksincha, ularning ijtimoiy-siyosiy

¹⁰⁵ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулокот. – 1998. – №5. – Б. 1.

tajribasini ham qunt bilan o'rganishdi, ulardan jamiyatni birlashtirish va uni boshqarish bo'yicha arzigulik jihatlarni mahalliy madaniy sharoit bilan uyg'unlashtirdi. Jamiyatni boshqarish borasida arzigulik tajribaga ega bo'lgan ajdodlarimiz yon atrofidagi nisbatan boshqacha davlat shakliga ega bo'lgan xalqlar bilan bu borada hamkorlik amaliyotiga sodiq qoldi. Shu boisdan, o'zbek davlatchiligi dunyo taraqqiyotining boshqa fazalarida turgan yon qo'shnilar, jumladan Dashti Qipchoq o'zbeklari boshqaruv uslubidagi turkiy sulolalarga xos boshqaruv madaniyatining ayrim jihatlarini "an'anaviy diniy-dunyoviy siyosiy tartibot bilan uyg'unlashtirdi"¹⁰⁶.

Pirovardida uzoq va yaqin ajdodlar – ota-bobolarimiz shu'uri, tafakkuriga xos bag'rikenglik, o'zga xalqlarga nisbatan hurmat-e'tibor singari gumanistik qadriyatlar tufayli davlatimiz ma'no-mazmuniga ko'ra sivilizatsiyalar kesishish joyi bo'lishga erishdi. Bag'rikenglik, o'zgalarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish madaniyati, barcha zamonlar taftiga yo'g'rilgan davlatimiz xususiy fazilatlarini boshqalar bilan baham ko'rdi. Ajdodlarimiz yaratgan jamiyatni boshqaruv uslubiga havas bilan qaragan bag'dodlik davlat arbobi va olim al-Movardi o'zbek elida sultonlik ahkomlari va boshqaruvning barcha qirralari ko'rinish bergenligini o'z asarlarida yozib qoldirgani bejiz emas¹⁰⁷.

Ma'lumki, davlatning shakllanishi, mustahkamlanish jarayoni hamma joyda har xil yo'nalishga ega bo'ladi va bu ob'yektiv holat. Ba'zan bu jarayon mojaroli, murakkab kechishi ham kuzatilgan. Davlatchilikning mohiyatan madaniy-ma'naviy jarayon ekanligi, uning qanday bo'lishi va qanday faoliyat olib borishi tarixiy-madaniy muhitning in'ikosi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, O'zbekistonda barcha zamonlarda davlatning birlashtiruvchilik salohiyati xalqimizga xos bag'rikenglik bilan muvofiqlikda kechdi. Uni davlat va islom ahkomlari o'rtasida o'ziga xos hamjihatlikda ko'rishimiz mumkin.

G'arb dunyosiga xos diniy va dunyoviy boshqaruv uslublari o'rtasidagi o'zaro qonli to'qnashuvlar, ko'plab insonlarga, millatlarga, konfessiyalarga jiddiy

¹⁰⁶ Камолиддин Ш.С. "Географическая карта Средней Азии Василио Ватадзи". – Т., 2005. – С. 33.

¹⁰⁷ Жўраев З. Мовардийнинг Шарқ давлатчилик таълимоти (Х-ХI асрлар). – Б. 23-24.

zarba bergenligini yodga tushirish zahoti yurtimizda farqli o‘laroq davlatning xattiharakati uning jipslashtiruvchi salohiyati bilan belgilanganligi o‘z-o‘zidan oydinlashadi. O‘zi yashagan davrdagi davlatlarga qarata I.Kant “bugungi kunda ular o‘zlarining tor maqsad-manfaatlarini ko‘zlab bosqinchilik, talonchilikka qo‘l urishdan ko‘ra, o‘zining ichki ravnaqi haqida o‘ylaganlarida edi, unda o‘zini ham va boshqalarni ham madaniy tubanlikdan xalos qilgan bo‘lar edi”¹⁰⁸, degan ekan. O‘zbek yurtida aksincha, ajdodlarimizga xos islomgacha va uning sharofati bilan yanada ravnaq topgan ruhiy-ma’naviy daraja davlat boshqaruvida mutlaqo yangi unsur, konsensual yo‘nalishning paydo bo‘lishida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Jamiyat va davlat boshqaruvining o‘zbek shakli va uslubi hanuzgacha jahon intellektual hamda siyosiy elitasini hayratga solmoqda, ular undagi bag‘rikenglikning qudratini yuqori baholashda davom etmoqda. Jumladan, Tehron pedagogika universiteti profesori Ibrohim Xudoyor “Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyadagi ma’ruzasida boburiylar sultanatida ayniqsa eroniq qavmlar, o‘zbeklar madaniyati va tili yanada rivoj topdi, musulmon hindular, urdu tili, umuman Hindiston yarim orolidagi boshqa madaniyatlar ham gullab yashnadi. Sharq sivilizatsiyasining nurli rivojida ushbu bosqich eng porloq va eng shonli davrlardan biri sifatida qoldi, degan bo‘lsa, hindistonlik mutaxassis Sunita Dvivedi “Bobur shaxsiyati Markaziy Osiyo bilan Hindistoni ma’nana bog‘lab turuvchi rishtadir”¹⁰⁹, deb eronlik hamkasbining fikrini yanada oydinlashtirdi. Shu nuqtayi nazardan konferensiya ishtirokchisi – tabiatshunos, serqirra tafakkur sohibi Karimjon Toyjonovning “Zamon zayli bilan o‘z yurtini qo‘yib o‘zga yurtlarga ravona bo‘lganligini, “bu qanday baxtiqarolik bo‘ldi” deb zorlansa hamki, Boburning afg‘on va hind ellarida amalga oshirgan obodonchilik ishlari hanuz tahsinga sazovor”¹¹⁰, degan fikri o‘zbek davlati, o‘zbek davlatchilik an’analalarining ko‘lamli ta’siridan boshqa xalqlar ham bahra olganligining o‘ziga xos ko‘rinishi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

¹⁰⁸ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – М., 1966. – С. 19, 20.

¹⁰⁹ Захириддин Мухаммад Бобурнинг жахон маданияти тарихида тутган ўрни. – Тошкент, 2013. – Б. 79.

¹¹⁰ O’sha manba. – Б. 153, 39.

Tadqiqotning avvalgi qismlarida odatdagiday davlatni faqat hokimiyat organi sifatida tor va sodda tushunishning yetarli emasligi, uning ustuvor darajada millionlab insonlarning jamoaviy safarbarligi, kuch-qudrati timsoli va qolaversa uni namoyish etish quroli ham ekanligi bir necha bor ta'kidlangan. Davlat faqat nazorat va majburlash sub'yekti emas, u birinchi navbatda xalq xohish-irodasining yorqin ifodasidir. Shu maqomda davlatni xalqning ezgu orzu-umidlari va maqsadi, madaniyati va ruhiyatining boshqa bir ko'rinishi, falsafa tilida emanatsiyasi desak joiz bo'ladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda davlatning salohiyati, nufuzi hamda uning ma'naviy ta'sirini, amerikalik faylasuf Dj.S.Nay fikriga ko'ra, uning ishontira olish va jozibadorlik qobiliyatini "yumshoq kuch"¹¹¹ belgilamoqda. Bu vogelik nafaqat ilmiy doiralar, qolaversa siyosiy elita ongi va tafakkurida ham chuqur iz qoldirmoqda. Insoniyatning anglab yoki aksincha anglamagan holda davlatni tarixiy davr va asnolar talabi asosida tushunish, unga nisbatan qotib qolgan an'anaviy yondashuvdan voz kechishi mavridi kelgan ko'rindi. Afsuski, bunday umumjahon transformatsiyani munosib idrok etish hammaga ham barobar yetib bormayapti. Davlat omilini kundalik yumushlardan kelib chiqib shunchaki jo'n tushunishdan keskin yiroqlashish zarurligini anglash sekin kechmoqda. Nainki, u jamiyatni tashkil etishning eng oliv shakli/qurilmasi, shu tarzda ilohiy kuch, jamiyatni asrashga javobgar sub'yektlardan eng asosiysi ekanligi reallik, bor gap.

Holbuki, davlat tom ma'noda ijtimoiy-madaniy kamolot tadrijiyligining buyuk natijasi, inson ma'naviy-ruhiy kuchining ramzi, ifodasi. Madaniy barkamollik va bardavomlik mahsuli sifatida davlat inson ruhiyati tirik ekan, u ham barhayot, abadiydir. Inson mavjud ekan – davlat ham uning xohish-irodasi, tayanch kuchi sifatida mavjuddir. Qaysidir ma'noda davlatni o'ta murakkab, ko'p jihatdan sir-u asrorga boy insonning emanatsiyasi deyish ham mumkin. Muhimi shundaki, insonda mavjud insonparvarlik uning o'ziga unchalik ham sezilmasa-da, u albatta davlatda o'z aksini topadi. Shu ma'noda, davlatni inson dunyoqarashi, ruhiyatining boshqa bir shakli, desak ham xato qilmagan bo'lamiz.

¹¹¹ Особенности современных интеграционных процессов на постсоветском пространстве / Материалы международной конференции. – Ялта, октябрь, 2014 // США –Канада: экономика, политика, культура. – 2015. – № 1. – С. 39.

“Davlat – san’at asari emaski, yaratilgan bo‘lsa. Aksincha, u o‘z-o‘zidan yaralgan, yo‘qdan bor bo‘lgan sub’yekt, shu bois u ham inson qusurlaridan, o‘z-boshimchalik, zo‘ravonlik, tasodiflar va yo‘ldan chiqishlar muhiti/dunyosida mavjuddir”, – degan ekan Gegel¹¹². Demak, davlatga, birinchi navbatda, inson fazilatlari va ezgu qadriyatları tizimidan chiqib munosabat bildirilsa ko‘p narsalar oydinlashar ekan. Davlat inson va jamiyatdan ayro bir sub’yekt – ob’yekt emas. Shunday ekan, davlat dunyoga kelibdiki, inson ruhiyati, kuch-qudrati, ijodi, dunyoqarashining beqiyos maskani hamda tashuvchisidir.

Ilmda har bir alohida milliy davlatni dengiz, suv havzalarining sayoz joylarida har doim uchraydigan chig‘anoqqa, millat madaniyatini esa, chig‘anoqning ichidagi tirik organizmga nisbat qilishadi va bu ayni muddao. Tasavvur qiling, mabodo chig‘anoq bag‘ridan tirik organizmni olib tashlagan zahoti u qurib, barbod bo‘ladi. Demak, chig‘anoq – bu davlat bo‘lsa, unga jon ato etib turgan jism – bu millat madaniyati. Xulosa shuki, o‘z madaniyati, qon tomiridan ayrilgan, uni mensimagan davlat hech qachon bo‘lmagan, mabodo bo‘lganda ham milliy davlat deb atalishga haqli emas.

Tarix, kundalik kuzatuvlar har bir davlat faqat o‘ziga xos qurilmaga egaligini ko‘rsatib kelmoqda. Davlat, umuman olganda, institut sifatida barcha mintaqalar uchun barobar tub universal parametrlarga ega. Biroq shu tarzda u turlituman geografik kengliklarda, ayrim holatlarda biri biridan mutlaqo bexabar, ammo tarixan bir paytda vujudga kelgan milliy davlatlardagi holatni baribir o‘zida qamrashga ojiz. Davlat ijtimoiy bir butunlik tarzida umumiyl fundamental tomonlarni namoyish etsa-da, baribir har bir milliy davlat “o‘z hayoti”, yashash uslublariga ega. Zero, bir butunlik – qismlarning shunchaki yig‘indisi yoxud in’ikosi emas.

Shunday ekan, har bir davlat tarixiy-madaniy yo‘li alohida o‘z madaniyati tashuvchisi, faqat uning ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Xususan, o‘zbek davlati va davlatchiligi xususida o‘ylar ekan, Birinchi Prezident, “biz komil inson tarbiyasini

¹¹² Гегель. Женская реальная философия // Гегель. Работы разных лет. В 2-х томах. – М.: “Наука”, 1970. Т. 1. – С. 358-359.

davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganimiz, ...xulq-atvori bilan o‘zga-larga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz... U har bir narsani aql va mantiq tarozisiga solib ko‘radi”¹¹³, deganda o‘zbek ma’naviyati, ruhiyat va kerak bo‘lsa mentalitetining o‘ziga xos noyob jihatlarini nazarda tutgan.

O‘zbek milliy davlati, davlatchiligi madaniy qadriyatlar, milliy ruhiyat, an’analar tashuvchisi sifatida, ming yillar avval donolar tafakkuridan joy olib, zamonaviy davlatchilikka doir dolzarb fikrlarni o‘zida jo etdi. Forobiy bobomiz “birinchi boshliq shunday odamki, u barcha fuqarolar faravonligi va bunyodkorlik uchun javobgar, uning boshqalardan afzal ekanligiga kafolat – bu tabiiy ma’naviylik”¹¹⁴, – degan ekanlar. O‘zbek ma’naviyati, dunyoqarashida necha asrlar o‘tib-diki, komil inson g‘oyasi zamonaviy o‘zbek davlati siyosatining bosh mezoni darajasiga ko‘tarildi. Davr shafqatsiz sinovlariga qaramasdan xalqimiz madaniyatiga xos muhim jihatlarning saqlanib, bugungi avlod tarbiyasiga xizmat qilishida o‘zbek davlatining “an’anaviylik – zamonaviylik”, tadrijiylikni asrash qobiliyati muhim rol o‘ynadi.

Davlat barcha hududlarda “ijtimoiy shaxs” sifatida ko‘rinish beradi. Davlat davrlar o‘tib o‘zining kimligini, xalq va qolaversa insoniyat oldidagi burchi va mas’uliyatini chuqur sezish majburiylik emas, aksincha qalb amri bilan barcha ezgu ishlarga tayyor ijtimoiy-siyosiy sub’yekt ekanligini isbotlay oldi va bu jihat zamonaviy o‘zbek davlatiga ham xos. U barcha zamonlarda xalqimiz ruhiyatni aynanligini muttasil mustahkamladi va o‘zi ham shundan baha oldi. Davlatimiz tarixiy taraqqiyot bosqichlarining barida moddiyunchilikka ruju qo‘ymaganligi orqali o‘z nomini dunyo tarixi zarvaraqlarida abadiy muhrlashga erishdi. Bugungi kunga kelib O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaganligini aynan shu yuksak ma’naviyatining natijasi, amaliyoti desa bo‘ladi.

Birinchi Prezidentning, – “Agarki daraxtning ildizi qanchalar chuqur bo‘lsa, u shunchalar baland, baquvvat, osmono‘par bo‘ladi. Zamonaviy til bilan aytish lozim bo‘lsa, bino qanchalik baland bo‘lsa, uning poydevorini ham shunchalik

¹¹³ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – 1998. – №5. – Б. 3.

¹¹⁴ Қодиров М. Абу Наср Форобий фазилат, баҳт ва камолот ҳақида. – Тошкент, 2001. – Б. 47.

chuqur va mustahkam qurish kerak”¹¹⁵, – degan fikrini davom ettirish joiz bo‘lsa, u holda milliy madaniyat, milliy tafakurimiz mahsuli bo‘lmish davlatimizni bugungi notinch davrda yanada mustahkamlashimiz, bu yo‘lda uning tayanchlaridan biri madaniyatni yanada yuksaklikka ko‘tarish zarurligini alohida ta’kidlash joiz. Zero, ildizi mustahkam bo‘lgan davlat ruhan ulug‘vorlik va serviqorlikka yo‘g‘riladi. Prezident Sh.Mirziyoyev uchinchi o‘zbek renessansi, uning muqarrarligini aynan madaniyat omili bilan uyg‘unlikda ko‘rishi ham shu asosga borib taqaladi. Shu boisdan oliv siyosiy rahbariyat mustaqilligimiz zalvorli sinovlar qarshisida turgan paytlarda, xususan milliy ma’naviyatimiz bog‘liq masalaga jiddiy e’tibor bilan yondashdi.

Zamon, xalq, kerak bo‘lsa bashariyat aynan shunday paytlarda odatda davlatni sinovdan o‘tkazadiki, shu paytlarda rahbariyat, xalq boshqacha bir asosda faoliyat yuritishi zarur edi. Uning oldida son-sanoqsiz muammolar paydo bo‘ldiki, ularga nisbatan millatning javobi uning bunyodkor a’moli, xalqning dili va ehtiyojiga mos ishlardir. So‘z milliy ruhni ko‘tarish, milliy aynanlikni chuqur anglash vazifasi haqida bormoqda. Jahonga Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergen bu millat XVII-XIX asrga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan nega tushib qoldi? Nega so‘nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? degani davlatimiz taqdiridagi shu murakkab asnlarda mamlakat, xalq uchun quvvat bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida yechimini topish shart bo‘lgan bunday savolning zamirida chuqur sabablar yotgan. Shulardan biri, ijtimoiy-madaniy hayotimizda yuz bergen tanazzulning bosh sababi asrlar osha sinovdan o‘tgan milliy davlatchiligidan berilgan jiddiy zarba, aniqrog‘i uning deyarli barham topganligi edi. Zero, davlat va ijtimoiy-madaniy yuksalish bir narsa, Sharq xalqlaridan birining ta’biri bilan ifoda qilish joiz bo‘lsa, “biri – ikkinchisi yoxud biri boshqasining tegrasida” mavjud. Shunday ekan, ijtimoiy-madaniy yuksaklik

¹¹⁵ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулокот. – 1998. – №5. – Б.

davlatning o‘zida, uning beqiyos ma’naviy salohiyatida “yashiringan” bo‘ladi. Aynan XVII-XIX asrlar o‘zbek tarixida tom ma’noda fojiali davr bo‘ldi – milliy davlatimiz avval majolsizlikka yuz tutib, so‘ngra umuman barham topdi. Yurtimiz taqdiri dunyo xalqlari boshdan o‘tkazgan mustamlakachilik, irqchilik va sayyoraviy hukmronlikka da’vo qilish, nisbatan kuchsiz inqiroz davrini boshdan kechirayotgan xalqlarning qullik holatiga tushishi, qurol-yarog‘ nuqtayi nazaridan ilgarilab ketgan davlatlar o‘rtasida dunyoning taqsimlanishi singari noxush jarayonlardan chetda qololmas edi. Davlat bor bo‘lganda ham o‘z hududi, moddiy hamda ma’naviy boyligiga bo‘lgan suverenitet o‘z kuchini yo‘qotgan davr edi.

Ana shu tashqi va ichki salbiy jarayonlar milliy davlatimizga jiddiy ta’sirini o‘tkazdi. Natijada davlat jamiyatni jipslashtirish, xalqning moddiy va ma’naviy farovonligi va salohiyatini ko‘tarish, eng muhimi ajdod va avlodlar tadrijiyilagini asrashdek dolzarb yumushlaridan chetlatildi. Davlat ajdodlar o‘giti, nidosini avlodlarga uzatishga doir bosh vazifasini o‘tashdek muqaddas burchdan begonalashdi. Fikrimizning isboti uchun qaysi davrda mustahkam davlat tuzumi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrda ijtimoiy-madaniy hamda ma’naviy mavjlanish bo‘lganligini eslashning o‘zi kifoya. Xalqning yorqin va shonsharaflarga burkangan davri Afrosiyob – Alp Er To‘nga saltanati¹¹⁶, temuriylar davri, mohir sarkarda va davlat arbobi Boburning dunyo ma’naviy holatiga ta’siri va boshqalar shular jumlasidan.

Davlatimiz oliy siyosiy rahbariyatining temuriylar davlatini zamondoshlar siyosiy-ma’naviy mulkiga aylantirish, uni davlat va jamiyatni boshqarish uslubidan bahramand qilish yo‘lida mustaqillikning dastlabki vaqtlaridan e’tiboran katta tadbirlarga bosh-qosh bo‘lganligining zamirida ana shu haqiqat yotadi. Chunki ulug‘ bobomizning davlatni boshqarish borasidagi fikrlari o‘z davri va kelgusi avlodlar, umuman bashariyat uchun ma’naviy-ruhiy boylik. Sohibqironning bu sohadagi siyosiy g‘oya va amaliyoti kerak bo‘lsa xalqimiz ma’naviy madaniyatidan joy olib, davrlar sinoviga bardosh berishga qodirligini bugun to‘la-to‘kis isbotlay oldi. Buyuk ajdodlarimiz davlatchilik tajribasi allaqachon tarixga

¹¹⁶ Qarang: Тўхлиев Б. Юсуф хос Ҳожибининг “Кутадғу билиг” асари. – Тошкент, 1991.

aylansa-da, jahon hamjamiyatining e'tiboriga allaqachon tushib ulgurdi. Zero, dunyodagi barcha davlatlar ma'naviy-ruhiy maqomida, har biri o'ziga xos va o'ziga mos yo'nalish tanlaydi va shu orqali jahon madaniyatida o'chmas iz qoldiradi.

Davlatni millat madaniyatini nafaqat asraydigan va boyitadigan, balki uni asrlar osha avlodlarga yetkazuvchi kuch-qudrat deb hisobladik. Jamiatni tartibga solish va boshqarish, shu orqali fuqarolar hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lish, qolaversa ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida muttasil muloqotni ta'minlash va ularni real kuchga aylantirishdek buyuk qudrat faqat davlatga xosligi, bugun zamonaviy yangi o'zbek davlatining sermahsul faoliyatida o'z ifodasini topdi. Ming yillarni qamrab olgan, ichki va tashqi tazyiqlardan bugunga bus-butun yetib kelgan o'zbek davlati boy an'ana va tajribasiga tayangan holda, davlat uchun ajralmas bunyodkor salohiyatni dunyoga ko'z-ko'z etish imkoniyatiga ega.

Ushbu qismni muxtasar etar ekanmiz, bugungi bosqichda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish bosh strategik yo'nalish kasb etmoqda. Ko'p ming yillik tarixiga ega o'zbek davlati bag'rida qanchadan qancha ma'naviy kuch mavjudligi, undan faqat o'zimiz uchun emas, qolaversa dunyo taraqqiyoti yo'lida foydalanish mumkinligi Prezidentning yangidan-yangi siyosiy tashabbuslarida o'z ifodasini topmoqda. Boy tarixiy-madaniy asosga ega va bugun shunga tayangan holda, O'zbekiston rahbariyati aynan o'zbek davlatining salohiyatini yanada oshirish yo'lida va shu orqali davlatning kuchi, qudratiga yangi turkti berish borasida asrlarga tatigulik ish olib borishi tufayli yangi o'zbek davlati o'zining buyuk madaniyat va sivilizatsiyaning benazir natijasi ekanligini isbotlashga ulgurdi.

Ikkinch bob yuzasidan xulosalar:

1. Avtonom ijtimoiy institut sifatida davlat qandaydir bir kuchlar tomonidan tashqaridan olib kirilgan jamiatni boshqarish vosisi emas, balki individning ko'p qirrali intilish hamda manfaatlari, ehtiyojlariga erishishi yo'lida o'z salohiyatidan foydalanishning o'ziga xos shaklidir. Shu asosda davlat hokimiyatining mohiyati birdan bir bosh ijtimoiy-siyosiy mavjudod bo'lmish inson

tabiatining voqeligidagi o‘zini namoyon etadi. Undagi imkoniyat va kuch, ulardan huquq doirasida foydalanish; jamiyat barqarorligi va farovonligi uchun javobgar tuzilmalar hamda muassasalarning bari ushbu jamiyatning ajralmas qismi – xalqning xohish-irodasi, umumjamoaviy ong hamda tafakkurning yuzaga chiqishidir. Davlat shunchaki sun’iy yaratilgan vosita emas, aksincha ajdodlar, zamondoshlar va hatto kelgusi avlodlarning umumiyligi xohish-irodasi, salohiyati namoyishi ifodasi sifatida barcha zamonlar va barcha joylarda manfaatni anglash nuqtayi nazaridan individdan keskin farq qiladi. Agar individ, har qanday vazifa bo‘lmisin, o‘z xususiy intilish va manfatlari doirasida faoliyat yuritsa, undan farqli o‘laroq davlat umumxalq, umumjamiyat, demak, siyosat ishiga o‘zini baxshida etish jarayonida tom ma’noda siyosiy mohiyatga ega buyuk qudrat ro‘yobi sifatida o‘zini ko‘rsatadi. Shu asosda davlat tarix, insoniyat, bashariyat va to‘laqonli hayot kechirayotgan insonlar oldida o‘zini oqladi va shunday bo‘lib qoldi.

2. Tarixiy xotiraning ulkan qudratini his etar va qadrlar ekanmiz, bu yerda uni asrab kelayotgan eng asosiy kuch – davlat ekanligini bir soniya ham unutmaslik lozim bo‘ladi. Davlat bugungi avlod, zamondoshlar uchun zarur ruhiy ozuqa tarixiy-madaniy resursni asrab, dahshatli sinovlar, olovlardan bus-butun saqlab keldi. Shu ma’noda davlat millat, xalq, ona zamin uchun zarur ma’naviy quvvatning ham soqchisi va ham tashuvchisi vazifasini bajaradi.

3. Davlat tom ma’noda ijtimoiy-madaniy kamolot tadrijiyligining buyuk natijasi, inson ma’naviy-ruhiy kuchining ramzi, ifodasi. Madaniy barkamollik va bardavomlik mahsuli sifatida davlat inson ruhiyati tirik ekan, u ham barhayot, abadiydir. Inson mavjud ekan – davlat ham uning xohish-irodasi, tayanch kuchi sifatida mavjuddir. Qaysidir ma’noda davlatni o‘ta murakkab, ko‘p jihatdan sir-u asrorga boy inson borlig‘ning ro‘yosi deyish ham mumkin. Muhimi shundaki, insonga xos gumanizm uning o‘ziga unchalik ham sezilmasa-da, albatta u davlatda o‘z aksini topadi. Shu ma’noda, davlatni inson dunyoqarashi, ruhiyatining boshqa bir shakli, desak ham xato qilmagan bo‘lamiz.

4. Davlatni millat madaniyatini nafaqat asraydigan va boyitadigan, balki uni asrlar osha avlodlarga yetkazuvchi kuch-qudrat deb hisobladik. Jamiyatni tartibga

solist va boshqarish, shu orqali fuqarolar hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lish, ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida muttasil muloqotni ta'minlash va ularni real kuchga aylantirishdek buyuk qudrat faqat davlatga xosligi, bugun zamonaviy yangi o'zbek davlatining sermahsul faoliyatida o'z ifodasini topdi. Ming yillarni qamrab olgan, ichki va tashqi tazyiqlardan bugunga bus-butun etib kelgan o'zbek davlati o'zining boy an'ana va tajribasiga tayangan holda, umuman davlatning xos bunyodkorlik salohiyatini dunyoga ko'z-ko'z etish imkoniyatiga ega. Bugungi bosqichda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish bosh strategik yo'nalish kasb etmoqda. Ko'p ming yillik tarixiga ega o'zbek davlati bag'rida qanchadan qancha ma'naviy kuch mavjudligi, undan faqat o'zimiz uchun emas, qolaversa dunyo taraqqiyoti yo'lida foydalanish mumkinligi Prezidentning yangidan-yangi siyosiy tashabbuslarida o'z ifodasini topmoqda. Boy tarixiy-madaniy asosga ega va bugun shunga tayangan holda, O'zbekiston rahbariyati aynan o'zbek davlatining salohiyatini yanada oshirish yo'lida va shu orqali davlatning kuchi, qudratiga yangi turtki berish borasida asrlarga tatigulik ish olib borishi tufayli o'zbek davlati o'zining buyuk madaniyat va sivilizatsiyaning benazir natijasi ekanligini isbotlashga ulgurdi.

III BOB. MILLIY-MADANIY QARASHLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDA AKS ETISHI

3.1. Milliy an'analar va qadriyatlarni asrashda davlatning mas'uliyati

Tadqiqotning yuqorida yoritilgan fasllarida davlatning tarkib topishi va insoniyat aql-zakovati rivojida inqilobiy ahamiyat kasb qilganligi, uning jamoaviy ong, tafakkur va intilishning tabiiy natijasi ekanligi, ijtimoiy guruh yoki sinf tomonidan yaratilmaganligi, tabiiy-ijtimoiy transformatsiyalar, munosabatlar zanjirining noyob hosilasi ekanligi bilan bog'liq muammolarga ustuvorlik berildi. Ijtimoiy-siyosiy intilishlar jarayonida yuzaga chiqqan institut, jamiyat hayoti va faoliyati tashkil etilishining o'ziga xos shakli, xalqqa xos buyuk jamoaviy yaratuvchi kuch va ulkan ichki salohiyat/ruhiyatning noyob bir ko'rinishi sifatida davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotida alohida o'ringa ega ekan. Navbatdagi bob va fasllarda jumladan davlatning immanent xususiyatlaridan biri – milliy an'analarini asrashga javobgarligi xususida so'z boradi.

Yer kurrasidgi barcha xalqlar va sivilizatsiyalarning milliy ma'naviy merosiga munosabatini yuksak baholagan holda mintaqamizning, yurtimizning bu jahoniy jarayondagi o'rniga alohida e'tibor berish adolatdan bo'lur edi. Uning uchun empirik va tahliliy asoslar yetarli. Ayrimlar qanday talqin qilsa qilaversin-u, ammo Sharqda an'analar, an'anaviylik alohida nufuzga ega ekanligi bugungi kun nuqtayi nazaridan allaqachon ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. Xususan, "Bengaliya Renessansi" nomi bilan tarixdan joy olgan madaniy jarayonning atoqli namoyandalaridan biri Krishnamoxan Banerdji o'zining bir chiqishida "Sivilizatsiya aslida Osiyoning qadimgi nurli va shon-shuhratga burkangan asnolaridan boshlangan. Yozuv va yozishmalarning paydo bo'lishi, davlat boshqaruvining umidbaxsh shakllari hamda uslublarining yaratilganligi va amal qilishi, qonunlarning joriy qilinishi, va qolaversa, davlatning jirkanch kimsalarga nisbatan o'z kuch-qudratini namoyish etishi va boshqa atributlari birinchi bor Sharq mamlakatlarida ildiz otdi". "Bilim va ilm yog'dusi, eng avvalo Sharq olamidan tarqalganligi" haqidagi fikr Hindistonning yana bir atoqli tafakkur

sohiblaridan biri Rammoxan Ray ilmiy merosida ham uchraydi¹¹⁷. Ushbu syujetni keltirishdan muddao u yoki bu shaklda (chunki har bir xalq uning o‘ziga mos shaklini tanlaydi) davlat, siyosiy boshqaruv va tuzilmalar paydo bo‘lgan joyda, milliy-etnik qadriyatlar va an’analarni asrash muammosi paydo bo‘lishi oddiy holat ekanligini ta’kidlashdan iborat. Nainki o‘tmish, bugun va kelajak zanjirini faqat davlat darajasida birlashgan xalq saqlab qoladi va shu tarzda avlodlar farovonligi, madaniy-ma’naviy ravnaqi uchun mustahkam asos yaratiladi. Davlatning gumanistik jihatni ham shunda va uning barcha mintaqalar uchun immanent ekanligi aksioma.

Ammo bu jarayon birinchi bor Sharqda, jumladan mintaqamizda chuqrildiz otdi. Bundan 2500 yillar chamasi avval alloma Kun FutSzi (Konfutsiy) masalaga yondashar ekan, “Kimda-kim ajdodlar silsilasini ulug‘lab, uni asrab qolsa – shu haqiqiy insondir. Kimki ajdodlarga nisbatan munosib hurmat-ehtirom bajo keltirar ekan – adolatpeshadir”¹¹⁸, degan ekan. Xitoyliklar tafakkur yo‘nalishiga ko‘ra, unday sa’y-harakatni faqat dono sultanat sohibi va u boshqarayotgan davlat tuzilmasi o‘z zimmasiga olishi shart. Zero, millat qadriyatlari va an’analarning bus-butunligi, tadrijiyligi, ya’ni ma’naviy-ruhiy quvvati faqat davlat orqali zaiflashmay bugungi avlodga etib keladi.

Bu yorug‘ dunyoda barcha ijtimoiy unsurlar o‘zaro bog‘liq, biri-birini taqozo etish orqaligina o‘z abadiyligini asrab qoladi. Davlatga aynan shu kontekstdan chiqib qaralsa, uning vujudga kelishdan muddaosi ham, yashovchanlik qobiliyati va salohiyati ham, o‘zligi va aynanligi ham boshqa ijtimoiy jabhalar bilan chambarchas bog‘liq. Ana shu “bog‘liqlik olami”ni yaratish ustuvor darajada davlatning vazifasi va mas’uliyati ekanligi o‘z-o‘zidan oydinlashadi.

Mazkur soha bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy jamoatchilik bugungi kunda u yoki bu darajada muhim bir xulosaga kelishdi: individlar, guruhlar, sotsiumlar, jamiyatlar millatga xos bunyodkor qadriyatlari, an’analari va

¹¹⁷ Скороходова Т.Г. Проблема «Восток-Запад» в социальной мысли Бенгальского Возрождения // Вопросы философии. – 2017. – №12. – С. 149, 151.

¹¹⁸ Удержание Изначального (Чжун Ион) / Перевод с китайского И.Канаева // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 131, 132.

ko‘nikmalar tizimiga rioya etsa yoxud ruhan o‘ziniki deb qabul qilsa-da, uni bus-butun asrab qolishga yolg‘iz o‘zlarining qurbi etmaydi. Zero, bu jarayonda qandaydir tashkillashtiruvchi, tartibga soluvchi yagona kuchga ehtiyoj mavjud. Bunday o‘ziga xos kemtiklikka javob topish uchun ilm-fandan allaqachon o‘rin olgan “begonalashuv nazariyasi”ga murojaat qilish joiz.

Begonalashuv har bir individga xos ijtimoiy potensialning bir qismi boshqa bir yuqori pog‘onadagi aktor (sub’yekt) foydasiga cheklanishini anglatadi. Demakki, bu o‘z navbatida, ijtimoiy tizimning asosiy elementi bo‘lgan subordinativ munosabatni taqozo etadi¹¹⁹. Shunday ekan, asosiy element, sub’yekt bu davlat ekanligi, uning alohida o‘ziga mos ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ruhiy qudratga egaligi, unga munosibligi xususida bormoqda.

Ushbu umumiy tendensiya, reallik haqida o‘ylar ekan, Martin Xaydeger masalaga quyidagicha aniqlik kiritadi: “Bunday bog‘liqlik, – deb davom etadi olim, – ijtimoiylik sharoitida yashash usulining birdan bir asosiy ko‘rinish bo‘lib, “begonalashuv” kundalik yumush va intilishlar muhitida insonni noshaxsiylashtirib, jamiyatning funksional qismlaridan biriga aylantiradi. Bu yerda alohida bir inson ekzistensiysi (kundalik yumushi/yashashi) ijtimoiy xulq-atvor hamda tafakkur tarzi bilan uyg‘unlashishi natijasida boshqa birov bilan o‘xshashlik kasb etadi”¹²⁰.

Ushbu fikrni soddallashtirish joiz bo‘lsa, u holda individ/inson umriga xos jamoaviylik, ya’ni sotsiobiogenetik xususiyati tufayli u ijtimoiylikning oliv pillapoyasi davlat foydasiga o‘z ijtimoiyligini cheklashi natijasida umumiy organizmning qismlaridan biriga aylanib, boshqalar ijtimoiy yumushi/faoliyatining ishtirokchisi tarzida o‘z salohiyatini namoyon etadi. Bu umumiylik uchun davlat yakkayu yagona javobgar.

Ayni paytda so‘z ustuvor darajada inson va davlat zanjirida ularning bir-biridan begonalashuvi emas, balki har birining salohiyati, imkoniyati ko‘laming to‘laqonli amalga oshishi yo‘li ustida bormoqda. Zero, fuqaro va davlat o‘z burchi,

¹¹⁹ Ризоев Ш.Х. К вопросу о социальной природе власти // Вопросы политологии. – 2018. – №8. – С. 33.

¹²⁰ Қаранг: Тощенко Ж.Т. Социология жизни как теоретическая концепция // Социс. – 2015. – №1. – С. 108.

maqsad hamda vazifalarini bir-biri qarshisida o‘zaro aniq belgilashi, anglab yetishi va keyinchalik uyg‘unlashtirilishi – bu umumiy tamoyil. Biroq bu umumiy tamoyilni har bir millat, xalq va qolaversa har bir fuqaro amalga oshirilishi zarur kundalik vazifalari bois har xil tushunadi, aniqrog‘i tushunish darajasi notekislik kasb etadi.

Millat atrofidagi bunyodkor qadriyatlar, an'analar, o‘zgacha ruhiy kuch bag‘ishlovchi udumlarni asrash zarurati davlat uchun har doim dolzarb bo‘lgan. Xalqning taqdiri uchun bevosita javobgar davlat, odatda, bunday zaruratni o‘z tarixidagi hal qiluvchi paytlarda tez va chuqurroq anglaydi. Jumladan, vatanimiz tarixida bunday davrlar ko‘p bo‘lgan, biroq ular orasida milliy mustaqillikning ilk soniyalari alohida o‘rin tutadi. Aynan shu vaqtarda tariximiz sahifalaridan mustahkam joy olgan fojiali yillar jonlanadiki, ularni qanchalik og‘ir va ayanchli bo‘lmasin – xalq chuqur idrok etishi zarur va muhim. Mutafakkir bobolarimiz hozirgi avlodni undan o‘z paytida ogohlantirgan.

Darhaqiqat, Abu Rayhon Beruniy bu xususda shunday deb yozadi: “Qutayba Xorazm xalqini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rganish va bilishni boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni mahv etib va butkul yo‘q qilib yuborgan edi. U xorazmliklarning kotiblarining kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o‘ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani bois, ular o‘z ehtiyojlari yo‘lida yodlash quvvatiga suyanadigan bo‘ldilar”¹²¹. Ko‘rinib turganidek, buyuk vatandoshimizning ilmiy merosida bugungi kun, millat manfaatlari nuqtayi nazaridan o‘ta dolzarb, doimo yodda tutish shart bo‘lgan nuqtalar mavjudki, uni anglamaslik noo‘rindir.

Darhaqiqat, xalqimiz arab bosqinidan avval ming yillarni qamrab olgan ijtimoiy-madaniy, axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan. Unga doir ma’lumotlarda, rivoyatlarda xalqimiz yaratgan madaniyat dunyo manzarasini u yoki bu darajada ifodalovchi yozuvlarni uchratamiz. Bosqinchilar tub aholini zaiflashtirish, butkul tutqinlikda ushlab turishning eng oson yo‘li uning yozuvini, xatini, kitobini, daftarini yo‘q qilish uchun mualliflarining boshini tanasidan judo qilishning o‘zi

¹²¹ Абӯрайхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 100, 101, 102.

yeterli ekanligini juda yaxshi bilishgan. Zero, yozuv va bitiklar barcha zamonlarda xalq salohiyati, donoligining ifodasidir. Xullas, kimning kim bo‘lganligi, kim bo‘lishligining jonli guvohlari bizga ana o‘scha nodir bitiklar orqali avlodlarga tuhfa qilindi.

Shukurlar bo‘lsinki, “Avesto”dan boshlangan o‘tmishdoshlarimizning buyuk yaratuvchilik qudrat namoyish etganliklari to‘la-to‘kis bo‘lmasa-da, ularda ajdodlarimizning ichki intilishlari aks topganligidan guvohlik beruvchi topilmalarni bugun bilish, tahlil qilish imkoniyatiga egamiz. Zero, ular haqida faqat yurtimiz olimlaridan tashqari dunyodagi boshqa mutaxassislarning ajoyib fikrlari ham talaygina¹²². Turli tomondan kelgan bosqinchi va talonchi to‘dalar yurtimizda qirg‘inbarotni amalga oshirishdi. Biroq buyuk Beruniy aytganidek, xalqning tarixiy xotirasini yo‘q qila olishmadi. U bugungacha bus-butun yetib keldi.

Ma’lumki, dunyoda birorta davlat, davlatchilik jarayoni uzoq va yaqin joylarda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalardan, o‘zining milliy qadriyatlari-yu an’analalaridan ajralgan holda qandaydir mustaqil asosga ega bo‘lмаган. Zamin, tarix, shonli hamda fojiali kechmishlar davlat uchun bitmas-tuganmas ruhiyat manbayidir. Chunki ma’rifatli sultanat bu masalada o‘z mas’uliyatini chuqr his etgan.

Ammo ma’naviy-ruhiy omilga, xolisona aytsak, faqat milliy mustaqillik yillariga kelib alohida e’tibor beriladigan bo‘ldi, milliy an’analarga yangicha munosabat davlat siyosatiga aylandi. Mamlakat oliy siyosiy rahbariyati uni chuqr anglab yetganligidan barcha xabardor. Ana shu taqdirbardor asnolarda “ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q, bu dunyoda”,¹²³ degan da’vat kundalik amaliyotning o‘q tomiriga, xalqimiz yurak amriga aylandi.

Darhaqiqat, an’analarga sodiqlik, ularga bugungi kun talablaridan chiqib yondashuv hamma millat va elat uchun siyosiy dolzarb bo‘lsa-da, uni anglash

¹²² Майданов А.С. Миф как средство сакрализации жизненного мира человека // Вопросы философии. – 2018. – №9. – С. 207-214.

¹²³ Каримов И. Буюк мақад йўлидан оғишмайлик // Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т. “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 200.

darajasi barcha xalqlarda birdek emas. Chunki bu ulkan ijtimoiy muammo. Ba’zi davlatlarda ilg‘or g‘oyani amaliyot darajasiga olib chiqish uchun zarur shartsharoit birmuncha chegaralangan bo‘lishi mumkin: uni tushunsa bo‘ladi. Biroq hatto qiyin va fojiali damlar ham bu muqaddas vazifani faromush qilishlikni oqlay olmaydi.

Tarixdan ma’lum, u yoki bu xalqqa o‘z milliy davlatini nafaqat qayta tiklash, zamonaviy davlatlar safiga kirish imkoniyati bilan bog‘liq tarixiy imkoniyat beriladi. Lekin bu imkoniyatga nisbatan befarq, beshuurlikda qolsa, oxir-oqibat mazkur millat o‘z davlatiga ega bo‘lish imkoniyati, haq-huquqidan mahrum bo‘ladi. Muammoni chuqurroq o‘rganish vazifamiz emasligini anglasakda, maqsadimiz unga erishish/erishmaslik faqat va faqat xalqning bu yorug‘ dunyoda kimligini anglash darajasiga borib taqalishini ta’kidlashdir. Nima bo‘lganda ham o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o‘laroq munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini mustahkamlash ishi mustaqillik davrining bosh strategiyasi darajasiga olib chiqildi. Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan uchinchi renessans yo‘lida umumilliy ko‘tarinkilik bu jarayonni yangi marralarga olib chiqdi.

Tabiiyki, bugungi o‘zbek davlatining nufuzi, bizning kimligimiz ming yillar avval ko‘pchilikka ma’lum edi va uni bugun alohida his etishning ahamiyati juda katta. Butun tarix mobaynida o‘zbeklar yon-atrofdagilarga yordam qo‘lini cho‘zdi va ular ham xalqimizga munosib javob qaytargan. Shu munosabat bilan Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan nufuzli xalqaro siyosiy darajalarda aytilgan xulosalar e’tiborimizni o‘ziga tortadi. Xususan, 2018-yil “Tinch jarayon, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy hamjihatlik” mavzusidagi Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro konferensiyada davlatimiz boshlig‘i muhim bir fikrni o‘rtaga tashladi. “Qadim-qadimlardan Amudaryoning ikki sohilida yashab kelgan kishilarni tildagi o‘xshashlik, umumiyl muqaddas din hamda bir xil ma’naviy qadriyatlar birlashtirib kelgan. Amudaryo biz uchun hayot manbayi bo‘lgan, ammo hech qachon odamlarning emin-erkin bordi-keldisi, mustahkam savdo-sotiq aloqalari, ilmiy

yutuqlarimizni ayriboshlash va madaniy hamjihatlikka to'sqinlik qilmagan”¹²⁴ligiga alohida urg‘u bergen Prezidentimiz.

Darhaqiqat, Amudaryo sohillarining har ikki tomonida yashab kelayotgan qo'shni xalqlar qalbidagi tarixan va ruhan hamjihatlik hissi o'ziga xos tabiiy qulaylik tug'dirgan, daryomiz xalqlarni ajratmagan, balki bu obi-hayot elatlarning bugungacha yetib kelishi, moddiy hamda ma'naviy farovonligiga beminnat xizmat qilgan. Zaminimiz – o'zbeklar maskani uchun turli xalqlarni bir-biriga birlashtirish buyuk qadriyat va bunyodkor an'ana darajasiga ko'tarildi. Bunday yaratuvchilik ishi, shubhasizki, davlat tufayli ro'yobga chiqqan. Davlatning shu an'anaga sodiq qolganligi va sobitqadamlik namoyish etganligi bois, O'zbekiston mustaqillik davrida bu jahada yangidan yangi marralar sari ishonch bilan intilmoqda.

Holbuki, milliy an'analar mabodo e'tibordan chetda qolsa, ularga davlat yangi hayot baxsh etmasa ular faqat ertaklar-u rivoyatlarda qolib ketgan bo'lar edi. Odatda milliy an'analar, g'oyalalar tarixiy jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan o'ta sezgir. Ular faqat tarixiy taraqqiyot bilan birgalikda yangi ma'no-mazmun kasb etib borar ekan.

Shunday bo'ladiki, uzoq davr “mudroqlik holatidagi” milliy an'ana, zamon taqozosiga ko'ra, nisbatan kutilmaganda dolzablashishi, buyuk bunyodkorlik ishitokchisiga aylanishi mumkin. Shunday ekan, Prezidentimizning 2018-yil iyun oyida Sindao shahrida bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorligi Tashkiloti a'zo davlatlari boshliqlarining oliy darajadagi sammitida jahon sivilizatsiyalari tarixiy chorrahasi hisoblangan Samarqandda “Ipak yo'li” turizm universitetini ta'sis etishga doir g'oya/tashabbusini ham aynan shu kontekstda qarash lozim¹²⁵. Darhaqiqat, o'zbek zamini/tuprog'i juda ko'plab xalqlar uchun “muloqot maydoni” bo'lib kelgan. Aynan shu go'shada elatlar, ming-minglab oddiy insonlarning bir-birini yaqindan bilishi, o'zaro samimiylilik va bag'rikenglik o'zbekistonliklarning ong va tafakkuridan chuqr joy olib, milliy qadriyatlarimiz, an'nalarimizning ajralmas qismiga

¹²⁴ Мирзиёев Ш. Выступление на международной конференции по Афганистану 27.03.2018 // Народное слово. 2018, 29 марта.

¹²⁵ Мирзиёев Ш. Выступление на заседании совета глав государств-членов ШОС // Народное слово. 2018, 12 июня.

aylandiki, Prezidentimizning yuqorida zikr etilgan tashabbusini o‘zbek davlatiga xos madaniyatning ko‘rinishi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Tarixiy tajriba shundan guvohlik beradiki, millatga xos bunyodkor an’analar hamda qadriyatlar faqat kitoblar, o‘zaro muloqot yoki bo‘lmasa san’at, me’morchilik obidalari peshtoqida, xullas qandaydir me’moriy qurilmalarda qolib ketmaydi. Ular birinchi navbatda Konstitutsiya, qabul qilinayotgan qonunlar, konsepsiylar (tashqi siyosat, mudofaa, milliy xavfsizlik bo‘yicha) ichki va tashqi siyosat strategiyasi va boshqa ko‘plab ijtimoiy sohalarga doir rasmiy hujjatlarda aksini topadi. Shu zayl miliy qadriyatlar tizimi davlatning qon tomiri, uning kuchi va qudratiga aylandi. Aslida, bir tomondan, shu bilan milliy qadriyatlar va ikkinchi tomondan – davlat hamohangligi muttasil harakatdagi kuchga aylanadi.

Shuni hisobga olgan yangilanayotgan o‘zbek davlati va uning oliy siyosiy rahbariyati bu masalani yangi davrda diqqat markazida ushladi. Zero, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida aholining kundalik turmushi va qalbining to‘riga singib ketgan xalq an’nalari, urf-odatlari, shaxslararo va millatlararo muomala hamda diniy e’tiqodlarning asriy tarixdan meros qilib olingan umuminsoniy qadriyatlarga, odamlarning huquq va eriknliklariga zid bo‘limgan axloqiy tamoyillar o‘z aksini topmoqda. Juhon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, aynan shu prinsipga jiddiy rioya qilgan davlatlarda qonuniy hujjatlar kutilgan natijani bergenligi tasdiqlandi. Milliy an’ana va qadriyatlarni hisobga olmasdan qabul qilingan hujjatlar, aksincha, milliy taraqqiyotga to‘sinqilik qilibgina qolmasdan, balki davlatning butkul parokanda bo‘lishiga sababchi bo‘lganligi isbot talab qilmaydigan haqiqat.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tamomila yangi davlatchilik barpo etish, iqtisodiyotning bozorga asoslangan shakliga o‘tish asnolarida millat mentaliteti, ong va tafakkur yo‘nalishi, xalqning qalbi, kundalik yumushlaridan mahkam joy egallagan xatti-harakat yo‘nalishini aks ettiruvchi yangi dunyoqarash – falsafa shakllandi. Chunki, bir tomondan – an’analar va ikkinchi tomondan – davr muddaosini uyg‘unlashtirish va shu orqali har ikkisining ham bardavomligini ta’minlash davlat uchun murakkab vazifa.

Shunday ekan, milliy ko‘nikmalar, o‘tmish tajribasiga tayanishdan tashqari, davlat hokimiysi jahon taraqqiyoti imperativlari, unga xos oddiy ko‘zdan yiroq, ammo belgilovchi qonuniyatlar va xususiyliklar bilan mushtarak holda muammolar yechimini topishi zarur edi. Dunyoda izmimizdan tashqari, ya’ni ko‘p jihatdan milliylikka, o‘zlikga zid jarayonlar talaygina. “Bugun biz shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bomoqda. Biz bugun amaliy rejalarimizni tuzar ekanmiz, xalqaro maydondagi ana shunday murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olishimiz zarur”¹²⁶, deb, Prezident Sh.Mirziyoyev masalaga oydinlik kiritdi.

O‘zbek xalqini boshqalardan ustun qo‘yish emas, uning ong va tafakkuri, qolaversa amaliyotini yo‘naltirib turgan, o‘zgalar madaniyatida kam uchraydigan bir xislatni anglash joiz. Zotan o‘zbekistonliklar pozitiv ma’noda ko‘proq milliy an’analarga moyil, bunyodkor traditsionalizmni ijobiy fazilat hisoblovchi xalqlardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqi davlatchiligini mustahkamlash yo‘lida bugungi xalqaro ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarni chuqur anglashi barobarida, shonli o‘tmishiga tayanishni mudom dolzarb va zarur deb biladi. Zero, o‘zbeklar uzoq tarixi mobaynida dunyo sivilizatsiyasining bevosita ishtirokchisi, ya’ni tarixiy millat maqomida boshqalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi barchaga ayon.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2017-yil noyabr oyida Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: bir o‘tmish va umumiy keljak, bardavom taraqqiyot va hamjihat rivojlanish yo‘lida hamkorlik” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada, mintaqamiz xalqlari bir-biri bilan ming yillik birodarlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bilan bog‘langan. Yevroosiyo “yuragi”da ko‘prik vazifasini o‘tab, mintaqamiz Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy hamda Sharqiy Osiyonidagi bir-biri bilan birlashtiradi. Mintaqa tabiiy resurslarga boy, bu yerda juda ko‘p mamlakatlar va mintaqalarga hal qiluvchi ta’sirini o‘tkazgan noyob madaniy – sivilizatsion salohiyat mavjudligiga e’tibor qaratganligi bejiz emas¹²⁷. Darhaqiqat, o‘zbek

¹²⁶ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Президентининг Олий мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018, декабрь.

¹²⁷ Мирзиёев Ш. Халкаро анжумандаги нутки // Халқ сўзи. 2017, 13 ноябрь.

xalqiga Yaratgan shunday salohiyat ato etganki, u mintaqada o‘z hayotiy tajribasini boshqalar salohiyati bilan mushtaraklikda ko‘rishni jiddiy siyosat deb biladi. Mintaqadagi turli elatlarni birlashtirib, munosib davlatchilik an’anasini yaratganligi, nafaqat o‘ziniki, balki boshqalarning madaniy ravnaqiga yo‘l ochganligi shuning isbotidir.

Odatda davlat konkret makonda konkret sotsium, konkret ijtimoiy borliqning mahsuli bo‘lib, aynan shu makondagi kishilarning jamoaviy ong, tafakkuri va faoliyatini o‘zida aks ettiradi. Agarki ong, tafakkur, qadriyatlar, an’analar, dunyoqarash, g‘oyalar, orzu umidlar, xullas nimaiki inson aqli zakovatining natijasi va nihoyasi bo‘lsa, barchasini umumiy “madaniyat” desak, davlat ana shu buyuk salohiyatning asrovchisi va ham boyituvchisi. Shu joyda “davlat-madaniyat” tandemi, zanjiri vujudga keladiki, ular bir-biriga o‘zaro ta’sir holatida ko‘rinish beradi. Davlat – madaniyat in’ikosi va madaniyat qaysidir bir ma’noda davlat in’ikosi. Bu jabhada boshqa bir ijtimoiy-madaniy omil yo‘qki, u davlat bilan raqobatlasha olsin. Davlat madaniyat natijasi, madaniyat esa davlat tufayli barhayot.

Shu asnoda ushbu tarmoqlararo muammoga doir qalam tebratgan ikki faylasufning mazmunan yaqin fikrni xatga tushirsak foydadan xoli bo‘lmas: Faylasuf D.Vulf “Tarixiy madaniyat rasmiy tarixiy davr bayonlarini yaratadi va oziqlantiradi. Ayni paytda, o‘zi uning ta’siriga ham duchor bo‘ladi. Bu o‘z navbatida rasmiy matnlar/yozishmalarda va qolaversa e’tirof etilgan xulq-atvorning turli shakllarida aks etadi”, degan bo‘lsa, “Tarixiy madaniyat harakat asnolarida muhrlangan ong bo‘lib, u bugun va kelajak kontekstida o‘tmish idrok etilishining barcha shakllari hamda usullaridan iborat. Shunday ekan, irratsionallik, tarixni siyosiyashtirish moziy xotirasi va aynanlik, ham uning qirralari hisoblanadi”, deydi uning vatandoshi I.Ryuzen.¹²⁸

Garchand yuqorida keltirilgan ilmiy gipotezalar boshqa intellektual holat yoki muammoga nisbat qilingan bo‘lsa hamki, unda tadqiqotimiz predmeti davlatning mohiyatiga bilvosita tegishli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, har

¹²⁸ Крыштоп Л.Э., Псху Р.В. Развитие герменевтической идеи в европейской философии и специфика комментаторской традиции в Индии // Вопросы философии. – 2017. – №12. – С. 188.

bir tarixiy davr/bosqich xalqning ijodi, ma’naviyat mahsuli bo‘lmish madaniy jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazib, uni o‘zgartiradi. U esa o‘z navbatida madaniy qadriyatlar va hayot tajribasi bilan bog‘liq o‘ziga xos tizim/zanjir ichida tuzilmaviy transformatsiyaga sababchi bo‘ladi. Milliy madaniyatda barcha narsa va hodisalar aksini topganligi bois, unda ratsionallik bilan bir vaqtida irratsionallik ham mavjud. Lekin madaniy jarayon davrlar o‘tishi bilan irratsionallikdan asata-sekin tozalanib, shaffoflashib borishi umumiy qoida. So‘z ana shu “madaniy konstellyatsiya”da madaniyatga xos buyuk yaratuvchilik qudratiga tayangan davlat zimmasiga barcha salbiy “hamrohlar” orasidan yaratuvchilikni ajratib olishdek jiddiy vazifani o‘z zimmasiga olishi shartligi xususida bormoqda. Boshqa ijtimoiy guruqlar ham bundan chetda turmasligi tabiiy. Ammo oxirgi so‘z davlatniki bo‘ladi. Shu munosabat bilan atoqli faylasuf D.E.Ilenkovning bir fikri yodga tushadi. “Biror bir predmetni insoniy darajada ko‘rish, zuhur qilishni uddalash uchun, uni o‘zgalar ko‘zi va qolaversa barchaning ko‘zi bilan ko‘rish zarur. Va shu orqali inson insoniyatning vakolatli vakiliga aylanadi”¹²⁹. Bu yerda tajribali olim bunday salohiyat faqat davlatga xos bo‘lishini inobatga olgan ko‘rinadi.

Ma’lumki, dunyoni, uning qismlari, narsayu hodisalarni har bir individ o‘ziga xos, ya’ni imkoniyat darajasidan chiqqan holda idrok etadi, talqin qiladi. Ammo individual idrok etishning barcha narsaga qurbi yetmaydi va u ob’yektiv cheklangan. Inson aqli zakovatining qamrov maydoni ham chegaraga ega. Shu nuqtayi nazardan, atoqli faylasuf A.Guseynov o‘z chiqishlaridan birida “individ aql-zakovatini nur sochish radiusi diametri aniq bo‘lgan sham”ga qiyos qilganda haq edi¹³⁰. Uning timsoli umumiy ong, tafakkur va inqilobi ijtimoiy safarbarlik timsoli va mahsuli faqat davlat bo‘lishi mumkin. Demak, davlat jamiyatga xos an’anayu udumlar, qadriyatlarni to‘la-to‘kis aks ettiruvchi o‘ziga xos umumiy makon ekan.

Yurtimizda turli yillarda yashab, uning dovrug‘ini Sharqu G‘arb, Shimol-u Janubga yoygan buyuk allomalarimiz tomonidan nafaqat umumiy farovonlik, balki millatning ruhiyati, qat’iyati zamini bo‘lgan an’analarni avlodlarga yetkazishda

¹²⁹ Шу манба. – С. 188.

¹³⁰ Гусейнов А.А. Мораль как предель рациональности // Вопросы философии. – 2012. – №5. – С. 4.

davlatga, hukmdor salohiyatiga katta umid bog‘langanligining boisi ham shunda. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o‘zining shoh asarlaridan “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Yevklidning birinchi va beshinchi kitoblariga kirishga doir qiyinchiliklar”, “Aristotel “kategoriyalari”ga sharhlar”, “Ptolemey “Almagesti”ga sharhlar”da fozil shahar/davlat g‘oyasini bejiz olg‘a surmagandi. U haqda O‘zbekiston olimlaridan tashqari ko‘plab G‘arb va Sharq mamlakatlarida ijod qilib kelayotgan ilm ahli munosib munosabat bildirishgan¹³¹. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotchi F.Muhiddinovaning “Forobiy siyosiy qarashlarida “davlat” va “jamiyat” tushunchalarini bir-biridan ajratib aniq talqin qilishi hali davlat tizimi xususida yaxlit xulosalar berilmagan bir paytlarda u jamiyatni birlashtirishda yagona kuch deb hisoblagan”¹³², degan fikri haqiqatga ancha yaqin, deb o‘ylaymiz.

Xalqlar va millatlarning or-nomusi, shon-shuhhrati ifodasi bo‘lmish misqollab yig‘ilgan madaniy-ma’naviy merosni, “tarixiylik”ni asrab, uni yana jonlantirishda davlatning roliga deyarli barcha jamiyatlar tarixida munosib baho berilgan. Davlat tufayli butun boshli sivilizatsiyalar, madaniyatlar, moddiy hamda ma’naviy resurslar bus-butun holda avlodlarga nasib qilganligiga doir ma’lumotlar, rivoyatlar, matnlar bundan dalolat beradi. Davlatchilik asoslari birinchilardan bo‘lib, aynan shu mintaqada tarkib topishining o‘zi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi mingyllikda shu hududda Buyuk Xorazm va Buyuk Baqtriya singari davlatlar hukm surganligi, ularning o‘z ramzi, yozuvi, alifbosi, xati bo‘lganligi to‘g‘risida asosli dalillar yetarli. Yuqorida nomlari zikr etilgan davlatlar jamiyat a’zolarining birdan-bir xaloskorasi sifatida zamin xalqlarining tarixiyligi, tadrijiyligini hatto yemirilish asnolarida ham asrab qolganligi va shunga asoslangan holda biz bugun davlatchiligidan 3000 yillik tarixga ega deyishimiz uchun imkon yaratildi¹³³.

¹³¹ Неъматов Б.М. Фараби и преемственность в развитии учений общественно-политического прогресса (кандидатская диссертация); Абдусаламов Ф.С. Религиозно-этическое воззрения Абу Насра Фараби (кандидатская диссертация); Жакбаров М.Т. Шарқ Уйгониши ва комил инсон муаммоси. – Тошкент: Фан, 2001 ва бошқалар.

¹³² Мухиддинова Ф.А. Абу Наср Форобийнинг давлат ва хукуқ ҳакидаги таълимоти: Юридик фанлари номзоди дисс. автореферати. – Тошкент, 2001. – Б. 17-18.

¹³³ Назаров Қ. Шарқ ва Farb – илдизлари туташ маъволар // Жаҳон адабиёти. – 2017. – №1. – Б. 147-155.

Davlat xususida so‘z yuritish asnosida yana bir bor individ, inson aslida muloqotga ehtiyojmand, bu uning uchun hayotiy zururligi, uning sermahsul ijobiy usullarni baham ko‘rishga tabiatan moyilligini e’tiborga olish lozim. Davrlar o‘tib kishilar o‘zaro ijtimoiy muloqotning samaradorlarini izlab topishgan. Birgalikda undan manfaat orttirishning eng so‘nggi oliy shakli – davlatga intilib yashagan. Ijtimoiy muloqot davlat qurilishida o‘z so‘zini aytganligini buyuk mutafakkirlar alohida ta’kidlaganligi bejiz emas¹³⁴.

Biroq ijtimoiy zaruriy muloqot va kelishuvlar, jamoaviy maqsad-u muddaolarning barcha qirralarini qamrab olishga, ularning ro‘yobga chiqishiga faqat davlat qodir bo‘lishi mumkin. Ushbu tabiiy yaxlitlikni, tizimni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lida ijtimoiylikning birorta bir muhim jabhasi (ijtimoiyatdan to ruhiyat, ma’naviyatgacha) davlat e’tiboridan chetda qolishi joiz emas. Zero, davlat uchun muhim bo‘lmagan jihatning o‘zi yo‘q. Muhimlar orasida abadiy va azaliylarini anglash, tanlash va amaliyotga o‘tkazishga faqat davlatning qurbi yetishi biror bir qo‘srimcha isbotga o‘rin qoldirmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ijtimoiylikning ana shunday jihatlaridan biri davlat bo‘lsa, davlatchilikning mustahkam tayanchlaridan biri bu xalqlarning yaratuvchan g‘oyalari, qadriyatları, an’analari va ko‘nikmalaridir. Ular o‘zgaruvchan, tarixiy evrilişlar, transformatsiyalarga nisbatan o‘ta sezgir bo‘lsa-da, u bag‘rikenglik o‘z navbatida millatning asrlar osha shakllanib kelgan asosiy tayanchi, bunyodkor an’analarni mutlaq yangilamaydi, boshqa qadriyatlar bilan almashtirmaydi, balki ularning zamon bilan hamnafaslik qobiliyatini oshiradi. Olamda bor narsa – yo‘q bo‘lmaydi: ammo shaklan hamda mazmunan boyishi mumkin. O‘zbek davlatining ko‘p asrlar mobaynida aynan ushbu jihatga alohida e’tibor qaratganligi fikrimizni tasdiqlaydi. O‘zbek davlatchiligi uzoq davrni boshdan kechirdi, shuningdek milliy an’nalar va yaratuvchan qadriyatlarni asrashni muqaddas vazifa deb bilib, insoniyat oldida javobgarlik hissini ulug‘lab keldi. Davlatchiligimiz ham noyobligi va ham dunyo bilan mushtarakligi bois, yangi o‘zbek davlati dunyo xalqlari nazariga tushdi.

¹³⁴ Аристотель. Политика. Кн. первая // сочинения в 4-х томах. – М.. 1984. Т. 4. – С. 376.

3.2-§. Jamiyat milliy asoslarini mustahkamlash – davlatning strategik maqsadi

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan davlatlar safiga qo‘shilish, o‘zbekistonliklar uchun ko‘pmingyillik shon-shuhratlarga boy, ammo og‘ir sinovlardan o‘tgan tariximizda mutlaqo yangi davrning boshlanishi edi. Biroq bu ko‘plab batamom yangi muammolar yechimini talab qildiki, ularni sarhisob qilish, ustuvorliklarini aniqlashni taqozo etdi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh, bu borada hali tajribasiz davlatning tarix bilan hamohanglik, tarixiylik salohiyatiga bog‘liq. Yangi davr bu yangi imkoniyat, ammo unga nisbatan befarq bo‘lganlar, keyinchalik unga hech qachon ega bo‘lmasi ligi ham bor gap. O‘zbek xalqi oldida shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligidan negizlarini aniqlab, buyuk madaniyat tomirlariga, qadimiylaridan ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz lozim edi¹³⁵.

Ma’lumki, bunday paytlarda tayyor ijtimoiy-siyosiy loyihaning o‘zi yo‘q va uni yaratish uchun boshqa xalqlarning tajribasi deyarli yordam bermaydi. Qator ijtimoiy, madaniy muammolar yechimini xalq o‘z tafakkuridan izlashi, millatning taqdiriga javobgarlik burchi va majburiyatini zimmasiga olgan siyosiy rahbariyat esa uni chuqur his etmog‘i lozim edi. Bu yerda ham andozaga o‘rin yo‘q, zero tafakkur o‘zgaruvchan zamon bilan hamohang; o‘zgarish bor ekan, tafakkur ham o‘zgarishdan, boyishdan to‘xtamaydi. Bu barcha davrlar uchun birdek qonuniyat, biroq uni his etish darjasini hammada ham bir xil bo‘lmaydi. Zalvorli jarayonlar, silkinishlar va evrilishlar ortidagi ko‘zga tashlanmas, lekin amalga oshirilishi zarur bo‘lgan imperativlar mavjudki, ularni ilg‘ash va anglash millat siyosiy elitasining bosh vazifasi. Shu sabab mamlakat rahbariyati mustaqillikning ilk pallasidan muammolar yechimini nimadan va qanday boshlash kerakligini ilgariroq anglab etganligini ayniqsa bugungi tarixiy yutuqlarimiz tasdiqlab turibdi.

¹³⁵ Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисадий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби мукаддасидир. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 7.

Odatda, har bir konkret tarixiy muhit/sharoit siyosiy elitadan eng dolzarblarini ajratish va amaliyotni aynan shundan boshlashni talab qiladi. Bu umumiy qoidaga ilm ahli va boshqaruvga mas'ullar e'tiborini qaratar ekan, uni xalqning cheksiz ma'naviy ummoni, ruhiy qudrati bilan bog'lashdi. Ijtimoiy-gumanitar soha vakillari fikriga ko'ra, fikrlovchi mavjudot o'zida yashirinib yotgan cheksiz salohiyat qatlamlariga qat'iyat ila kirib borishi asnolarida, mutlaqo yangi sharoit, boshqa ruhiy muhit sari o'tish uchun zarur qobiliyatni payqaydi. Bunday ruhiy holat qandaydir ichki ruhiyat/reallikning, yangi paydo bo'lган "markaz"ning nurlanishi ko'rinishidir, deb ta'riflashdi olimlar¹³⁶.

Shunday ma'naviy intellektual uyg'onish XX asrning atoqli faylasuflaridan biri, fransiyalik P.T.de-Sharden qalamiga mansub bo'lsa-da, bu umuminsoniy holat o'zbek davlati, millati va rahbariyati uchun dolzarb tarixiy davr – mustaqillikning ilk onlarida millat tafakkurida ro'y bergan alohida mavjlanish holatinining mohiyatini ochishda asqotadi. Hal qiluvchi asnolarda o'zbek davlati istiqboli uchun milliy asoslar mustahkamligi va bardavomligi masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini oliy siyosiy rahbariyat boshqalardan ko'ra chuqrarroq his etgan ko'rindi. Tabiiyki, buning uchun kundalik hayotiy tajriba, siyosiy sezgirlik, uddaburonlik bilan bir qatorda yuksak intellektual salohiyat ham muhim edi. Uni, qanchadan-qancha asrlar o'tibdiki, boshqalardan oldinroq o'zbek siyosiy va intellektual doiralari ong va tafakkuridan davlat nima, ne sir-u sinoatligi masalasi chuqr joy olganligi bilan bog'lash joiz, deb o'ylaymiz.

Kuni kecha dunyoning har xil, qolaversa yon-atrofdagi qo'shni va tarixiy taqdiri o'xshash davlatlarning barchasida tobora kuchayib, ko'pchilik ongi-shu'urini zabit etgan "mashhur" neoliberalizm va globallashuv bilan bog'liq jarayonlar ta'siriga nisbatan pragmatik fikrga keldiki, bu O'zbekiston rahbariyati uchun hal qiluvchi, taqdirbardor jihat edi. Zero, o'z davlatining buguni va kelajagi uchun faqat va faqat shu millatning o'zi, uning oliy siyosiy rahbariyati shaxsan javobgar. Chunki insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va ilmiy ravnaqi rangbarang va turli holatlarda kechganligi bois har bir xalq, millat va davlatning

¹³⁶ Де-Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1997. – С. 136.

ehtiyojlari umumiyl o‘xhash tomonlarga qaramasdan, har biri uchun individual xarakterga ega¹³⁷.

Aynan shu joyda muhim, ammo amaliyotda isbotini har doim ham topishi qiyin bir masala yuzaga qalqib chiqadi. Gap o‘zbek yurtining qadim zamonlardan buyon ko‘pmillatli sotsium sifatida mavjudligi va bunday sharoitda davlat barqaror va bardavomlik kasb etishi uchun balki tub millatdagi fuqaroviyl hamjihatlik madaniyati bilan bir qatorda, baynalmilallikka ham zarur ustuvorlik berish to‘g‘ri bo‘lgan degan gipotezaga yo‘l berish mumkindir. Biroq, ko‘pmillatli zamonaviy o‘zbek davlati dunyo hamjamiyati oldida obro‘ orttirgan ekan, uning zamirida xususan o‘zbek dunyoqarashi, o‘zbek siyosiy madaniyati, siyosiy tafakkuri va mentaliteti yotganligida, deb bilamiz.

Darhaqiqat, yaqin kunlargacha ong va amaliyotda hukmronlik qilgan materialistik aqidaga ko‘ra, davlatning mustahkam hamda bardavomligini ta’minlash uchun moddiy asoslarni mustahkamlashning o‘zi yetarli deb hisoblangan. Davlat uchun ma’naviy-ruhiy asoslar chetga surilgan. Shuningdek, siyosiy va intellektual hamjamiyat orasida ko‘pmillatli davlat uchun uning tub millat bilan bog‘liq jihatlariga haddan ziyod e’tiborni qaratish millatchilikni kuchaytirib, natijada davlatni zaiflashtirishi mumkin, degan fikr o‘z ishini qildi.

Shukurki, hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyot tajribasi, yon atrofimizda ro‘y berayotgan yangi jarayonlar ilmiy jamoatchilikning xususan ma’naviy-ruhiy omillarga nisbatan munosabatini keskin o‘zgartirdi. Jumladan, ko‘zdan yiroq, ammo bu muammo hech qachon, hech bir joyda tafakkur sohiblarining e’tiboridan chetda qolmadidi. XX asr nemis faylasufi M.Xaydeger inson va millat ruhiyati xususida so‘z yuritar ekan, “inson/individ odatda chuqur o‘yga tolgan asnolarda o‘zidagi ichki quvvat mavjlanishini, umuman barcha narsa va hodisalarining mohiyatini anglab yetadi”¹³⁸, degan xulosasi ayniqsa millatga taalluqli. Biroq tarixiy xotira, millat bag‘rida kerakli joy va kerakli paytda buyuk o‘zgarishlarga sababchi bo‘ladigan ruhiy quvvat nechog‘lik zalvorga ega ekanligi bugun o‘ziga yetarli o‘zbek diyorida o‘z isbotini topdi.

¹³⁷ Кутовой Д.А. Сущность государства информационного права: дихотомия властных отношений // История государства и права. – 2018. – №4. – С. 78.

¹³⁸ Хайдеггер М. Основные теории метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9. – С. 117.

Shunday ekan, yuqorida keltirilgan umumiy ruhiy holat faqat individ ruhiy holatining ko‘rinishi emas, balki uni butun boshli millatga, hatto sivilizatsiyaga nisbatan ham qo‘llash joizdir. Zero, millat yoki sivilizatsiyaning dunyoni idrok etish quvvati avvalambor ong va tafakkurida namoyon bo‘ladi. Endigma mustaqil, mutlaqo boshqa muhit va davrda yashashga ko‘nikayotgan o‘zbek davlatining uzoq istiqboliga nazar tashlar ekan, Birinchi Prezident “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi”¹³⁹, deganda haq edi.

Shu sabali davlatning buguni va istiqbolini ta’minlash uchun uning milliy asoslarini mustahkamlash Yangi O‘zbekiston yangi davrining bosh strategiyasiga aylandi. Ona tilimizga davlat tili maqomini berishdan boshlangan yangi davlat ramzlarining joriy etilishi, umumxalq bayramlarining qayta tiklanishini hukumat milliy an'analar va asoslar bilan bog‘lashni dolzarb vazifaga aylantirdi. Shuningdek, barpo etilayotgan davlat umumjahon sivilizatisiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi ham muhimligiga alohida e’tibor qaratildi. Shunday dolzarb vaqtarda, davlat mustahkam va hayotbaxshlik kasb etishi uchun uning milliy asoslarini qayta tiklash, millat onging chuqur qatlamlarida o‘z vaqtি-soatini kutib yotgan benazir rujni kuchaytirish birdan-bir to‘g‘ri yo‘l deb hisoblandi. “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot Strategiyasi”da rivojlantirilgan mo‘ljallar o‘zini oqladi. Uning amaliy tasdig‘i, jumladan ijtimoiy rivojlanishning “o‘zbek modeli”dan tortib to siyosiy tizimni shakllantirishning milliy asoslarining joriy etilishi, partiyalararo muloqot va munosabatlarda tolerantlik, ularning o‘z faoliyati jarayonida besamar kurashga nisbatan siyosiy konsensus prinsipining ustuvorlik kasb etishi, radikal “demokratik” udumlardan yiroqlashish, tinchliksevar xalqaro siyosat, ahil qo‘shnichilik xalq, millat, madaniy qarashlari bilan uyg‘unlashuviga erishishda yaqqol ko‘rinish bermoqda.

O‘zbekiston rahbariyatining shu yo‘li – davlatning milliy asoslariga yaqqol ustuvorlik berilishi o‘zbeklar ongi, tafakkurining o‘ziga xos tomoni, demak,

¹³⁹ Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. – Б. 7.

boshqa mamlakatlarda bu jihat boshqacha ko‘rinish berishi mumkin. Ammo bu O‘zbekistonning tanlovi. Zero, barcha millatlar, konkret ijtimoiy vaziyat hamda jahon tajribasidan chiqqan holda, qaysi tomonga, qaysi paytda strategik ustuvorlik berishni o‘zлari hal qiladi.

Odatda har bir yangi davlat shakllanishi asnolaridan boshqalarda uchramaydigan o‘ziga xos noyob jihatlarga ega bo‘ladiki, buni o‘ziga yetarli davlat izchillik bilan asrab qola oladi. Va u keyinchalik bosqichma-bosqich umuminsoniy universaliylar bilan uyg‘unlashib yangilanib boraveradi. Noyoblik, mental o‘ziga xoslik qancha zamonlar o‘tsa-da, yangilangan holda yana va yana siyosiy elitaning dunyoqarashi va amaliyot shakllarini belgilab berishda davom etadi.

Tarixdan ma’lumki, turli sabablarga ko‘ra o‘zbek an’analari, udumlari, ma’naviy qadriyatları qiyinchiliklarga qaramasdan har doim o‘zini, o‘zligini namoyish eta olgan. Boshqalar esa uyg‘unlik va o‘zlikni saqlashda tub xalq atrofida hamjihatlikning eng baland cho‘qqilariga chiqishgan. O‘zbeklar ongi, tafakkurida shakllangan davlatchilik g‘oyasini ular ham o‘ziniki deb qabul qilishdi. “Ana shunday murakkab vaziyatda, – deb o‘z so‘zida davom etgan edi Birinchi Prezident, – mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va bahamjihatlikni mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etdi. Shu boisdan bu muqaddas tushunchalar millati va diniy e’tiqodimizdan qat’iy nazar, shu yurt, shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir kishining hayoti, ongi, qoni va jismiga singib ketgan”¹⁴⁰. Bu jihat yangi davrda Prezident Sh.Mirziyoyevga “ko‘zlagan barcha maqsad vazifalarimizga albatta yetamiz. Bu borada men avvalo ko‘p sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tgan olajanob xalqimizning mustahkam irodasi va mustahkam salohiyatiga ishonaman”¹⁴¹, deya qat’iy aytish imkoniyatini yaratdi. Shu munosabat bilan davlat va millat o‘rtasidagi aloqa muammosiga biroz to‘xtalsak, ba’zi narsalarni birmuncha oydinlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi, degan umiddamiz.

¹⁴⁰ Каримов И. Юксак малакали мутахассислар – тараққиёт омили // Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 47.

¹⁴¹ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 78.

Millat va davlatdan qaysi biri oldin paydo bo‘lgan, degan masalaga mutaxassislar allaqachon munosabat bildirib, muammoning ayrim qirralariga ilmiy jamoatchilik oydinlik kiritgan bo‘lsa-da, baribir u hanuzgacha murakkabligicha qolmoqda. Buning sababi mazkur global muammoning tarixning ko‘pab bosqichlarida dolzarblik kasb qilib kelganligi bilan bog‘liq. Millat va davlat munosabatidagi sinxronlik, ya’ni o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan kelib chiqilsa, biz uchun millat va davlat bir-birini to‘ldirgan va bir-birini o‘zaro vujudga keltirganligi muhim. Shu munosabat bilan fransuz tarixchisi Ernest Renan “Ulkan hamjihatlik ifodasi sifatida millat, shubhasiz qahramonona o‘tmish, bugungi yagona xohish-iroda va nihoyat, kelajakda esa umumiy harakat dasturini taqozo etadi”¹⁴², – degan e’tiborga loyiq bir xulosani o‘rtaga tashlagan. Demak, millat shon-shuhratlarga boy o‘tmish, bugungi kun uchun zarur yagona xohish-iroda hamda keljak uchun umumiy ijtimoiy dastur va strategiyani ifoda etuvchi o‘ziga xos voqelikdir. Yuqorida zikr etilgan millatga xos jihatlarni davlatchilikda ham ko‘rshimiz mumkin.

Bunday vaziyatda, tabiiyki, ulardan qaysi biri qachon “dunyo yuzini ko‘rganligi” bilan bog‘liq masalalar chetga surilib, o‘rtadagi umumiylikni shakllantirgan asoslar bilan bog‘liq masalalar ustuvorlik kasb etadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, taraqqiyot uchun ular o‘rtasidagi “chevara chiziqlari” xronologik ketma-ketlik emas, balki immanent umumiy tomonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Muammoni aynan shunday tasavvur va tahlil qilish davlatning milliy asoslarini mustahkamlash bosh strategik maqsad darajasiga ko‘tarilganligining sababini yanada oydinlashtiradi, deb o‘ylaymiz.

Ko‘rinib turganidek, davlat va millat ijtimoiy reallik hamda g‘oya sifatida biri birini boyitar va biri biriga barhayotlik baxsh etib borar ekan. Davlatning ham, millatning ham ijtimoiy negizlari va turtkilari bir xil: har ikkalasi ham “azaliy ijtimoiy dastur”¹⁴³ sifatida quyidan yuqoriga qarab rivojlanishdek tabiiy marom natijasidir. Davlatning pirovard maqsadi – ijtimoiy tartibot va hamjihatlikka

¹⁴² Федотова Г.П. О национальном покаянии // Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2-х т. – Санкт Петербург, 1991. – С. 43.

¹⁴³ Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. – М., 2015. – С. 451.

erishishi o‘zining milliy asoslarini (milliy g‘oya, milliy mafkura, milliy an’analar, milliy intilishlar va b.) mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq.

Millat, davlat va umuman insonning hayot maskani/muhiti bilan bog‘liq muammolarning chuqur falsafiy tahlilini yaratgan allomalardan biri I.Kant shunday yozadi: “davlatlar bor kuchini o‘zining tor, birovlarni bo‘ysundirishga qaratilgan niyatlaridan xalos bo‘lishga qaratmas, fuqrolarning tafakkur tarzini takomillashtirish haqida o‘ylamas ekan, u holda ularning o‘z xalqi xususida fikrida birorta bir ijobiy o‘zgarish borasida so‘z yuritish xomxayollikdan boshqa narsa emas”¹⁴⁴. Bu xulosa aynan millatga ham tegishli.

Ijtimoiy birikmalar shakli sifatida davlat va millatni bir biriga yaqinlashtiradigan fundamental jihat bu ulardan har biri asosan ichki intilishlari, jamoa bo‘lib faoliyat yuritish va nihoyat shu yo‘l bilan o‘zlarini saqlash, qolaversa abadiylikka yo‘g‘rilishga intilish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan XIX asrda ijod qilgan atoqli nemis faylasufi Iogann Fixtening bir mulohazasiga nazar tashlash davlat-millat zanjiri fenomenining ichki qonuniyatları, siru asrorini yechish imkonini yaratishi mumkin. “O‘zining yakka-yolg‘iz intilishi yoki harakati tufayli vaqt ilgari surilib ketdi, degan fikrdan faylasufdan ko‘ra yiroq odam bo‘lmasa kerak. To‘g‘ri, Xudo ato etgan kuch-quvvatda hech bo‘lmaganda o‘zi uchun hamda boshqalar uchun, qolaversa shu vaqt oqimidan nasib qilingan joyni egallash yo‘lida foydalanishi barcha insonlarning o‘zida qolgan gap. Ammo vaqt abadiylikdan maqsad sari izchil odimlashda davom etmoqdaki, uni hech kim o‘z kuchi bilan to‘xtatishga qodir emas. Bu yerda faqat ulkan jamoaviy/birlashgan kuchning o‘rnini beqiyos. Ana shu yo‘l bilan va shu orqali inson ezgu maqsad – zamonlar va odamlarning abadiy ruhiga etishga erishishi mumkin”¹⁴⁵. Zamonlar va odamlarni birlashtirishga qodir kuch, deganda mutafakkir davlatni nazarda tutgan ko‘rinadi.

Ushbu tafakkur sohibining fikrida ayrim narsalarga aniqlik kiritishga ko‘maklashadigan jihatlar yo‘q emas. Bu yerda gap faqat tafakkur qilishga, olam, dunyo ikir-chikirlaridan tortib to yuqoriroq materiya haqida o‘ylashga qodir

¹⁴⁴ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – М., 1966. – С. 19-20.

¹⁴⁵ Фихте И.Г. Основные черты современной эпохи. – СПб., 1886. – С. 13.

insonlar xususida emas, umuman inson zoti nazarda tutilgan. Ammo biz uchun boshqa jihat muhim. Fixtening fikrida boshdan oyoq inson hech qachon yakka-yolg‘iz biror bir buyuk ishni amalga oshirishining iloji yo‘qligi ontologiya ekanligi, uning jamoada umr kechirishi va shu jamoa doirasida faoliyat yuritishi, ammo aksariyat inson buni hadeganda anglab ham yetmasligi muammo ekanligi zikr etilgan. Oxir-oqibat o‘z xohishidan qat’iy nazar inson shu xalq yoki millatning umumiy salohiyatiga tayanishga mahkum. U millat yoki davlatning qismlaridan biriga aylanishi orqali o‘z maqsadiga erishadi. Bu bir jihat. Fitxe xulosasining ikkinchi jihat esa, davlat va millatning ana shu umumiy salohiyat/ruhiyat timsol-lari ekanligini oydinlashtirishga borib taqaladi. Davlat va millat o‘z mohiyat va tabiatiga ko‘ra, parallel ravishda birgalashib, hamjihat bo‘lsagina Fitxedagi ezgu maqsad ro‘yobga chiqishi, xalqni, fuqarolarning yashash sifatini talab darajasiga olib chiqishi mumkin. Demak, davlatga nisbatan “milliy davlat” konseptini qo‘llashda yoki bo‘lmasa davlatning o‘rnida millatni ishlatish jiddiy asosga ega ekan.

To‘g‘ri, davlat bilan millat har biri alohida ijtimoiy reallik, hodisa bo‘lishi barobarida, pirovard maqsad va intilishlarining yo‘nalishida yaqqol aynanlik mavjud ekan. Davlatni davlat qiladigan millat, millatni esa ko‘kka ko‘taradigan, uning ichki salohiyatidan bashariyatni voqif qila oladigan kuch davlat. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, har bir o‘ziga yetarli, o‘zini anglagan davlatning diqqat markazida barcha zamonlarda aynan milliy asoslarini betinim mustahkamlash masalasi mavjudligi, ba’zi tarixiy asnolarda uning strategik ustuvorlik kasb etishi o‘z-o‘zidan oydinlashdi-qoldi.

Ilm sohiblari fikridan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyat hayoti, undagi muttasil o‘zgarishlar vertikal hamda gorizontal yo‘nalishda keng ko‘lam kasb etishi amalga oshish mahsulidir. So‘z bugungi kunga kelib insoniyat zabit etgan yuksak marralar davlatning “buyuk islohotchi” ekanligi bilan chambarchas bog‘liqligi haqida bormoqda.

Dolzarb tarixiy asnolarda davlatga, ayniqsa endigina mustaqillikka erishgan davlatga, o‘z barhayotligi va bardavomligi yo‘lida maqsad va vazifalar orasidan

hayot-mamot ahamiyatiga ega bir nechtafiga ustuvorlik berish mas’uliyati yuklatildi. Davlat ushbu mas’uliyatni chuqur his etsa va uning uddasidan chiqishga bel bog‘lasa – shuning o‘zi yetarli. Barcha bosqichlarda borgan sari yuksalayotgan o‘zbek davlati, davlatchiligining milliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifani ham ana shu kontekst doirasida qarash joiz. Demak, Prezident Sh.Mirziyoyev o‘zining bir chiqishida “taraqqiyotning o‘zbek modeli” bilan “zamonaviy davlat barpo etish”ni qo‘shaloq bir jarayon sifatida qaraganligi jiddiy asosga ega¹⁴⁶.

Umuman, davlatning oldidagi dasturiy vazifalarning bari muhim. Ammo ma’lum bir vaqt kesimida ulardan biri yoki ikkitasining dolzarblik darajasi oshadiki, bu o‘z navbatida bashariyat boshdan kechirayotgan davr xarakteri bilan o‘lchanadi. Prezidentimizning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni jalb qilsak, ularda “eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar”, “milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davri”, “notinch zamon”, “notinch mintaqa”, “global moliyaviy inqiroz”, “xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan”, “turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlar” singari¹⁴⁷ konseptlarning davrga nisbat etilishi, yangi o‘zbek davlati o‘z strategiyasini belgilashda davrdan chiqishi mahorati yaqqol ko‘rinib turibdi.

Bugungi milliy yuksalish bosqichda davlatimiz boshlig‘i uchta muhim jihat (davlatchiligidan yangi qirralar bilan yanada boyitish, davlatimizning milliy asoslarini yanada mustahkamlash va nihoyat, tarixiy taraqqiyotning bugungi bosqichini bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rishning istiqbolimiz bilan chirmashib ketganligi)ga bejiz urg‘u bermagan. O‘zbekistonimizda bu strategik tanlovning uzoq istiqbolni qamrab oluvchi yagona yo‘l ekanligini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda. Milliy tilimiz, milliy merosimiz, milliy modelimiz, milliy qonunchiligidan yangi bosqichga kўtararamiz. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 233.

¹⁴⁶ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 233.

¹⁴⁷ Ўша манба. – Б. 4, 21, 407, 421.

dunyoqarashimiz, milliy falsafamiz va boshqa ko‘plab milliy jihatlarimizning zamon ehtiyojlari bilan hamohangligi jahon hamjamiyati diqqat-e’tiboriga tushgan ekan, bu milliy strategik ustuvorligining ham bardavom va barhayotligining yaqqol guvohidir. Ularning barchasi jahon xalqlarining orzu-umidlari, mo‘ljallari bilan hamohang ekanligi ko‘plab jamiyatlarda qiziqish uyg‘otganligi tabiiy.

Darhaqiqat, bugun mustaqillik asnolarida mamlakatimiz, o‘zbekistonliklarning barchasi alohida bir tarixiy, kerak bo‘lsa yangi davrni boshdan kechirmoqda. Bunday davrlar barcha xalqlar tarixida kamdan-kam sodir bo‘lib turadigan hodisadir. Insonlar ruhiyatiga nisbat sifatida ba’zi nashrlarda bunday holatni bir tomondan – orzu-umid va ikkinchi tomondan shubhalanish, cho‘chish hissi uyg‘otadigan asno ham deyishadi. Uning har biri inson tabiatini, psixologik qurilmasiga borib taqalishini inobatga olsak, bu bor gap. Zero, har bir miqyosli ijtimoiy-siyosiy transformatsiya har qanday xalqqa, jamiyatga, qolaversa har bir ongli kishiga jiddiy mas’uliyat yuklaydi. Sinergetika nazariyasiga ko‘ra, bunday holat tizim barqarorligini bir maromda ushlab turadigan “markaziy blok”da ro‘y bergen yangilanish davlatni yangi pog‘onaga ko‘taradi, unga mutlaqo yangi mazmun kasb etadi.

Bunday paytlarda tamomila yangi me’yorlar, qadriyatlar, g‘oyalar paydo bo‘lib, jamiyat ritmi aynan shu doirada faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Davrimizning atoqli faylasuflaridan biri Vyacheslav Styopin bunday davrni yangi qadriyatlar “o‘sish nuqtalarini” keltirib chiqaruvchi davr¹⁴⁸ deb hisoblaydi. Uning xulosasiga ko‘ra, bunday asnolarda ming yilliklar mobaynida davlatga beminnat kuch-quvvat ato etib kelgan, ijtimoiy-tarixiy qadriyat-u tamoyillar, yo‘l-yo‘riqlar saqlanib qolsa-da, biroq u yangi sharoitga moslashishga majbur.

Davlatning milliy asoslarini mustahkamlash barcha bosqichlarda o‘z o‘rniga ega va u davlat uchun immanent. Davlat mavjud ekan, milliy asosga ijtimoiy-ruhiy ehtiyoj doimiylik kuchiga ega. Bu ob’yekтив voqelik bilan bog‘liq milliy strategiya turli sharoitlar, rivojlanish bosqichlarida garchand turli shakl-shamoyil kasb etsada, o‘z mohiyatiga ko‘ra bardavom jarayonligicha qolaveradi. Tabiiyki, uning

¹⁴⁸ Стёпин В.В. Философская антропология и философия культуры. – М.: “Альма Матер”, 2015. – С. 403, 421, 452.

asosida yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelishi tufayli tarixan yangilanishni o‘z ichiga oladi. Ammo bir tomondan davlat va boshqa tomondan millat ijtimoiy zarurat sifatida har biri o‘ziga xos immanent xususiyatlarga ega va shu bilan o‘zaro biri biridan farq qiladi. Shu dialektika doirasida ular bir-birini to‘ldirib boradi.

Ammo G‘arb amaliyoti va ilmiy doiralarida bu masalaga boshqacha, bir tomonlama yondashuv hanuzgacha mavjudki, u yerda yuz berayotgan ijtimoiy silkinishlar, xususan, davlat va milatga o‘zini aynanlashtirgan fuqarolar o‘rtasidagi betinim murosasizlikning davlatga munosabatiga ta’siri sezilarli va bu ilmiy jamoatchilik e’tiborini o‘ziga qaratmoqda. G‘arb dunyoqarashida ming yilliklar mobaynida narsa va hodisalarni bir-biridan keskin ajratish, o‘rtadagi tafovut va ziddiyatli tomonlariga urg‘u berildiki, millat va davlat munosabatlari ham undan chetda qolmadi. G‘arb dunyosida milliy-etnik, etnografik hissiyotlarning ortib borayotganligi shundan guvohlik beradi.

Balki jarayonlar, vaziyatlardagi o‘zaro tafovut haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish nuqtayi nazaridan bu ham zarurdir, ammo insoniyat bugungi bosqichda shunday yashamoqdaki, ziddiyatli holatlarni yana jumbushga keltirishni talab qilmaydi. Demak, davlat bilan millat, davlatchilik jarayoni bilan milliy asoslar o‘rtasidagi nozik ma’naviy-ruhiy kontekstida Sharq tajribasiga, Yangi O‘zbekiston amaliyotiga murojaat qilish, o‘zbek madaniyati, siyosiy tafakkuri yaratgan noyob uslublardan foydalanish G‘arb davlatlariga zarar keltirmaydi, deb o‘ylaymiz. Prezidentning el-yurtimizning ona zaminga mehr-u muhabbati, o‘zaro ahillik va hamjihatlikning g‘oya va maqsadlarimiz, faoliyatimiz bilan uyg‘un va hamohang bo‘lib borayotganining zamirida yuqoridagi amaliyot yotganligi bugun jahon hamjamiyatiga ma’lum, degan xulosasi uni tasdiqlab turibdi¹⁴⁹. Holbuki, u yoki bu davlatning barhayotlikka yo‘g‘rilish quvvatining ichki salohiyatidan dunyo ahli bahramand bo‘lishga moyillik ma’naviy tajriba sifatida ikir-chikirdan mutlaqo xolis. Fenomenning borgan sari ilmiy va siyosiy hamjamiyat ongi va tafakkuridan joy olayotganligi bejiz emas.

¹⁴⁹ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халқига Наврўз табриги // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 373.

Yuzaki qaraganda davlatning milliy asosi ko‘zga ko‘rinmas mavhum bir narsaga o‘xshaydi. Lekin unda shu qadar ulkan kuch-qudrat yig‘ilganki, uni e’tiborsiz qoldirgan merkantilizm, neoliberalizmga ruju qo‘ygan davlatlarning murakkab holatga tushganligidan bashariyat xabardor. Jahon miqyosida “milliy-ethnik va sivilizatsion tomirlarga qaytish”ga da’vat, davlatga milliy qiyofa berishga bo‘lgan ehtiyoj va zarurat, XXI asr uchun jiddiy masala sifatida ijtimoiy-siyosiy kun tartibiga qo‘yilayotgani, unga strategik ustuvorlik deb qarash tobora kuchayib borayotganligi bejiz emas. Davlatga instrumental yondashuv, uni haddan ziyod moddiylashtirish, unda yashirinib yotgan buyuk ruhiy quvvat, ehtiyoj va insoniylikka nisbatan beparvolik, muammoga bunday munosabat, dunyoqarash insoniyatni qiyin ahvolga tushirib qo‘ydi.

Bir paytlar XX asrning atoqli faylasuflaridan biri Bertran Rassel “Siz birodaringizning tanasi/jismini ko‘rishingiz mumkin, ammo uning ruhini emas. Demakki, tana va ruh ikki bir-biridan farqli narsalardir”¹⁵⁰, degan ekan. Agar uni davlatga nisbatan olsak (milliy asoslari, xususan mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan bunyodkor ishlar bilan bog‘lash joiz) davlat – jamiyat va boshqaruv institatlari, ularning tashkiliy faoliyati – bu tana bo‘lsa, u holda milliy asoslar (milliy g‘oya, milliy davlatchilik, milliy mentalitet, milliy mavqe va b.) davlatning ruhiy-ma’naviy, g‘oyaviy tayanchi ekanligi e’tirof etilishi kerak bo‘ladi. Bir narsa aniq: davlat milliy asoslarsiz, madaniy qadriyatlarisiz, ruhiyatisiz oddiy bir jismdan, jonsiz tanadan boshqa narsa emas. Davlat mohiyatan zimmasidagi mas’uliyati darajasiga ko‘tarilishi mumkin/mumkin emasligini bilish uchun ilmiy jamoatchilik tomonidan milliy-madaniy-axloqiy parametrlar aynan yuqoridagi reallikdan chiqib, uning salohiyatiga baho berishni munosabatlar garmoniyasi timsoli deb hisoblash taklif qilinmoqda¹⁵¹.

Bayonimizni muxtasar qilar ekanmiz, davlat birlashtiruvchi nufuz kasb etishi uchun, demakki, eng avvalo bunyodkor milliy asosga tayanishi zarur. Milliy tayanch tashqaridan sun’iy kiritilgan rasmiyatchilikka qandaydir nazariya yoki

¹⁵⁰ Рассел Б. Человеческое познание. – М. «Наука», 1957. – С. 262.

¹⁵¹ Грачинов Е. Становление национальной школы теории МО // Международные процессы. Т. 4. – 2016. – №2. – С. 66.

konsepsiyalarga moslashish emas, u davlatning ibtidosidan to intihosiga qadar mavjud immanent xususiyat. Milliy asos faol ekan – davlat ham xuddi shunday, ular biri birini o‘zaro to‘ldiradi, boyitadi. Faqat shu asosda davlat aynanlik kasb etadi.

3.3-§. “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi Yangi O‘zbekistonda umumxalq safarbarlik ifodasi

Inson o‘zini anglaganidan buyon moddiy farovonlik hamda ma’naviy yuksalish uning pirovard orzularidan biri bo‘lib kelgan. Unga yakka-yolg‘iz tarqoq holda erishib bo‘lmasligini insonning anglab yetishi esa, buyuk ma’naviy transformatsiya edi. Manbalarda ta’kidlanishicha, inson, turli-tuman ijtimoiy guruuhlar mazkur pirovard maqsadga erishishda jamoaviy konsensusning eng oliv shakli bu davlat ekanligiga ishonch hosil qilishdi va uni tarkiblashtirish uchun ko‘p sinovlarni boshidan kechirishiga to‘g‘ri keldi. U barcha jamiyatlarga xos immanent universaliy deb hisoblansa-da, ammo uni tasavvur qilish va ayniqsa amaliyotda sinash barcha xalqlarda bir xil kechmasligini e’tirof etish lozim bo‘ladi.

Bir tomondan – davlat va ikkinchi tomondan – jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda azaldan shunday umumiyligini qoidalar mavjudki, ularga munosabat davlatning sifatiy tomonini belgilaydi. Shulardan biri – xalq davlat uchunmi yoki davlat xalq uchunmi, degan masala. Zero, “inson-jamiyat-davlat” zanjiri harakat maydonida allaqachon yechimini topib ulgurgan: jamiyatning mushkulini oson qilish, muammolar yechimiga erishish uchun davlatni yaratdi. Birgina davlat so‘zsiz xalq uchun xizmat qilishi lozim va mas’ulligini anglatadi. Ammo nazariyada shunday, amaliyotda esa boshqacha va bu besamar tortishuvlarni yuzaga chiqardi.

Darhaqiqat, davlat tabiatan shunday ekanligining zamiridagi turtkilar mavjudki, ularni e’tiborsiz qoldirish ulkan xato ekanligi G‘arbda va ham Sharqda tasdiqlandi va ko‘plab ilmiy izlanishlar, loyihamoqarab ko‘payishini rag‘batlantirdi. Nazarimizda, uning sabablaridan biri bu “davlat” kategoriyasiga nisbatan yondashuvda aksariyat yuridik yondashuv ustuvorlik qilib kelganligi degan fikrdamiz.

Davlat institutini bilish, anglab yetish, mohiyatini aniqlashda uning vujudga kelishidagi chuqur turtkilarga e’tibor qilmaslik joiz emas. Bu muammo ko‘p asrlar mobaynida antik davrlardan to hozirgi kungacha tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Mabodo ushbu tushuncha ko‘p qirrali bo‘lganligi bois, bahsmunozarani keltirib chiqarayotgan ekan, uning zamirida yotgan narsa asosan soha mutuxassislaring qarashlaridagi tabiiy sub’yektivizmdir¹⁵², deb masalaga to‘g‘ri yondashgan rossiyalik tadqiqotchi R.Miroslavskaya.

Umuman davlatning mohiyati va bosh mas’uliyati bilan bog‘liq masala faylasuflar, tarixchilar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar e’tiboridan hech qachon yiroqlashmagan. U yerda muammoga noan’anaviy, yangicha yondashishga intilishni ham kuzatsa bo‘ladi. Jumladan, XIX-XX asrlar oralig‘ida yashagan nemis faylasufi Maks Shyoler “falsafiy antropologiya erishgan barcha marralar/yutuqlar hamda amallar – til, vijdon, mehnat qurollari, davlat, boshqaruv, san’at, mif, din, ilm-fan, tarixiylik hamda ijtimoiylik inson borlig‘ining asosiy tuzilmalaridan paydo bo‘lganligini tushuntirib berish”¹⁵³ga qaratilgan, deb bejiz aytmagan.

Bugun noaniqliklar, besamar to‘qnashuvlar girdobida qolgan insoniyat takror va takror davlat va uning muddaosi nimadan iborat, degan savolga javob kutmoqdaki, unga javobni ilm ahli xususan qandaydir allaqachon unutilib ketgan, “ikkinchi darajali” deb hisoblangan jabhalardan izlashi, siyqasi chiqqan an’anaviy yo‘ldan emas, boshqa qo‘srimcha yangi metodologiyalarga tayanishi lozim, deb bilamiz. Unga oid mavjud yo‘llardan biri aytganimiz muammoga keng ko‘lamli ijtimoiy-madaniy va hatto psixologik kontekstdan chiqish, falsafiy talqin sari borish ehtimoli mavjud.

Hozirgi paytda ko‘nikmaga aylangan bir jihat, u ham bo‘lsa davlat tushunchasini asosan huquqshunoslik, tarix va siyosatshunoslikda chuqurroq o‘rganishadi va davlat tushunchasining ayrim spetsifik qirralarini o‘rganishda ular katta foyda keltirganlar. Biroq falsafiy yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, u

¹⁵² Мирославская Е.Ю. особенности патриархально-богословской концепции происхождения древнерусского государства // История государства и права. – 2018. – №1. – С.

¹⁵³ Шёлер М. Положение человека в космосе // Проблема человека в западной философии. – М., 1988. – С. 90.

fan tarmoqlari erishgan yutuqlarni sintez qilish bilan bir qatorda, ularga tayangan holda, ikkinchi planga tushib qolgan qirralarni dolzarblashtirib, yangi xulosalarga kelishga zamin yaratadi.

Masalan, huquqshunoslik fanlari uchun “davlat” tushunchasida hokimiyat taqsimoti bilan bog‘liq tomoni ustuvorlik qilsa, siyosatshunoslik uchun u siyosiy yoki boshqaruv instituti tarzida ahamiyatga ega. Shuningdek, tarix fani davlat tushunchasini tarix bilan bog‘lab o‘rganadi. Falsafa esa ulardan farqli o‘laroq predmeti doirasidan tashqaridagi global o‘zaro bog‘liqlikdan chiqib boshqa muhim xulosalarga kelishi mumkin.

Darhaqiqat, mustaqillikning bugungi bosqichida (bu yerda O‘zbekistonda oliy siyosiy rahbariyatda avlodlar almashinuvini nazarda tutayapmiz) tabiiy holda, davlat tushunchasiga ham yangicha qarash, uning tub mohiyati va vazifasi bilan bog‘liq tomonlarni chuqurroq idrok etish imkoniyati kengaydi. Xususan, Prezidentning “Davlat – xalq uchun” g‘oya va tashabbusi ilm ahlida muammoga noa’anaviy yondashuv istagini yaqqol kuchaytirdi. Nima sababdan aynan bugun ushbu g‘oya paydo bo‘ldi, uning ildizi qaysi davrlarga borib taqaladi kabi muammolar yoritilsa, davlatimiz istiqbolda qanday shakl hamda ma’no-mazmun kasb etishi mumkin, singari qator umidbaxsh savollar e’tiborimizdan joy oldi. Shunday ekan, uni bu g‘oya va ijtimoiy loyiha, shunchaki qamrovsiz bir abstraksiyami yoki zamirida bardavomlikka yo‘naltirilgan qadriyatlargaga ega reallikmi, degan masalalar yechimida ilm ahli o‘z salohiyatini bugun namoyish etishi lozim bo‘ladi.

Sivilizatsiyalar va millatlar tafakkurida davlat haqida xulosalar turlitumanligi boisidan davlatni hamma joyda har xil talqin qilishadi. Biroq bir jihat borki, unga nisbatan o‘ziga xos umumbashariy ilmiy konsensus shakllangan va shuning atrofida sivilizatsiyalar, xalqlar va qolaversa ilm sohiblari ham birlashgan. U – davlatning jamoaviylik siyosiy xususiyati va shu asosda jamiyat va har bir insonning umumiy farovonligiga xizmat qilishi hisoblanadi. Davlat aynan shu jihat bilan ayrim shaxsdan, ijtimoiy guruhlardan, ishlab chiqarish birlashmalaridan, manfaatlari, kasb-u kori o‘xhash uyushmalardan keskin farq qiladi. Uning faoliyati ulkan umummilliyligini safarbarlik, umumilliyligini xohish-iroda va

intilishning kundalik hayotdagi ifodasıdır. Ijtimoiy silkinishlar, tezkor evrilishlarga to‘lib toshgan bu dunyo, o‘z navbatida, davlatga nisbatan munosabatda ham an’anaviylikdan zamonaviylik sari burilishni talab qilmoqda. Shunga qaramasdan, davlat xususida ulardan-da chuqurroq o‘ylayotgan kuchlar olamda behisob ekanligiga ishonmaydiganlar ham bugun behisob.

Jumladan, quyida keltirmoqchi bo‘lgan misol bugungi Xitoy realligining ifodasi bo‘lsa-da, mulohazalarimizga oydinlik beradi, degan umiddamiz. “G‘arb davlatlari, – deb davom etadi tadqiqotchi Szin Sanjun, – o‘zlari to‘plagan tajribani boshqa mamlakatlarni, jumladan Xitoyni qo‘sghan holda, baholash uchun umumiyligi haqiqat va mutlaq mezon deb qarashadi. Ular o‘zlarining idrok doirasidan tashqaridagi muammoga duch kelsa, uni darhol e’tiborsiz qoldirishadi yoki unga g‘arazli munosabatda bo‘lishadi yoki uni yo‘q qilish kerak bo‘lgan muxolifat deb hisoblaydilar. Ular kamdan-kam hollarda mamlakatlarning farqlari va o‘ziga xos milliy xususiyatlari haqida bosh qotiradilar. Taqqoslashning noto‘g‘ri nuqtasi ostida G‘arbning axloqiy takabburligi va unga hamrohlik qiluvchi soddalashtirish uchun intilish yashirinib qoladi. G‘arb rahbarlari Xitoyni ham o‘zlariga o‘xshatib tasavvur qilishga moyil. Ularning tasavvurida davlat kuch-qudrati hokimiyatni anglatadi, hokimiyat bilan o‘lchanadi, jamiyat esa mustaqillik va yashovchanlikdan mahrum bo‘lgan shunchaki bir quruq nomga aylanadi¹⁵⁴.

Oxirgi alohida ajratilgan matndagi jumлага e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, G‘arb ekspertlari tasavvurida davlat bu faqat hokimiyat, shunday ekan, u jamiyat, oddiy insonlar, qolaversa davlat uchun ham sherik emas, oqibatda ular ustidan nazorat sub’yekti sifatida ko‘rinish beradi. Demak, davlat jamiyatdan, jamiyat esa davlatdan ajratilgan, ulardan har biri o‘z tashvishlari girdobida qolgan avtonom institutlardir. Boz ustiga davlat hukmdor – jamiyat va fuqarolar unga tobe sifatida talqin qilingan¹⁵⁵. Bunday g‘oyalar afsuski G‘arbda va Sharqda ham mavjud bo‘lganki, lekin u haqda mavridi kelganda so‘z yuritsa durust.

¹⁵⁴ Цзин Цанжун. Буюк давлат масъулияти: Хитой истиқболи. – Тошкент: Академнашр Олтин медиа, 2017. – Б. 256.

¹⁵⁵ Қаранг: Ризоев Ш.Х. К вопросу социальной природе власти // Вопросы философии. – 2018. – №5. – С. 31.

Dunyo xalqlarining davlatga nisbatan tasavvuri, amaliyotiga nazar tashlaganimizda bir muhim jihat – u o‘z-o‘zini birovlarga ko‘z-ko‘z qilib asossiz maqtovdan yiroq va isbot talab qilmaydigan bir reallik. So‘z davlatning hamma koordinatalarda avvalambor xalqning oliy irodasi, umumiyl moddiy va ma’naviy farovonlik yaratishga intilish natijasi va shu tarzda o‘zini namoyon etishi kerakligi xususida bormoqda. Ammo bu umumiyl asos, undan tor maqsadlari yo‘lida foydalanish payida bo‘lgan uddaburon siyosatchilar va qolaversa, turli ijtimoiy guruhlardan chiqqan ularning tarafдорлари qilmishlari bois davlatning global maqomi asta-sekin xira tortib boradi. Pirovardida davlat o‘zining nima, qanday ijtimoiy institut ekanligini unutib, mohiyatan batamom o‘zgaradi¹⁵⁶. Oxir oqibatda nafaqat xalqdan ajraladi, hatto unga qarshi qurol ishlatish darajasiga boradi. Ammo bu davlatning tabiat, funksiyasi va borlig‘iga mutlaqo aloqador emas. Nainki, xalq jism bo‘lsa, davlat uning borlig‘i va ruhiyati.

Shukurki, kuzatuvlar, ilmiy tafakkur shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatning inson manfaatlari uchun paydo bo‘lganligi, unga tabiatan insonparvarlik (gumanizm) xolisligini bashariyat, jumladan Sharq unutmadi. XX asrning mashhur tarixchi va faylasuflaridan biri N.I.Konrad merosida shunday xulosa bor, unga ko‘ra davlatning haqiqiy mohiyati insonparvarlik bilan bog‘liq ekanligini qaysi sivilizatsiya avvalroq tushunib etganligi e’tiborga molik.

Umuman olganda insonparvarlik g‘oyasi, uning davlat hayoti va faoliyatida namoyon bo‘lishi XVI asrda Yevropaning sharqiy qismi Italiyada ildiz otgan bo‘lsa-da, aslida u insoniyatga uning ijtimoiy, madaniy va intellektual ravnaq yo‘lida xizmat qiladi. E’tiborli joyi shuki, gumanizm g‘oyasi ildiz otgan mintaqalar orasida Markaziy Osiyo, xususan o‘zbek yurti borligi, taraqqiyotning ma’lum bir burilish asnolariga kelib u o‘zining nimaga qodirligini tasdiqlaganligi muhim¹⁵⁷. Bundan chiqadiki, bugun Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surayotgan “Davlat – xalq uchun” g‘oyasining tomiri qadimiy davrlarga borib taqalar ekan.

¹⁵⁶ Кутовой Д.А. Сущность государства информационного общества: Дихотомия властных отношений // История государства и права. – 2017. – С. 79.

¹⁵⁷ Савастеева Ю.В. Академик Конрад и его концепция Возрождения на Востоке // Проблемы истории и теории мировой цивилизации. – М., 1994. – С. 136.

Biror bir sivilizatsiyaga, millatga va qolaversa, davlatga xos jiddiy qarashlar, baholash mezonlari va uslublari ularning barhayotligi va bardavomligi paytida yo‘qolib ketmasligi fanda isbotini topgan. Shu bois, ular bugungacha millat va davlatning asosiy xususiyatlari orasidan joy oldi. Ammo turli sinovlardan o‘tib bugungacha yetib kelgan barcha xalqlar uchun yaratuvchi qadriyatlar – adolat, samimiylilik, burchiga sodiqlik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik va insonparvarlikni tushunish, talqin qilish turli-tumanlik kasb etadi.

Sharq tafakkurini oladigan bo‘lsak, uning asosida dunyoni siklik tasavvur etish amaliyotiga ko‘ra, ibtidodan o‘laroq ildiz otgan har qanday tamoyil hech qachon barham topmaydi, balki boshqa davrlarda boshqacha ko‘rinishda saqlanib qoladi va qulay sharoitda ijtimoiy va ma’naviy hayotda yana jonlanib, millatga hayot baxsh etadi, degan fikr mavjud. “Biror narsa qachonlardir eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilsa, u asta-sekin yo‘qola boshlaydi. Qachonki u batamom yo‘qolgan zahoti yana jonlanish tomonga ko‘tariladi”, – degan xulosani beradi, XI asr xitoy faylasufi Shao Yun¹⁵⁸.

Ilgari ta’kidlaganimiz, Sharqiy Osiyo ziminida keng quloch yoyib, millionlab kishilar ongini zabit etgan chan-buddaviylik ta’limotidan o‘rin olgan “Kimki behudlik, yuksaklik pillapoyasiga ko‘tarilsa, ming-minglab dxarmalar (ezgulik chashmasi)ni qo‘lga kiritadi”¹⁵⁹, degan fikr ham yuqoridagi qarashning boshqa shaklda namoyon bo‘lishi, desak xato qilmaymiz.

Ulug‘ bobomiz al-Forobiyning ezgulik, insoniylik, muruvvatni ulug‘lagan shahar/davlat abadiy baxt-saodat sohibidir, azaliy buyuk tamoyillarga, qadriyatlarga sodiq qolgan xalq – dono xalq, degan xulosasini ham shu kontekstda idrok etsak durust bo‘ladi¹⁶⁰. Afsuski, bu kabi xulosalarni G‘arbda yaratilgan davlat va jamiyatga doir ta’limotlarda deyarli uchratmaymiz. G‘arb dunyoqarashida quyidan yuqori tomon “mutlaq chiziqli harakat” ta’limoti ta’siri ostida hatto fundamental qadriyatlar ham e’tibordan tushib qolishi tabiiy va bu ob‘yektiv qonuniyat, degan fikr ustuvorlikka ega. Ammo zamon ta’siri ostida

¹⁵⁸ Чинь У. Философские идеи. – Шанхай: Межконтинентальное изд-во, 2015. – С. 229.

¹⁵⁹ Канон жертвеннника: мудрость // У Чинь. Философские идеи. – С. 138.

¹⁶⁰ Абу Наср Форобий. Бахт-саодатга эришув хакида // Хайруллаев М. Форобий. – Тошкент, 1963. – Б. 193-198.

G‘arb mamlakatlari ilmiy jamoatchiligi tafakkurida ham Sharqda ulug‘langan azaliy tamoyillar, qadriyatlargaga “qaytish” alomatlarini bugun kuzatish mumkin.

Sharq olamida azaldan hukmdor bilan jamiyat a’zolari, o‘z navbatida jamiyat a’zolari bilan davlat muassasalarining uzviy bog‘liqligiga doir dono fikrlar alohida o‘rin egallagan. Misol uchun, Sharqiy Osiyoda, xususan konfutsiychilik an’analariga rioya qiluvchi davlatlarda qadim zamonlardayoq davlatning insonparvarlik tamoyiliga qattiq rioya qilganligi, u yerdagi hukmdorlarning adolat yuzasidan ish yuritganligi haqidagi bitiklarga alohida e’tibor qaratish targ‘ibot paradigmalari darajasiga ko‘tarilgan¹⁶¹. Masalan, Konfutsiy davlatdan xalqning rozi-rizoligini, ular o‘rtasidagi samimiylilik va hamjihatlik, har ikkala tomon o‘z mas’uliyatini his etishini davlat boshqaruvining bosh poydevori darajasiga ko‘targan. Zero, davlatlarda xalq rozi bo‘lsa, davlat o‘z-o‘zidan ravnaq topib boraveradi, degan tamoyil bugun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat va fuqarolar hamjihatligi g‘oyalarini biz hind xalqi umrguzaronligiga doir shoh asarlardan biri “Artxashastra”da, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan “Avesto”da, “Qutadg‘u bilig”da, eronliklarning benazir adabiy merosi “Shohnoma”da bot-bot uchratamiz. Ularning barchasida davlatning xalqparvarligi, insoniyligi eng buyuk qadriyat tarzida talqin va ta’rif qilingan. “Eng avvalo xalq – keyin davlat”, “To‘rt ulug‘ fazilat: odob,adolat, rostgo‘ylik va nihoyat, sharm-u hayo. Mabodo shulardan birortasi mavjud bo‘lmasa, u holda davlatda jiddiy silkinishlar sodir bo‘ladi. Agarki ularning barchasi umuman barham topsa, unda davlatning o‘zi halokatga yuz tutadi”¹⁶², degan tamoyillar Sharq olamida ildiz otib, boshqalarga yoyilgan.

Nisbatan biroz avval, ya’ni XX asrda yashagan atoqli faylasuf Fen Yulan o‘z ilmiy ishlaridan birida davlatning asl mohiyatiga to‘xtalib, quyidagi purma’no xulosaga keladi: “Shjou zamonida (deyarli 4000 yil avval) sultanatlar bir-biri bilan burch/mas’uliyat borasida musobaqalashgan bo‘lsa, afsuski bugun kuchini ko‘z-ko‘z qilish bilan bandlar”, degan fikrda garchand qadim afsonaviy “oltin davr”ni qo‘msash ustuvorlik kasb qilsa-da, ammo unda umumsayyoraviy haqiqat – xalqiga

¹⁶¹ Речи царств // У Чинь. Философские идеи. – С. 12.

¹⁶² Историческое писание “Вассалы” // У Чинь. Философские идеи. – С. 105, 106, 107.

beminnat xizmat qilish, uning farovonligidan boshqa maqsadi bo‘lmagan davlatni insoniyat orzu qilayotganligi o‘z ifodasini topgan. Shulardan buyuk ajdodlar nidosida asrlardan joy olib, bugungi kunlarga etib kelgan fozil shahar, ya’ni davlat g‘oyasi, O‘zbekistonimiz oliy siyosiy rahbariyatining amaliy ishlarida bugun o‘z ifodasini topmoqda. Yuqoridagi mulohazalar garchand uzoq va yaqin tarixga oid bo‘lsa-da, ular Yangi O‘zbekiston realligini chuqurroq idrok etishga beminnat xizmat qilishini hisobga olgan holda keltirilgan.

Ma’lumki, davlat bilan omma/fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik asosiga qurilgan muloqot/munosabat, davlatning xalq xizmatida bo‘lishi, vakolatli davlat organlarining fuqarolar bilan bamashahat faoliyat olib borish g‘oyasi va amaliyoti turli mamlakatlarda o‘ziga xos va mos tarzda shakllanadi. Albatta, bu u yoki bu o‘zgarish uchun ijtimoiy ehtiyoj hamda shart-sharoit pishib yetilishi, unga nisban bir tomondan xalqning xohish-irodasi va boshqa tomondan esa, davlatning imkoniyat ko‘lami o‘rtasidagi monandlikning mavjudligiga borib taqaladi.

Yurtimizdagи bugungi kun vazifalari xususida so‘z yuritar ekan, Prezident Sh.Mirziyoyev “Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “Xalq davlat idoralari emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bu boradagi faoliyatimiz mezoniga”¹⁶³ aylanayotganligiga alohida urg‘u berib kelmoqda. Xalq xohish-irodasi, buyuk ijtimoiy safarbarligining mahsuli davlat o‘zining xalq oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishi butun dunyo ahliga o‘zini namoyish etmoqda.

Bu umumiy qonuniyat g‘oya balki boshqa mintaqalar, sivilizatsion maskanlarda boshqacha bir ko‘rinishda o‘zini namoyish yetar. Bu ob’yektiv qonuniyat, lekin O‘zbekistonda, xususan oliy siyosiy rahbariyatda avlodlar almashinushi tufayli aynan “davlat – xalq uchun” ko‘rinishida xalqimiz hayotiga kirib keldi va amaliyotda ifodasini topmoqda. Xolisona aytadigan bo‘lsak, Prezident g‘oyasining ro‘yobi xalqimiz ongi va qalb to‘ridan joy olib, o‘z vaqt-soatini kutayotgan edi. Davlat hokimiysi hech qachon hatto mustaqillikdan keyin

¹⁶³ Ўзбекистон Президенти Шавкат Миззиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 4.

ham xalqi oldida javobgarligi hamda mas’uliyatini bu qadar ochiqchasiga xalqimizga aytmagan edi. Shunday ekan, uni zamonaviy o‘zbek davlatining o‘z xalqi oldidagi azaliy tavallosi, demokratiya g‘oyasining “o‘zbek andozasi”, demokratianing o‘zbek zaminidagi yangicha ko‘rinishi, deb hisoblash asosli bo‘lar edi.

Darhaqiqat, zamonaviy o‘zbek davlatiga Konstitutsiyamizda ijtimoiy huquqiy davlat deb ta’rif berilgan. Shu bilan O‘zbekiston suveren davlat sifatida ushbu umumbashariy platformadan munosib o‘rin egalladi. Ammo o‘zbek zaminida turli davrlarda asos solingan davlatlar silsilasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlat bu o‘lkada bugungidek sotsial xarakterga ega bo‘lganligi, ya’ni xalqimizning ongi va tafakkuri, mentalitetiga moslikka erishganligini, oddiy insonlar intilishlaridan o‘zini olib qochmaganligini eslash qiyin. Gap uning qandaydir sivilizatsiya bilan bog‘liqligida ham emas, balki o‘zbek dunyoqarashi, siyosiy madaniyati natijasi bo‘lmish davlat xalq orzu umidlari bilan hamohang bo‘lishga majbur edi.

Konstitutsiyamiz o‘zbek davlatining mohiyatan azaldan xalq uchun yaralganligini zamon ehtiyojlari bilan qayta uyg‘unlashtirdi. Xolisona aytish joizki, dunyoda faqat jamiyatni tobelikda ushlab turishdan boshqa narsani bilmaydigan, “huquqiy davlatdan faqat o‘z siyosiy vakolatini ilgari suradigan davlatga aylanib qolganlar”¹⁶⁴ bugun ham topiladi. Ammo O‘zbekiston zaminida davlatning umumxalq jamoaviy xohish-irodasini ifoda etmasligini tasavvur qilish qiyin.

Ushbu hududda tarixning turli bosqichlarida umrguzaronligi kechgan ajdodlarimiz ongi va tafakkuridan joy olgan faqat ijtimoiy farovonlikka intilish, barcha badavlat bo‘lishligi, fuqaroviy hamjihatlik g‘oyasi bugun “davlat – xalq uchun” ijtimoiy amaliyotida tom ma’noda yangicha ifodasini topdi. Shunday ekan, Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida, xususan arzon uyojlar qurish, joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasidan o‘rin olgan soliq yukini kamaytirib borish strategiyasi, tadbirkorlik yuritish uchun barchaga qulay

¹⁶⁴ Исаев И.А. Справедливость и суверенность // История государства и права. – 2018. – №4. – С. 3.

imkoniyat yaratishga qaratilgan davlat siyosati¹⁶⁵ va boshqalarni ana shu “Davlat – xalq uchun” ijtimoiy dasturi doirasida idrok etish to‘g‘ri bo‘ladi.

Dunyo shundayki, unda barcha millatlar, davlatlarning fikri hech qachon bir joydan chiqmagan. Uning bosh sababi har bir sotsium o‘z madaniy an’analariga, dunyoqarash tizimiga ega va shundan chiqib yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqeahodisalarga nisbatan turli-tuman munosabat. To‘g‘ri, insoniyatni birlashtirib turadigan umumiylar qarashlar, mo‘ljal va manfaatlar, faoliyat yo‘nalishlari mavjud va ular, odatda, umumiylar xavf-xatar, kutilmagan global silkinishlar bo‘lgandagina ko‘zga tashlanib, keyinchalik yana “o‘z o‘zani”ga qaytadi. Umrguzaronlik kechayotgan davr insoniyatdan yana insoniylik kasb etishini – bahamjihat muloqot va o‘zaro ishonch sari borishni taqozo etmoqda.

Shunday asnolarda eng zararli jihat millatlarning bunyodkor salohiyat sohibi ekanligini e’tirof etmaslik, ular o‘rtasida sun’iy chegara chiziqlarini yaratish, biror bir davlat yoki mintaqadagi bunyodkor transformatsiyalarni mensimaslikdir. Fikrni berishdan maqsad shuki, jumladan, davlatning xalq bilan tabiiy munosabatini besamar soddalashtirish, uni haddan ziyod nationalistik talqin qilish, unga instrumental yondashuv va qolaversa hali beri inson zoti, jamiyat oldida mas’uliyat va burchini davlat to‘laqonli ado etmaganligi kabi gap-so‘zlarga borib taqaladi. Holbuki, ana shunday vaziyat ulkan ijtimoiy silkinishlarni keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, xalq oldidagi davlatning ijtimoiy hamda ma’naviy burchi masalasi barcha davlatlar asosiy hujjatlaridan o‘rin egallagan. Uni “ijtimoiy huquqiy davlat” deb ta’riflash ham shu bilan izohlanadi. Ammo qadim zamonlardan buyon, bir ko‘rinishda aniq holat hamon bahs-munozaralar girdobidan chetga chiqa olmayotir. Bizningcha, bu davlatchilik shakllari monarxiya va respublika, demokratiya va avtokratiya, federativ va unitar degan tushuncha yoki an’analarga biryoqlama yondashuv va talqin etish amaliyotiga borib taqaladi. Oddiy bir misol, I.Kant davlat tushunchasiga to‘xtalib, “Kim, qachon baxt-saodatga erishishini davlat boshlig‘ining hukmiga qarab kutish – bu

¹⁶⁵ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 8, 9, 10.

o‘taketgan despotizm”¹⁶⁶, deb munosabat bildirsa, uning o‘tmishdoshi Monteske bunday boshqaruvni ulug‘ fazilat ko‘rinishi deb baholagan¹⁶⁷. Yana bir joyda Kant qonunni “vakolatsiz hukmronlik”¹⁶⁸, ijtimoiylikka, fuqarolar erkinligiga zid deb bilgan. Bunday chalkashliklar “ijtimoiy huquqiy davlat” tushunchasini ham xiralashtirishi tayin.

Ushbu dolzab masala va unga uzoq bat afsil to‘xtalish vazifamizdan tashqarida bo‘lsa-da, baribir bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozim ko‘rinadi. Gap shundaki, garchand jamoaviylikning yuqori pallasi deb sanalgan respublika shakli davlatchilik jarayonida ustuvorlik qilayotgan davrda o‘z oldiga qo‘ygan ulkan burch va mas’uliyatini u yangi respublika oqlaydimi yoki yo‘qmi, birinchi navbatda xalq va davlat hokimiyatining tafakkur yo‘nalishiga to‘liq bog‘liqligini dunyo tajribasi isbotlab qo‘ygan. Bugun har qanday davlat shakliga (u ham muhim) qarab emas, ustuvor darajada uning xalq oldidagi burch va mas’uliyatini ado etish darajasiga qarab baho berish to‘g‘ri. Nima bo‘lganda ham XXI asr davlat qanday siyosat olib borishi, odamlarning moddiy farovonligi, ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish mas’uliyatini boshqacha his qilishini taqozo etadigan ko‘rinadi. I.Kant aytganidek, bugun davlatlararo qarama-qarshiliklar bilan ovora bo‘lmasdan, o‘z fuqarolarining moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlari bilan ko‘proq band bo‘lishini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Bugun davlat o‘zini yuzaga keltirgan, og‘ir sinovlardan xalos etib, bugungi avlodga yetkazgan xalqqa nisbatan innovatsion tashabbuslar bilan chiqishi lozim bo‘ladi. Undan xalqni rozi qilish maqsadida yangi imkoniyatlar, resurslar yaratishning yo‘llarini izlash talab etiladi. Davlat organlari endilikda shunchaki boshqaruv, hokimiyatni legitimlashtirish vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda, “xalq xohish-irodasining siyosiy shakli”¹⁶⁹ ekanligini amalda isbotlashi kerak bo‘ladi.

Bugungilar uzoq ajdodlaridan farq qilib, barcha parametrlari nuqtayi nazaridan dunyo miqyosida ro‘y berayotgan turli-tuman – yaxshi va yomon

¹⁶⁶ Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества // Избранные сочинения. Т. 6. –М.: “Наука” 1966. – С. 19-20.

¹⁶⁷ Исаев И.А. Справедливость и суверенность // История государства и права. – № 1. – С. 4.

¹⁶⁸ Ўша жойда. – С. 4-5.

¹⁶⁹ Галиев Ф.Х. Комаров С.А. Общество и государство: современные точки соприкосновения и взаимодействия // Государства и права. – 2018. – №12. – С. 174.

o‘zgarishlarga nisbatan nihoyatda sergak. Prezidentimiz aytganidek, hayotiy muhim “muammolarni bir oy yoki bir yildan keyin emas, balki shu bugun, hozirning o‘zida yechish”¹⁷⁰ zaruratidan kelib chiqish talab qilinmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi, uning amaliyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng avvalo, bu tashabbus shunchaki o‘tkinchi voqea-hodisalarga davlat boshlig‘ining e’tibori natijasi emas. Shunday ekan, jahon hamjamiyati va ayniqsa, umumiy tarixiy kechmishga ega yaqin qo‘shni mamlakatlarda jiddiy qiziqish uyg‘otgan ushbu innovatsion ijtimoiy-siyosiy loyihada o‘zbek xalqi, o‘zbekistonliklar bir necha ming yillar mobaynida ongi va shu’urida asrab kelgan muruvvatli sultanat, mavjud resurslar va imkoniyatlardan aholining barcha tabaqa va qatlamlarining teng foydalanishi, hokimiyat vakillari bilan xalq o‘rtasida doimiy va tenglikka asolangan muloqot singari milliy qadriyatlar, tamoyillar o‘z aksini topdi. Inson, fuqaro orzu qilishi mumkin bo‘lgan eng oliy tilak – davlatning xalq xizmatkoriga aylanishi Prezident tashabbusida kundalik amaliyotga aylandi.

Uning tasdig‘ini biz 2017-yil joriy qilingan mamlakatimiz ravnaqiga yo‘naltirilgan “Harakatlar strategiyasi” hamda “Taraqqiyot strategiyasi”da ko‘rayapmiz. Agar ushbu hujjatlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirganimizda, u yerdagи strategiyani bosqichma-bosqich emas, balki faol suratda kompleks amalga oshirish shart bo‘lgan vazifalarning barchasi xalqimizning kundalik ehtiyoji bilan hamohanglikda qurilganligiga imon keltiramiz. Jumladan, birinchi yo‘nalishga oid davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmati sifati va samaradorligini oshirish, to‘rtinchi yo‘nalishda zikr qilingan aholi real daromadi va bandligi darajasini izchillik bilan oshirib borish, ijtimoiy himoya va fuqarolar salomatligini asrash, arzonlashtirilgan uy-joylar qurishga qaratilgan maqsadli dasturlarni bekam-u ko‘st amalga oshirish kabi strategik ustuvorliklarni oladigan bo‘lsak, besh yo‘nalishning qaysi biridan joy olganligidan qat’iy nazar, ularning barchasi faqat bir narsa, u ham bo‘lsa, aholi manfaatlariga yo‘naltirilganligini anglash qiyin emas.

¹⁷⁰ Мирзиёв Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 291.

Bunday aniq strategik maqsad va vazifalar belgilangan siyosiy hujjatni boshqa davlatlarda hozircha uchratish mushkul.

Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljalangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning yettita bobida belgilangan barcha maqsadlar yo‘nalish nuqtayi nazaridan turlicha bo‘lsada, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va xalqaro siyosiy faoliyatning barcha jahbalarini qamrab, xalqimiz farovonligini kafolatli ta’minlash, boshqaruv organlarining diqqat-e’tiborini fuqarolar manfaatlariyu mo‘ljallarini ta’minlash hamda Yangi O‘zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini muttasil oshirish “Taraqqiyot strategiyasi”ning markazidan o‘rin olgan. Bir so‘z bilan aytish joiz bo‘lsa, bugungi o‘zbek davlatining tom ma’noda xalqparvar davlat ekanini bashariyat oldida amalda isbotlashni oliy siyosiy rahbariyat o‘z zimmasiga oldi. Ular: davlat boshqaruvi organlari faoliyatini fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish tamoyili (6-maqsad); xalq bilan muloqot mexanizmini takomillashtirish (11-maqsad); fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalash (70-maqsad); Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat (71-maqsad); jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash (74-maqsad); aholi daromadini oshirish (85-maqsad); mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli sub’yektlidagi rolini oshirish, mintaqa va xalqaro masalalar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqyosidagi tashabbuslarini ilgari surish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish (93-94-maqsadlar).

Yuqorida tadqiqot ishimiz ob’yekti va predmeti bilan bevosita bog‘liq strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratdik xolos. Aslida ushbu hujjat juda keng qamrovga ega bo‘lib, unda O‘zbekiston o‘tayotgan yangi rivojlanish bosqichida istiqbolda ulkan ijobiy o‘zgarishlar asnolarida davlat o‘z bunyodkorlik, xalqparvarlik kuchini yanada yorqin namoyish qilish imkoniyati kengayishi tayin.

Xulosa o‘rnida Prezidentimizning “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi millionlar xohish-irodasi, intilishi natijasi bo‘lgan davlat O‘zbekiston misolida o‘z burchi va mas’uliyatini aniq anglab etganligining yangi bosqichdagi yangi ifodasi ekanligi, davlatning fuqarolarga xizmat qilishining yorqin timsoli sifatida, bir tomonidan,

mamlakatimiz rivojiga keng imkoniyatlar yaratayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bashariyat qalbida davlatga nisbatan ishonchni yangi asosda jonlantirdi, degan fikr-damiz. Ijtimoiy taraqqiyot uchun cheksiz imkoniyatlar O‘zbekistonda mavjudligini, uni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini izlash har bir xalqning imtiyozi va bashariyat oldida zimmasiga olgan ulkan mas’uliyati ekanligini yana bir bor isbotlash yo‘lida sobitqadamligini namoyish etmoqda.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Davlat konkret ijtimoiy borliqning mahsuli. U o‘zida aynan shu makondagi kishilarning ijtimoiy ong, tafakkuri va faoliyatini aks ettiradi. Agarki ong, tafakkur, qadriyatlar, an’analar, dunyoqarash, g‘oyalar, orzu umidlar, xullas nimaiki inson aqli zakovatining natijasi bo‘lsa, barchasini “madaniyat” desak, davlat ana shu buyuk salohiyatning ham asrovchisi va ham boyituvchisi. Davlat – madaniyat in’ikosi va madaniyat o‘z navbatida davlat in’ikosi. Davlat madaniyat natijasi, madaniyat esa davlat tufayli barhayot.

2. Davlat bilan millat mohiyat va tabiatiga ko‘ra, o‘zaro birlashib, hamjihat bo‘lsagina ezgu maqsadiga erishishi, fuqarolarining, insonning yashash sifatini talab darajasiga olib chiqishi mumkin. Davlat bilan millat har biri alohida ijtimoiy reallik, hodisa bo‘lishi barobarida, pirovard maqsad va intilishlarida ular o‘rtasida immanent mushtaraklik mavjud. Davlatni davlat qiladigan millat, millatni ko‘kka ko‘taradigan, uning ichki salohiyatidan bashariyatni voqif qila oladigan kuch esa davlat.

3. Davlat mavjud ekan, milliy tayanchga bo‘lgan ijtimoiy-ruhiy ehtiyoj tuga-maydi va unga bo‘lgan talab va ehtiyoj doimiydir. Strategik maqsad har bir tarixiy bosqichda turli shakl-shamoyil kasb etsa-da, o‘z mohiyatiga ko‘ra dolzarbligicha qolaveradi. Bu jarayon yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelishini inkor etmasdan, balki tarixan yangilanib borishini ham o‘z ichiga oladi. Davlat va millat ijtimoiy tabiiylik mahsuli sifatida har biri o‘zining immanent xususiyatlariga ega, mana shu dialektika doirasida bir birini to‘ldirib boradi.

4. O‘zbekistonda “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi amaliyot sifatida xalqimiz hayotiga kirib keldi va o‘z ifodasini topmoqda. Aslida xalqimiz ongi va qalb

to‘ridan joy olgan millatimizga monand ezgu orzu o‘z vaqtি-soatini kutayotgan edi. Shuningdek, davlat hech qachon mustaqillikdan keyin ham o‘z gumanistik mohiyatini, mas’uliyatini xalqimizga bu qadar ochiq aytmagan edi. Shuning uchun mazkur ijtimoiy loyihani Yangi O‘zbekistonning o‘z xalqi qarshisidagi azaliy tavallosi, demokratiyaning o‘zbek zaminidagi yangicha ko‘rinishi, deb hisoblash asosli bo‘lar edi.

5. Konstitutsiyamizda davlatga ijtimoiy huquqiy davlat deya berilgan ta’rif o‘zbek davlatining mohiyatan azaldan xalq uchun yaralganligini zamon ehtiyojlari bilan qayta uyg‘unlashtirdi. Zero, dunyoda faqat jamiyatni tobelikda ushlab turishdan boshqa narsani bilmaydigan, huquqiy davlatdan faqat o‘z siyosiy vakolatini ilgari suradigan davlatga aylanib qolganlar bugun ham topiladi. Milliylikni o‘zbek davlat uchun bosh mezon deb bilar ekan, u umumxalq jamoaviy xohish-irodani ifoda etmasligini tasavvur qilish qiyin. Ajdodlarimiz ongi va tafakkuridan joy olgan faqat jamoaviy farovonlikka intilish, barcha badavlat bo‘lishi, fuqaroviylar hamjihatlik g‘oyasi bugun “Davlat – xalq uchun” ijtimoiy amaliyotida tom ma’noda yangicha ifodasini topmoqda.

6. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi va uning yurtimizdagи amaliyotiga munosabat bildirar ekanmiz, bu tashabbus ayrim shart-sharoitlar, o‘tkinchi voqeа-hodisalarga davlat boshlig‘i tomonidan qaratilgan shunchaki e’tibor natijasi emas. Yaqin qo‘suni mamlakatlarda jiddiy qiziqish uyg‘otgan ushbu uzoq istiqbolga yo‘naltirilgan tom ma’noda innovatsion ijtimoiy-siyosiy loyihada o‘zbekistonliklar bir necha ming yillar mobaynida ongi va shuurida asrab kelgan muruvvatli sultanat va muruvvatli hukmdor, hokimiyat vakillari bilan xalq o‘rtasida doimiy va tenglikka asoslangan muloqot va nihoyat ular o‘rtasida o‘zaro kelishuv madaniyati/konsensus kabi tamoyillar o‘z aksini topdi. Inson, fuqaro orzu qilishi mumkin bo‘lgan eng oliy tilak “davlatning xalq xizmatchisiga aylanishi” Prezident tashabbusida kundalik amaliyotga aylanib ulgurdi.

XULOSA

1. Tarixiy tajriba, kuzatishlar hamda sohaga oid ilmiy tahlil shuni tasdiqlamoqdaiki, aqli mavjudot sifatida inson boshqa mavjudotlardan xususan jamoaviy faoliyatga tabiatan moyilligi bilan keskin ajralib turadi. U o‘zidagi ana shu buyuk ichki tuyg‘u va kuchni tartibga soluvchi, aniq yo‘naltiruvchi boshqa bir alohida ijtimoiy tayanchga muhtoj ediki, uni davlat boshqaruvidan topdi. Shu vazifani o‘z zimmasiga olishi esa davlatga siyosiylik baxsh etdi. Mabodo xalq xohishi-irodasi bilan dunyoga kelgan va undagi buyuk yaratuvchilik kuchini ifodalashga davlatning qudrati etmas ekan, unday vaziyatda u o‘z ibtidosi, mohiyati va muddaosini unutgan bir hovuch to‘daning (sinf, siyosiy partiya, oligarxat va b.) dahshatli quroliga aylanishi tayin.

2. Tadqiqot asnolarida shunga ishonch hosil qildikki, aynan shu makonda yashaganlar va yashayotganlar, ajdodlar va avlodlar uzviyligini asrashga qodir birdan bir katta kuch bo‘lish ming-ming yillarda qaror topgan, u sotsiogenetik yaxlitlikni tashib, bus-butun holda kelajakka uzatish layoqati va qobiliyati faqat davlatga xos. Shu tarzda davlat barcha zamonlar va mintaqalarda jamoaviy safarbarlik salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, ya’ni siyosiy omilga aylanadi.

3. Har kun va har soniyada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan yumushlar bilan bir qatorda, xalq hamda millatga benazir ruhiy-ma’naviy quvvat baxsh etuvchi “tarixiy xotira”ni asrab avlodlarga uzatishga bo‘lgan mas’ullik davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Faqat davlat (boshqa ijtimoiy instittlarning bu boradagi sa’y-harakatlarini baholagan holda) zamondoshlar uchun ruhiy ozuqa bo‘lmish tarixiy-madaniy resursni asrab, unga real kuch va quvvat baxsh etish imkoniyatiga ega. Shu tarzda davlat millat ma’naviy quvvatining ishonchli va mustahkam soqchisidir.

4. O‘zining uzoq tarixi mobaynida davlat inson, qolaversa sotsiumga immanent bo‘lgan gumanizm, insonparvarlikning yorqin ifodachisi darajasiga initilib kelgan va qurbi yetganicha uni amaliyotga joriy etganligi isbot talab qilmaydigan voqelik hisoblanadi. Shu tarzda davlat inson, sotsium ruhiyati, qalbi va shuurining nafaqat emanatsiyasi maqomiga ega, balki u inson ruhiyati, kuch-

qudrati, ijodkorlik qobiliyati va dunyoqarashi joy olgan qandaydir bir ishonchli maskan sifatida o‘zini ko‘rsatishga erishdi.

5. Davlat tom ma’noda aniq vaqt, aniq hudud, aniq tarixiy-madaniy qarashlar, xullas, aniq ijtimoiy-ma’naviy sharoitning mahsuli va nihoyasi, o‘z faoliyatida aniq makonda tarixan shakllangan ong va tafakkur olamining in’ikosi va intihosidir. Shu tarzda va shu joyda “davlat-madaniyat” tandemi, zanjiri vujudga keladi, voqelikka aylanadi. Tahlillar, kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aslida davlat – millat madaniyati, ruhiyati ifodasi bo‘lsa, o‘z navbatida madaniyat davlatning in’ikosi, kerak bo‘lsa aynanlik “guvohnomasi”dir. Davlat milliy madaniyat, mentalitet ifodachisi, madaniyat esa, davlat tufayli barhayotligi, xususan, O‘zbekistonimizda kerakli darajada tasdig‘ini topmoqda.

6. Tahlilimiz hamda kundalik tajriba ko‘rsatmoqdaki, bir tomondan – davlat hokimiyati va boshqa tomondan esa xalq, millat (fuqarolar) birlashsa ezgu umummillat jamoaviy marralar sari borish amalgaga oshadi. Shuningdek, davlat va millat bir reallik emas, balki har biri alohida ijtimoiy majmua/jarayon bo‘lsa-da, umumiylar maqsad yo‘lida ular mushtarak bir hodisa. Davlatni davlat qiladigan asosiy kuch bu millat, xalq, fuqarolardir. Millatni, o‘z navbatida, dunyoga namoyish qilish davlatning burchi va mas’uliyati. Shu boisdan, o‘z ildizi, tamal toshini mustahkamlashda davlat uchun milliy asoslarni mustahkamlash strategiyasi bardavom ustuvorlik kasb etdi, uni biz O‘zbekistonimiz misolida yaqqol his etish, ko‘rish imkoniyatiga egamiz.

7. Dunyoda bugun globallashuv davrida bir millatli (mononatsional) birorta bir davlat mavjud emasligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlatning zimmasiga fuqarolar tomonidan yuklangan vazifalar ko‘lami toraygan emas, aksincha yanada zalvorlilik kasb etayotganligi, uning funksiyasi yanada murakablashganligi, yuki og‘irlashganligining guvohi bo‘lib turibmiz. G‘arbda keng tarqalib, ayrimlarga xush ko‘rinayotgan neoliberalizm, libertarizm singari siyosiy ta’limotlar bugun asossiz ekanligini ko‘rsatmoqda. Demak, barcha ijtimoiy-madaniy jabhalar, shu jumladan, iqtisodiyot va tijorat ham davlatning ma’rifiy aralashishini taqozo etishi turgan gap.

8. Davlat muammosiga yondashish bugungi bosqichda mutlaqo yangi tafakkur yo‘nalishini taqozo etmoqda. Bu – davlatning jamoaviy xohish-iroda, tom ma’nodagi umummilliy manfaatlar ifodachisi sifatida ular maromini jiddiy nazorat qilishligi, kerak paytda bu borada so‘nggi qat’iy so‘zini aytishi, demakki, “inson-jamiyat” zanjirining bardavomlik va barhayotlik kasb etishi uchun davlatning azaliy va abadiy zarurligi hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning fundamental qonuniyatlaridan biri ekanligi. Shunday ekan, sotsial-gumanitar fanlar tarmoqlari tomonidan bu voqelik so‘zsiz e’tirof etilishi zarur. “Inson-jamiyat-davlat” zanjiri/tizimi ijtimoiy munosabat turi sifatida abadiy davlat ana shu abadiylikni asrovchi va yaratuvchi ulkan benazir kuchdir.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Davlat tushunchasiga, qolaversa uning faoliyati bilan bog‘liq muammoga xususan siyosiy-falsafiy yondashuvning nufuzi XXI asrda oshib borayotganligini hisobga olib, O‘zbekiston olimlarining bu sohaga qo‘shayotgan ulushini sifat jihatdan oshirish, shu orqali zamonaviy o‘zbek davlatining gumanistik mohiyati va qiyofasidan jahon hamjamiyatini boxabar qilish, shu orqali o‘zbek davlatining rang-barang davlatchilik olamida o‘ziga xos o‘rnii va xususiyatini ko‘rsatish.

2. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi rahbariyati, nufuzli ommaviy axborot vositalari bugungi yangi bosqichda yurtimiz ongi va tafakkurida davlatga nisbatan yangicha hamnafaslik munosabati mudom ustuvorlik qilayotganligi; shu asosda xalqimiz jahonda noyobligini targ‘ib etuvchi ko‘rsatuvalar tashkil qilish mavridi kelganligini, xullas, fuqarolar ongida davlatimiz bilan hamnafaslik tuyg‘usini yanada oshirish haqida jiddiy o‘ylashlari zarur deb hisoblaymiz.

3. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida davlat muammosini kompleks o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot markazi ta’sis etilishi zarur deb o‘ylaymiz.

4. Oliy o‘quv yurtlari hamda o‘rta ta’lim muassasalarining yuqori pog‘onalarida zamonaviy milliy davlatimiz amaliyotiga jahonda qiziqish kuchayganligidan kelib chiqib, ushbu muammoga o‘quv kurslarida ustuvorlik berish zarur.

5. Yoshlarda, qolaversa aholining barcha qatlamlari vakillarida o‘z davlatiga nisbatan fuqarolik munosabatini shakllantirish maqsadida joylarda (oliy va o‘rta ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida, mahallalarda) “Davlat xizmatchisi qiyofasi” ruknida mutaxassislar va tarmoq vakillari ishtirokida davriy muloqot maydonchalari tashkil qilish bugungi kun talabi va ehtiyoji deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Каримов И.А. Буюк мақад йўлидан оғишмайлик // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т. “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 200.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – 1998. – №5.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т. “Ўзбекистон”, 1996.
4. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.
5. Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар – тараққиёт омили // Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. I жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.
7. Каримов И.А. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари қурултойи қатнашчиларига табрикнома // Асарлар, 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
8. Мизиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.
9. Мирзиёев Ш. Выступление на международной конференции по Афганистану 27.03.2018 // Народное слово. 2018, 29 марта.
10. Мирзиёев Ш. Ташқи ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчилари фаолиятига бағишлиланган йиғилишдаги нутқ // Халқ сўзи. 2018, 14 январь.

11. Мирзиёев Ш. Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.

12. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Президентининг Олий мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018, декабрь.

13. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.

14. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халқига Наврӯз табриги // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.

15. Мирзиёев Ш. Халқаро анжумандаги нутқи // Халқ сўзи. 2017, 13 ноябрь.

16. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Адолат миллий хуқуқий ахборот маркази. 2022.

Monografiya, maqola, patent va ilmiy to‘plamlar:

17. Абу Наср Форобий. Баҳт-саодатга эришув ҳақида // Хайруллаев М. Форобий. – Тошкент, 1963. – Б. 193-198.

18. Абу райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968.

19. Алимардонов Т. Сиёsat ва ахлоқ. – Тошкент: “Янги аср”, 2010.

20. Аль Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата, 1985.

21. Аль Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата, 1973.

22. Аъзамхўжаев А.А. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг хуқуқий асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1993.

23. Бобоев X., Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1999.

24. Жумаев Р.З., Назаров Қ.Н. Ўзбекистон республикаси сиёсий тизими: шаклланиши ва ривожи. – Тошкент: “Шарқ”, 1996.

25. Жўраев З. Мовардийнинг Шарқ давлатчилик таълимоти (Х-XI асрлар). –

26. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни. – Тошкент, 2013.
27. Зиё Азamat. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: “Шарқ”, 2000.
28. Иброҳимов А. Бизким ўзбеклар (Миллий давлатчилигимиз ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: “Шарқ”, 1999.
29. Исаев И.А. Справедливость и суверенность // История государства и права. – № 1.
30. Исаев И.А. Учредительное насилие: мест и жертвоприношение // История государства и права. – 2018. – №3.
31. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. – Тошкент, 2000.
32. Камолиддин Ш.С. “Географическая карта Средней Азии Василио Ватадзи”. – Т., 2005.
33. Қодиров М. Абу Наср Форобий фазилат, баҳт ва камолот ҳақида. – Тошкент, 2001.
34. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007.
35. Назаров Қ. Шарқ ва Ғарб – илдизлари туташ маъволар // Жаҳон адабиёти. – 2017. – №1. – Б. 147-155.
36. Сайдов А.Х., Жузжоний А. Шарқ цивилизацияси: инсон ва ҳуқуқ (ўтмиш ва ҳозирги замон). – Тошкент: “Адолат”, 2005.
37. Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожибининг “Кутадғу билиг” асари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1991.
38. Ўзбекистон мустақиллиги – миллатлараро муносабатларда янги давр // Ўзбекистон – умумий уйимиз. Узбекистан наш общий дом. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2001.
39. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятини шакллантириш. – Тошкент: “Шарқ”, 2003.
40. Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: “Маънавият”, 2007.
41. Яссавий Ҳожа Аҳмад. Девони ҳикмат. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2004.

Xorijiy adabiyotlar:

42. Абу-л-Хасан ал Моварди. Законы власти и религиозное правления/Перевод Т.Туманяна // Вопросы философии. – 2018. – №5.
43. Алексеева И.Ю., Алексеев А.П. Философия исторической памяти // Вопросы философии. – 2018. – №10.
44. Аристотель. Политика. Кн. первая // сочинения в 4-х томах. – М.. 1984. Т. 4.
45. Барлыбаев Х.А. О философии солидарных отношений // Вопросы философии. – 2018. – №12.
46. Бердяев Н. Судьба России. – М.: “Эхо”, 1990.
47. Борисова А., Журавлёва В. Американское государство: кризис доверия // Мировая экономика и международные отношения. – 2018.
48. Буряков Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1997.
49. Ван Янмин. Записки о направлении и учёбе // Философские идеи Шанхая. – 2015.
50. Вернадский В.И. Размышления натуралиста. – М.: Наука, 1977.
51. Всемирная энциклопедия философии. – М. – Минск: «Альма-Матер», 2001.
52. Галиев Ф.Х. Комаров С.А. Общество и государство: современные точки соприкосновения и взаимодействия // Государства и права. – 2018. – №12.
53. Геворкян Е.Г. Иносказания в «Теэтете» Платона // Вопросы философии. – 1985. – №1.
54. Гегель Г.В. История философии // Соч. Т. 8.
55. Гегель Г.В. Отношение философии к другим областям // Соч. Т. 9. Лекции по истории философии. – М., 1932.
56. Гегель. Женская реальная философия // Гегель. Работы разных лет. В 2-х томах. – М.: “Наука”, 1970. Т. 1.
57. Гегель. Политические произведения. – М., 1978.

58. Гегель. Философия права. – М., 1990.
59. Гегель. Ҳуқуқ фалсафаси // Сочинения. – М.–Л., 1934. Т. 7.
60. Гельвеций К.– А. О человеке // Сочинения в 2-томах. – М., 1974.
61. Грачинов Е. Становление национальной школы теории МО // Международные процессы. Т. 4. – 2016. – №2.
62. Гумилев А.Н. Древняя Русь и Великая степь. – М., 1994.
63. Гусейнов А.А. Мораль как предель рациональности // Вопросы философии. – 2012. – №5.
64. Даллмайер Ф.Р., Деменчёнок Э.В. Мир по ту сторону глобального беспорядка // Вопросы философии. – 2018. – №10.
65. Де Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1987.
66. Де-Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1997.
67. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда// Метод социологии. – М., 1991.
68. Идентичность, личность, общество, политика. Энциклопедическое издание. – М.: «Весь мир», 2017. – 992 с.
69. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества // Избранные сочинения. Т. 6. – М.: “Наука” 1966.
70. Ильин И.А. Наши задачи. Историческая судьба и будущее России. В 2 т. – М., 1992. Т. I.
71. Историческое писание “Васссалы” // У Чинь. Философские идеи. –
72. Канон жертвенника: мудрость // У Чинь. Философские идеи. –
73. Кант И. Идеи всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – 1966.
74. Карнап Р. Философские основания физики // Введение в философию науки. – М., 1971.
75. Категории политической науки. – М., 2002.
76. Ковельман А.Б. Семиосфера и Матрица // Вопросы философии. – 2018. – №9.
77. Конфуций. У истоков мудрости. – М.: “Альма Матер”, 2008.

78. Красин Ю. Расчёт циклов или анализ реальности // Мировая экономика и международные отношения. – 2003. – №5.

79. Крыштоп Л.Э., Псху Р.В. Развитие герменевтической идеи в европейской философии и спецификаcommentatorской традиции в Индии // Вопросы философии. – 2017. – №12.

80. Кутовой Д.А. Сущность государства информационного права: дихотомия властных отношений // История государства и права. – 2018. – №4. – С. 78.

81. Майданов А.С. Миф как средство сакрализации жизненного мира человека // Вопросы философии. – 2018. – №9. – С. 207-214.

82. Мартынов Д.Е., Мартынов Ю.А. Нирвана и анархия: учение о пяти исчезновениях // Вопросы философии. – 2018. – №8. – С. 171-177.

83. Международная жизнь. – 2006. – №7.

84. Мирославская Е.Ю. особенности патриархально-богословской концепции происхождения древнерусского государства // История государства и права. – 2018. – №1.

85. Моисеев Н. Размышление о современной политологии. Политические науки:

86. Момжян К.Х. Гипотеза общественного прогресса в современной социальной теории // Вопросы философии. – 2016. – №10.

87. Монтескё. О духе законов. Избр. произ-я. – М., 1995.

88. Особенности современных интеграционных процессов на постсоветском пространстве/Материалы международной конференции. – Ялта, октябрь, 2014 // США –Канада: экономика, политика, культура. – 2015. – № 1.

89. Панченко М.Ю. России не стоит мешать Соединённым Штатам, они сами работают против себя // Вечерняя Москва. – 2019, 16 января.

90. Пятигорский А. Непрекращающийся разговор. – Санкт-Петербург: “Питер”, 2004.

91. Рассел Б. Человеческое познание. – М. «Наука», 1957.

92. Речи царств // У Чинь. Философские идеи.
93. Ризоев Ш.Х. К вопросу социальной природе власти // Вопросы философии. – 2018. – № 5.
94. Риттер К.П. О пространственных отношениях на поверхности Земного шара и их влияние на ход исторического развития // Полис. – 2005. – № 5.
95. Россман В. Платон как зеркало, русской идеи // Вопросы философии. – 2005. – № 4.
96. Руссо Ж. – Ж. Онтология мировой философии. В 4-томах. – М., 1970.
97. Руссо Ж.-Ж. О причинах неравенства // Онтология мировой философии. В 4-х тома. – М.: “Наука”, 1971.
98. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Трактаты. – М.: “Наука”, 1969.
99. Савастеева Ю.В. Академик Конрад и его концепция Возрождения на Востоке // Проблемы истории и теория мировой цивилизации. – М., 1994.
100. Сартр Жан-Поль. Марксизм и экзистенциализм // Вест. Моск. Ун-та. Философия. – 1990. – Серия 7.
101. Симонян Р.Х. Кризис либеральной рыночной модели либерализации // Вопросы философии. – 2018. – №8.
102. Скороходова Т.Г. Проблема «Восток-Запад» в социальной мысли Бенгальского Возрождения // Вопросы философии. – 2017. – №12.
103. Спиноза Б. Богословско-политический трактат // Избранное произведения. – Т. 2. – М.: “Наука”, 1996.
104. Стёpin В.С. Философская антропология и философия культуры. Избранное. – М.: “Альма-Матер”, 2015.
105. Токвиль А. де. Демократия в Америке. – М.: “Моск. изд-ский дом”, 1990.
106. Торчинов Е.А. Даосизм: опыт историко-религиоведческого описания. – Санкт-Петербург: “Питер”, 1993.

107. Тощенко Ж.Т. Социология жизни как теоретическая концепция // Социс. – 2015. – №1.
108. Традиции и новации: полсотни взглядов на идентичность // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. – №12. – С. 111.
109. Трансформация политической власти в переходный период (рецензия О.Воркуновой из ИМЭМО) // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. – №4.
110. Удержание Изначального (Чжун Юн)/Перевод с китайского И.Канаева // Вопросы философии. – 2018. – № 8.
111. Удержание Изначального/Перевод И.Канаева // Вопросы философии. – 2018. – № 8.
112. Федотова В., Колпаков В., Федотова Н. Глобальный капитализм: великие трансформации (социально-философский анализ общества и экономики). – М., 2008.
113. Федотова В.Г., Федотова Н.Н., Чугров С.В. культура, институты, политика // Полис. – 2018. – №1. – С. 143-156.
114. Федотова Г.П. О национальном покаянии // Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2-х т. – Санкт Петербург, 1991.
115. Фейербах Л. Необходимость реформы философии // Избранные философские произведения. В 2-х томах. – М.: “Прогресс” 1955. Т. I.
116. Фихте И.Г. Основные черты современной эпохи. – СПб., 1886. – С. 13.
117. Хайдеггер М. “Время картины мира”. Новая технократическая война на Западе. – М., 1986.
118. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9.
119. Цзин Цанжун. Буюк давлат масъулияти: Хитой истиқболи. – Тошкент: Академнашр Олтин медиа, 2017.
120. Чин У. Философские идеи. – Пекин, 2015.
121. Чинь У. Философские идеи. – Шанхай: Международный издательский дом, 2009.

122. Шёлер М. Положение человека в космосе // Проблема человека в западной философии.– М., 1988.

123. Щедровицкий П. Изменения в мышлении XXI века: социокультурные вызовы // Вопросы философии. – 2007. – № 7.

124. Ranke I. Von – The Theory and Practice of History/ – Bonn, 1991.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

124. Абдумаликов А. Фуқаролик жамиятини ривожлантириш шароитида шахс информацион маданиятини шакллантириш: Фалсафа фан доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2017.

125. Абдусаламов Ф.С. Религиозно-этическое воззрения Абу Насра Фараби (кандидатская диссертация); Жакбаров М.Т. Шарқ Уйғониши ва комил инсон муаммоси. – Тошкент: Фан, 2001.

126. Бутаев У. Ўзбекистонда демократик жамият ривожида тинчлик ва барқарорликнинг ўрни: Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 2018.

127. Жуманиёзов Х.С. Мустақиллик ва миллий ривожланишнинг маънавий-мафкуравий салоҳиятини шакллантириш муаммолари: Сиёсий фанлар номзоди дисс. – Тошкент, 2010.

128. Жўраев Р. Ўзбекистонда умумдавлат ва ҳудудий манфатлар мутаносиблигига эришиш механизмларини такомиллаштириш: Сиёсий фанлар доктори дисс. . – Тошкент: ЎзМУ, 2017.

129. Жўракулов Ф. Фуқаролик жамиятини қуриш шароитида давлат ижроия ҳокимияти тизимини модернизациялаш: Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 2018.

130. Қаҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар: Фалсафа фан. доктори. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2012.

131. Қодирова З. Ўзбекистон жамияти ҳаётининг барча соҳаларини ислоҳ қилишда ёшларнинг ижтимоий фаолиги: Фалсафа фан. доктори. дисс. – Тошкент: ЎзФА Фалсафа ва хуқуқ институти, 1999.

132.Курбанбаев Қ.Қ. Давлат бошқарув кадрлари тизими: шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (сиёсий-ижтимоий жиҳатлари). Сиёсий фан. доктори. дисс. – Тошкент: ДЖҚА, 2008.

133.Курбонов Р. Миллий ғоянинг ёшларниҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги роли: Фалсафа фан. номзоди дисс.– Тошкент, 2009.

134.Қўчкоров В. Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий ҳаётни демократиялаш жараёнида миллий ўзликни англаш муаммоси (сиёсий-фалсафий тадқиқот): Сиёсий фан. доктори. дисс. – Тошкент, 2009.

135.Мавлонов Ж. Фуқаролик жамиятига оид замонавий концептуал дискурснинг асосий йўналишлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент, 2017.

136.Матибоев Т. Ўзбекистонда давлат ва жамият ҳаётининг демократлашуви жараёнида ижтимоий ҳамкорлик тизимини ривожлантириш омиллари: Социология фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 2018.

137.Муминов А.Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути её реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика): Автореф. дисс... докт.полит.наук. – Ташкент, 1999.

138.Муҳиддинова Ф.А. Абу Наср Форобийнинг давлат ва хуқуқ ҳақидаги таълимоти: Юридик фанлар номз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2001.

139.Неъматов Б.М. Фараби и преемственность в развитии учений общественно-политического прогресса (кандидатская диссертация).

140.Норқулов С. Мустақиллик даврида Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожланиши ва ижтимоий онгдаги ўзгаришлар: Фалсафа фан доктори (DSc) дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 2018.

141.Отақулов Ш. Ўзбекистонда сиёсий тартибот институтининг демократлашув жараёни: Сиёсий фан доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2017.

142.Ташанов А. Бузғунчи ғояларнинг милий ўзликни англашга салбий таъсири: Фалсафа фан доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2017.

143. Юлдашев М. Мустақил Ўзбекистон Республикасида ёшларни тарбиялаш жараёнида уларнинг сиёсий маданияти шаклланиши муаммолари: Фалсафа фан. доктори. дисс.– Тошкент: ЎзМУ, 1999.